

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

*Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL*

2024-yil 6-son

Urganch-2024

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekimmetov – Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay’ati:

Z.Do’simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.

G.U.Pardayev – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O’razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G’ayipov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

A.I.Primov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

S.E.Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

D.I.Yo’ldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

S.M.Sariyev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori, (PhD).

M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.

Ch.A. Sabirova – Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent

D.A.O’razboyeva – Psixologiya fanlari doktori, dotsent.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

S.R.Davletov – Tarix fanlari doktori, professor.

O’I.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.

G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, dotsent.

Q.Y.Masharipov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

N.R.Matyakubov – Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

B.M.Satimov – Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

M.S.Xajiyeva – Falsafa fanlari doktori, professor.

B.I.Abdullayev – Fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU rektori).

R.Y.Ro’ziboyev – Tibbiyot fanlari doktori, professor, (TTA UF direktori).

A.R.Matnazarov – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).

H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog’iston).

J.R.Yarmetov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

J.S.Iskandarov – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O.Radjabov – Falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent.

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
№ 6 (16), Urganch innovatsion universiteti, 2024-yil.

MUNDARIJA:

TARIX

G.IBRAXIMOVA. Abulg‘ozixon asarlarining tarixiy ahamiyati	4
M. SALIMOV. Boboovund Salimovning Xorazmdagi tarixiy jarayonlarda tutgan o‘rni	12
A. MUSAYEV. Ilk Ashtarxoniylar davrida Farg‘ona vodiysi.	21
U.BEKMUHAMMAD. Uzoq Sharqdagi koreyslarning Xorazmga ko‘chirib keltirilishi va ularning viloyatdagi fidokorona faoliyati	36
M.XASANOV. Mo‘g‘uliston safarnomasi.....	45

FILOLOGIYA

U.AXMEDOVA. Xorijiy tillar va ijtimoiy fanlarni o‘qitishda talablarning ijodkorligini rivojlantirish	58
S.SAMANDAROVA, U.BEKMUHAMMAD. Avaz O‘tar ijodidagi jadidchilik g‘oyalari	62

ARXITEKTURA

G.DURDIEVA, I.RUSTAMOV. Qadimiy Xorazm “Mizdakxon” paxsadevor me‘moriy yodgorligining arxitekturaviy xususiyati	66
---	----

TARIX**ABULG‘OZIXON ASARLARINING TARIXIY AHAMIYATI**

**Gulzoda
IBRAXIMOVA**
Urganch innovatsion
universiteti o‘qituvchisi

UO‘K 574.510

Annotatsiya: ushbu maqolada Xiva xoni Abulg‘ozixonning ikkita tarixiy asari tahlil etiladi. Shuningdek, asarlardagi tarixiy jarayonlarning Xorazm tarixida tutgan o‘rni ham yoritib beriladi.

Аннотация: в статье анализируются два исторических произведения хивинского хана Абулгазихана. Также будет освещена роль исторических процессов в трудах по истории Хорезма.

Annotation: this article analyzes two historical works of Khiva Khan Abulgazi Khan. Also, the role of the historical processes in the works in the history of Khorezm will be highlighted.

Kalit so‘zlar: qo‘lyozma, tarix, urug‘lar, tarjima, tarixiy jarayonlar, Xorazm tarixi.

Ключевые слова: рукопись, история, семена, перевод, исторические процессы, история Хорезма.

Key words: manuscript, history, seeds, translation, historical processes, Khorezm history.

Xiva xoni Abulg‘ozixonndan ikkita tarixiy asar meros bo‘lib qolgan. Biri “Shajarayi tarokima” (1658 – 1661-yillar orasida yozilgan deb taxmin qilinadi) deb atalib, turkiy qabilalarning, xususan, turkman qabilalarining kelib chiqishi haqida qimmatli ma’lumot beradi. Asarda barcha turklarning afsonaviy podshosi O‘g‘uzxon va uning avlodi tarixi, shuningdek, turkman urug‘lari (solar, bayondur, taka, yovmut, tevachi, Xizr eli, sariq, Ali eli, yozir, ersori va boshqalar)ning kelib chiqishi qisqa tarzda bayon etilgan. “Shajarayi tarokima”, Abulg‘ozixonning o‘z so‘zlariga qaraganda, turkman mullalari, shayxlari va beklarining iltimosi bilan yozilgan. Ushbu asarning tanqidiy matni, ruscha tarjimasini, katta ilmiy tadqiqot bilan birga, 1958-yili A.N.Kononov (1906 – 1986) tarafidan Sankt-Peterburgda chop etilgan¹. Mazkur asardan dunyo kutubxonalari va ilmiy tadqiqot

¹ Qarang: Самойлович А.Н. Одни из списков «Родословного древа туркменского» Абулгази-хана // ДАН-В. 1927. – С. 39-42; Кононов Л. П. Родословный туркмен, сочинение Абу-л-Газн, хана хивинского. -М.-Л., 1958. – С. 20-27; Собрание, И, 72, №171; Кал Е. Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской Публичной библиотеки. Т.,1889. – С. 52. – № 801. (г); Туманский А.Г. Абул-Гази-Бохадур-хан, Родословная туркмен, Ашхабад, 1897 (по ташкентской рукописи). Шажарайи Тарокима. -Истанбул. 1937; Кононов А.Н. Родословная

institutlarida bizga ma'lum yettita nusxasi ma'lum. Ulardan ikkitasi Rossiyada² va qolgan beshta nusxasi Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Ular turli vaqtlarda ko'chirilgan bo'lib, faqat ikkitasida kotiblarning nomi yozilgan. Bulardan biri Mirzo Omon ibn Ison G'uzoriy bo'lib, nusxani 1341-yil rajab oyida – 1923-yil 17-fevral – 19-mart kunlarida Buxoroda ko'chirgan (nusxa raqami – 1223). Ikkinchi kotib Muhammadsharifxo'ja Muhammado'g'li Mullo Boqijon Rahmon o'g'li iltimosi bilan 1344-yil rabiul al-avval oyida – milodiy 1925-yil 19-sentabr – 19-oktabrda ko'chirgani ma'lum bo'ladi (nusxa raqami – 1807)³.

Abulg'ozixonning ikkinchi asari “Shajarayi turk” nomi bilan mashhur. Mazkur asarning asosiy qismi 1663-1664-yillarda yozilgan. Unda Xorazmning XVI – XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etiladi⁴.

“Shajarayi turk”ning yozilish sabablari haqida muallifning o'zi bunday deydi: “Ammo bizning ota-oqalarimizning beparvolig'i va Xorazm xalqining bevuquflig'i, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizning Abdullohxonning (shayboniy Abdullaxon II; 1583 - 1598-yillari Buxoro xoni) otalari (Abulxayrxon; 1528 - 1568-yillar) birlan bizning otalarimizning (shayboniy Yodgorxon; XV asr) ayrilgan yeridin to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir

туркмен. (текст, перевод, комментарии и исследование). М. — Л., 1958. Самойлович А.Н. По поводу издания Н. П.

Остроумовым “Светоч ислама” // ЗВОРАО, ХВИИИ. – С. 2-4; Бартолд В.В. Очерк истории туркменского народа. // Туркмения. Л., 1929. – С. 36. – Сочинения. Т. III. Ч.1. – С. 584-594; МИТТ. III. – С. 28-38.

² Rossiyadagi nusxalari tavsifiga qarang:

Dmitriyeva L.V., Muginov A.M., Muratov S.N. Opisanije tyurkskix rukopisey Instiuta Narodov Azii. I. Istorija. / Rod red. A.N. Kononova. -MOSKVA: Nauka. 1965. – S. 92-94.

³ Ushbu nusxalarning boshqa tavsifi haqida qarang: Sobraniye vostochnyx Rukopisey AN Respubliki Uzbekistan (SVR). Istorija. / Sostaviteli: D.Yu. Yusupova, R.P.Djalilova. -Toshkent.: Fan, 1988. – S, 152-154.

⁴ Abulg'ozixonning ushbu asaridan 11 nusxasi Toshkentda (O'z FA SHI) va oltita nusxasi Sankt-Peterburgda saqlanadi. Qaralsin: SVR. Istorija. – S. 154-155; Axmedov B. Istoriko-geograficheskaya literatura. – S. 72-78; Shu muallif.Tarixdan saboqlar. – B. 217-223; Dmitriyeva L.V., Muginov A.M., Muratov S.N. Opisanije tyurkskix rukopisey Instiuta Narodov Azii. I. Istorija. – S. 93-94; Yana qarang: Leksii I.N. Berezina, zapisannyye studentom V. Ignatyevym v 1866 g., 4-ya leksiya. / Arxiv vostokovedov LO INA AN SSSR, razryad III, opis 1. – № 31. V “Uchenyx zapiskax IV AN SSSR”. VI, 1953. – С. 41 va keyingilari (№29); Yana asrning boshqa nusxalari haqida qarang: Pertsch W. Die Handschriften-Verzeichnisse der königlichen Bibliothek zu Berlin. Bd.VI. Verzeichniss der türkischen Handschriften, Berlin. 1889. B. 228. №204; Rieu Ch. Catalogue of rhe Turkish Manuscripts in the British Muzeum. London. 1888. 282a; Blochet E. Catalogue des manuscrits turcs de la bibliothèque Nationale de Paris. T. I. Paris. 1932. 232. №141; Tarjimalari: Desmaisons P. Aboul-Ghâzi Bèhâdour-Khan. Histoire de Mogols et de Tatares..., St.-Pbg. I, 1871 (matni). II. 1874 (tarjima); Abulgazi. Shadjarayi turk. Perevod Tred'yakovskogo. (Kazan) 1770; Rodoslovnnoye drevo tyurkov. Sochineniye Abul-Gazi xana xivinskogo. Perevod i predisloviye G.S. Sablukova. Kazan, 1906. O'zbek tilidagi nashrlari:

kishiga taklif qilali deb fikr qilduq, hech munosib kishi topmaduq, zarur bo‘ldi [va] ul sababdin o‘zimiz aytduq”⁵.

Asar qisqa muqaddima va to‘qqiz bobdan iborat:

1) Odam Atodan to turklarning qadimgi xonlaridan Mo‘g‘ulxongacha kechgan hodisalar zikri;

2) Mo‘g‘ulxondan Chingizxongacha bo‘lgan tarix;

3) Chingizxonning tug‘ilganidan to vafotigacha bo‘lgan tarixi;

4) Chingizxonning uchinchi o‘g‘li O‘g‘adoy qoon va avlodi, shuningdek, Chingizxonning boshqa o‘g‘illari naslidin bo‘lgan va Mo‘g‘ulistonda podsholik qilganlar zikri;

5) Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxon avlodidan Movaraunnahr va Qoshg‘arda podsholik qilgan xonlarning zikri;

6) Chingizxonning kenja o‘g‘li Tuluyxon avlodidan Eronda podsholik qilganlar (ular tarixda Elxoniylar deb ataladi: 1256 – 1336-yillari hukmronlik qilganlar) zikri;

7) Chingizxonning ulug‘ o‘g‘li Jo‘jixon avlodidan Dashti Qipchoqda podshoh bo‘lganlar zikri;

8) Jo‘jixonning beshinchi o‘g‘li Shaybon (XIII asr) avlodidan Movaraunnahr, Qrim, Qozoq, va Turonda xonlik qilganlar, shuningdek, Jo‘jixonning o‘n uchinchi o‘g‘li To‘qay Temurxon naslidan Qrim, Qozoq va Movaraunnahrda podsholik qilganlar zikri;

9) Shaybon avlodidan Xorazm mamlakatida podsholik qilganlar zikri.

Abulg‘ozixon asarning 7, 8 va 9-boblarining bir qismini (1644-yilgacha kechgan voqealar tarixini) yozib ulgurgan, xolos. 1-6-boblar va 9-bobning davomi (1644 – 1664-yil voqealari) Anushaxonning topshirig‘i bilan Mahmud ibn mulla Muhammad Urganjiy degan olim tarafidan yozilgan. Bu haqda asarda mana bunday qayd bor: “Ma’lum bo‘lsinkim, Abulg‘ozixoniy jannat makon bu kitobni tasnif qilib yarmiga yetkanda xasta bo‘ldilar, o‘g‘illariga vasiyat qilib tururlarkim, bu kitobni notamom qo‘ymang, itmomiga sa’iy qiling. Ul sababdin Abulmuzaffar va-l-mansur Anushaxon ibn Abulg‘ozixon marhum va mag‘furiy, bu bandayi bebizoat va kaminayi beistitoat Mahmudiy ibn mulla Muhammad Zamoni Urganjiy bo‘lg‘ayman, “bu kitobni itmomig‘a yetkur”, deb hukm qildilar”⁶. Endi bu hukm qachon bajarilganini aniqlasak. Bunda bizga asarning xotimasiga ilova qilgan Mahmud ibn Muhammad Zamonning izohlari yordam beradi. Birinchisi shuki, Mahmud Urganjiy asarni davom ettirishga kirishar ekan, unda Anushaxon ibn Abulg‘oziy “marhum va mahfur”, ya’ni olamdan o‘tgan shaxs sifatida tilga olgan. Bas, Mahmud Urganjiy buyruq bergan xonning vafotidan so‘ng asarni

⁵ Abulg‘oziy. Shajarayi turk. – B.9.

⁶ Abulg‘oziy. Shajarayi turk. – B. 173 (matni 185^b) Yana qarang: Dmitriyeva L.V., Muginov A.M., Muratov S.N. Opisanije tyurkskix rukopisey Instiuta Narodov Azii. I. Istoriya. / Rod red. A.N. Kononova. MOSKVA: Nauka. 1965. – S. 94.

davom ettirishga kirishgan. Ikkinchi izoh esa asarning yozib tugatilishi sanasini aniqlaydi. To‘qqizinchi bobdagi “Avaneshxonning podshohliqining zikri” nomli kichik bobdan keyin keluvchi qism matnida aks topgan. Uni Mahmud Urganjiy hijriy 1116 – 1704/05 yili Xorazmda bosh xon bo‘lib turgan “oliysha’n Muso



Muhammadxon” buyrug‘i bilan kitobga kiritgan. Muso Muhammadxon esa Shohg‘oziy ibn Avazg‘oziy ibn Sultong‘oziy ibn Elbarsxonning o‘g‘li bo‘lgan. Uning nasabiga kelsak, Abulg‘oziy quyidagi ma’lumotlarni beradi. Dashti qipchoqlik Elbarsxon 1512-1513-yillari Xorazmdan safaviylarning noiblari va qo‘shinlarini haydab, xon ko‘tariladi va qarindoshlaridan amakilarini ham da’vat etib, ularga mamlakat tumanlarini idora etish uchun beradi. Oradan ancha vaqt o‘tgach, 1532-yili arzimagan narsa uchun Elbarsxon avlodlari bilan uning amakivachchasi Avanesh sulton va avlodurug‘lari o‘rtasida qirg‘inbarot urushlar bo‘ladi. Oqibatda Elbarsning farzandlari mag‘lub bo‘lib, barchalari Buxoro, Samarqand va Toshkentga

qarindoshi bo‘lgan shayboniylar huzuriga ketishga majbur bo‘lishadi. Ulardan sulton G‘oziy ibn Elbars Buxoro xoni Ubaydullohxon ko‘magida Xorazmni qisqa vaqtga qaytarib olishidan ham natija chiqmaydi. Bular haqida Abulg‘oziy mufassal ma’lumot beradi. Shunday ekan “Shajarayi turk” hijriy 1116 – 1704/05 yili Muso Muhammadxon hukmronligi davrida uning buyrug‘i bilan ham o‘z nihoyasiga yetgan ekan. Asar Abulg‘ozixonidan avval yozilgan birmuncha tarixiy kitoblar (umumiy soni 18)ga asoslangan. Bundan tashqari, asarning original qismini (8, 9-boblari) yozishda muallif o‘zi bilan va so‘rab-surishtirib to‘plagan ma’lumotlaridan ham keng foydalangan.

“Shajarayi turk” tarixning turli masalalariga (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, etnik va boshqalarga) oid e’tiborga molik, ma’lumotlarga boy, g‘oyatda kata ilmiy asardir. Biz misol tariqasida ulardan ayrimlarini qayd etib o‘tamiz.

Tarixiy ma’lumotlar ichida Shaybon ulusi va uning sarhadlari, uning XV asrning so‘nggi choragi, XVI asr boshlaridagi umumiy ahvoli, Sibir xonligi, Xorazmning XVI – XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, uning Rossiya, Qozoq hamda Buxoro xonliklari bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlari haqidagi ma’lumotlar diqqatga sazovordir. Masalan, Shaybon ulusining sarhadlari va tashkil topgan vaqti haqida asarda bunday deyilgan: “Ul (Botuxon) bu safarda (1236-1240-yillari Mojoy, Boshg‘ird, Rus va Kuril yerlariga qilingan harbiy yurishi) ishinni bitirgan sen bo‘lding” tedi. Tag‘i Shaybonxonga juldu teb o‘n besh ming evlik el berdi... ul safarda olg‘an o‘lja viloyatlardan Quril

(asli Kelar) yurtini berdi. Bayri elindan qo‘shga va naymam va qorliq va buyrakni, [ya’ni] bu to‘rt uruq elni berdi. Tag‘i aydiki, “o‘lturur yurtung akam (O‘rda) Ichan birlan mening oramizda bo‘lsun. Yoz yozina Irg‘iz va Ur va Ila (daryolaridan) to Urol tog‘igacha, Yoyiqning (Urol daryosining) kun tug‘ish tarafini yaylag‘il. Qish bo‘lganda Oraqum, Qoraqum va Sir suvining bo‘yi, Chu suvining, Sari (Sariq) suvining oyoqina qishlag‘il, tedi”⁷.

Ma’lumki, XV asrning 20-yillarida tashkil topgan, Sibir xonligi nomi bilan mashhur bo‘lgan va G‘arbiy Sibir ustidan hukm yurgizgan feodal davlat tepasida ham o‘sha Shaybon naslidan bo‘lgan xonlar turgan. Ularning so‘nggi xonlaridan Ko‘chumxon (1563-1598) haqida asarda mana bularni o‘qish mumkin “...Mahmudakxoni mazkurning bir o‘g‘li Murtazoxon, aning o‘g‘li Kuchumxon... Bu Ko‘chumxon Turo viloyatida qirq yil podshohlik qildi. Uzun yosh tobdi. Axir ikki ko‘zi nobino bo‘ldi. Tarix 1003/1595-yilda Ko‘chumxonning qo‘lindin Turoni o‘ris oldi. Ko‘chumxon qochib mang‘it xalqining ichiga bordi. Taqi haq rahmatig‘a ketdi”⁸.

Asarda rus xalqi va Rossiya bilan munosabatlar haqida ham qisqa, lekin e‘tiborga molik ma’lumotlar keltirilgan. Mana ulardan ba’zilari: “[Arab Muhammad] xon bo‘lgandin (1602-yili) olti oydin so‘ng Qo‘sh yoyiq tegandi yurugan o‘rusning qozoqindin ming kishi saratonning avvalgi kuni g‘ofil kelib, Urganching qal‘asina kirdi. Shaharda ra‘iyatdin o‘zga kishi yo‘q edi. Xonning urdusi va sipoh xalqi Amu suvining labinda erdilar.. [Urus qozoqi] Urganchda ra‘iyatdin ming kishini o‘lturdi va ming qiz birlan juvonnini oldi. Ming arabag‘a yaxshi mollardin yukladi. Bo‘z va buyog‘li va palos va to‘n va to‘shak-yastuq mundag‘ nimarsalarning barchasini o‘tga yoqdi. Bularni saranjom qilguncha yetti kun bo‘ldi. Andin so‘ng Urganchdin chiqib daryo labiga yurudu...” Va yana: “Biz dunyoga kelgan yilining avval baxorinda o‘n yetti kishi Urusg‘a savdoga ketar. Qo‘sh yoyiq teganda ming qozoq o‘rus bor erkanda. Yo‘lda anga uchray qolur, [alardin] ikkisini o‘lturur, saqlag‘an kishilardin Urganchning xabarin so‘rar...”⁹.

Asarda keltirilgan etnografik, ya’ni turk-mo‘g‘ul qabilalari, xususan, ular nomlarining ma’nosi haqidagi ma’lumotlar, o‘zbeklar, sartlar hamda turkman urug‘lari (sariq, yovmut, ersari va h) haqidagi ma’lumotlar ham o‘ta muhimdir. Jumladan, u turkiy qabilalarga kiruvchi va turk nomi bilan ataluvchi qabilalar quyidagi katta 5 avlod (bo‘g‘in)ni tashkil qiladi degan. Bular: uyg‘ur, qang‘li/qangli, qipchoq, qalach, qarluq qabilalari. So‘ngra u boshqa turkiy qabila va urug‘lar haqida to‘xtab o‘tadi: 1. Tekrin yoki mekrin. 2. Qirg‘izlar. 3. Kem-kemchutlar. 4. O‘rmonkat. 5. Nukuzlar. 6. Tatarlar. 7. Oyrat/uyrat. 8. To‘rg‘ovut. 9. Qo‘ri. 10. To‘las. 11. Bulg‘ochin. 12. Kermuchin. 13. Tulengut. 14. O‘rasut. 15.

⁷ Abulg‘oziy. Shajarayi turk. – B. 106 .

⁸ O‘sha joyda. – B. 96.

⁹ Abulg‘oziy. Shajarayi turk. – B. 160.

Kusutmay. 16. Nayman. 17. Kerayit. 18. O'ngut. 19. Turg'oq. E'tiborlisi, shundaki, Abulg'oziy bu etnonimlarning ba'zilarini etimologiyasi bilan beradi¹⁰.

Abulg'oziy Bahodirxon o'z kitobida mo'g'ullarni ikki katta qismga ajratadi. Biri qiyon/qiyot (nirun), ikkinchisi nuguz/nukuz (darlikin). Bulardan tashqari, mo'g'ullardan 25 ta urug' va qabilalarini tilga oladiki, ulardan barisi o'zbek xalqining etnik tarkibiga kirgan¹¹. "Asl lafzi mo'g'ul mo'gul turur. Avomning tili kelmaslikidin bora-bora mo'g'ul tedilar. Mungning ma'nosin barcha turk bilurlar: qayg'u ma'nosina turur. Uning ma'nosi sodadil, ya'ni qayg'uli soda temak bulur"; "Qipchoq – Tan (Don) va Itil (Volga) va Yoyiq (Ural), bu aytilg'an suvlarning orasinda o'lturlar"; "Qiniqli turkman birlan birga o'lturur erdilar. Turkman viloyatg'a tushgandin so'ng Issiqko'l va Chu va Talosh; bu aytilg'an suvlarning yoqalarinda vatan qilib, ko'p yillar o'lturdilar, Urganch podshohlarindin Tekashxon (1172-1200-yillari hukmronlik qilgan) qiniqlining bir o'g'lining qizin oldi. Turkan otlig. Sulton Muhammad Xorazmshoh (1200-1220-yillari hukm surgan) ul qizdin tug'di". So'nggi misol: "To'qtog'uxon (1290-1312-yillari hukmronlik qilgan Oltin O'rda xoni), o'lgandin so'ng o'n uch yoshinda O'zbekxon (1312-1342) xon bo'ldi. Taqi elni ota-bobosining dasturi birlan zabt qildi. Har kimning martabasini loyiq hurmat qilib, in'omlar berdi. El-ulusni dini islomg'a kirguzdi... Andin so'ng Jo'ji elini o'zbek eli tedilar"¹².

O'zbeklarning urug' va qabilalariga tegishli ma'lumotlardan asarda keltirilgan nomlar juda muhim. Bular: Orlot-arlat, og'or, olaqanotli, o'qli, aymoq, boshqird, bayot, tot, totar, temirli, turumchi, turk, turkman, taka, turbotli, tevachi, jobi, jomachi, cho'bichoq, cho'boni, chig'atoy, cho'ni, xizir eli, xurosonli, xalaj, dukar, soiq, solur, surxi/surqi, soqar, saljuq, sultonli, savroqi, sovchili, qo'rg'oli, qo'rqin, qorliq, qipchoq, qoratoshli, qalmoq, qirg'iz, chiroyli, qutlar, lola, mo'g'ul, mang'it, nayman, mo'ndi, yozir, yag'mo, yovmut, yurti va boshqalar¹³.

O'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga oid ma'lumotlar ham asarda aks etib, Xorazmning o'sha zamonlarda ham obod bo'lganligi, Amudaryo o'zanining o'zgargan vaqti va uning oqibatlari haqidagi ma'lumotlar ahamiyatlidir. Bu xususida ham bir-ikki misol keltirish mumkin: "Ul vaqtda (So'fiyonxon zamonida) Urganchdin Abulxon (Kaspiy dengizining sharqiy tarafida, hozirgi Krasnovodsk qo'ltig'ining janubi-sharqiy tarafida joylashgan tog'li nohiya) bormoq bu ovuldin ul ovulg'a borg'ontek erdi. Aning uchun Amu suvi Urganch qal'asining tubidan o'tib, Abulxon tog'ining kun tug'ishina borib, tog'ning tubina

¹⁰ Mufassal qarang: Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. -Toshkent.: Fan, 1968. – B.32 va keyingilari.

¹¹ Bular: merkit, qo'ng'irot, qoranut, qurlos, elchigin, urmovut/uymovut, ko'nikmar, arlot, kelkit, boday/baday, qilik, uyshun, suldus/sulduz, eldurkin/ildurkin, kenkit, do'rban/do'rman, barin/bahrin, sukut, qurlovut, burqut, uklan/o'qlan, jurot, hojarot, boyvut, jaloyir.

¹² Abulg'oziy. Shajarayi turk. – B. 102.

¹³ Mufassal qarang: Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – B. 35.

tegib, qibla tarafindin o'g'rub kun botishiga borib, andin o'tub O'g'urcha (Amudaryoning qo'yi qismida, uning janubiy irmog'i Ajoyba suvining Kaspiy dengiziga quyiladigan yerda joylashgan manzil) borib Mozandaron (Kaspiy dengizining o'rta asrlardagi nomlaridan biri) tengizina quyur edi. Tag'i ulkim, Amudaryoning ikki tarafi to O'g'urcha borguncha, ekinlik va yuzum bog'i va daraxiston erdi. Baland yerlarg'a chig'ir qurallar erdi. Molli xalq ko'kovun va chibin vaqtinda bir-ikki manzil yiroqroq quduqlarga ko'tarlar erdi. Chibin yotqondin so'ng suvning yaqasiga kelurlar erdi. Obodonlik va ma'murlikning hech nihoyati yo'q erdi"¹⁴. Va yana: "Aning (Aminakxonning o'g'li Kolxonning) zamonida Urganch obodon va xalq tinch bo'ldi. Benihoyat arzonlik bo'ldi... Bir pulga bir non bo'ldi tedilar"¹⁵. Yana bir misol: "Kema o'sha vaqtda (Avaneshxon davrida) Urganch birlan Vazirning orasindin yurur erdi"¹⁶.

Yana shunisi e'tiborliki, o'sha zamonlarda Xorazmda, boshqa ekinlar bilan bir qatorda, bug'doy ham ko'p ekilar, shuning uchun ham non arzon edi. Bir misol keltirish mumkin: "Ul vaqtda (Arab Muhammadxon davrida) Mizdaxkandin to Boqirg'onning bori yuzi Quyg'un degan yergacha bug'doy ekilar erdi. Bizning xon Tuq qal'asining yuqorisidin bir ariq qazdurub tururlar. Faqir dunyoga kelmasdin bir yil burun (1602-yili) mezon bo'lg'anda saqasini ko'marlar edi. Bug'doyni o'rgan vaqtda ocharlar erdi. Bir necha yildin so'ng ariqning kengligi otgan o'q o'tmasday bo'ldi. Suvning oyoqi Quyg'un bordi. Andin Achi tengizina (Achchiq dengiz) bordi. Yolg'uz bug'doy ekilur erdi. Otli kishi o'n kunda bug'doyning toshindin aylanib kela bilmas erdi. Ul vaqtda pal-puchak yarim misqol kumush bir tanga yerina yurur erdi. Bir tangaga yarim teva (tuya) yuki bug'doy berurlar erdi. Bir misqol kumushga bir xarvor (bir eshak yuki) bug'doy berurlar erdi"¹⁷.

Yuqorida keltirilgan misoldan Amudaryo qadim-qadim zamonlardan Kaspiy dengiziga borib quyilishi ma'lum bo'ladi. Biroq keyinchalik daryo o'zanini o'zgartirib, Sariqamish pastligiga quyiladigan bo'ldi. Bu voqea sodir bo'lgan vaqt "Shajarayi turk"da aniq ko'rsatilgan. "Biz dunyoga kelmasdan o'ttiz yil ilgari (ya'ni 1573-yili – M.E.), – deb yozadi Abulg'ozixon, – Amu suvi Xos minorasining yuqorisi, uni Qora ayg'ir to'qayi derlar, ul yerdin yo'l yasab oqib, Tuq qal'asina borib, Sir tengizina quyg'on erkandur. Ul sababdin Urganch cho'l bo'lubti"¹⁸.

Asarda shu kabi yana ko'plab boshqa ham misollar keltirish mumkin. Ya'nikim, "Shajarayi turk" Xorazmning uzoq o'tmishdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid yana juda ko'p ma'lumot beruvchi noyob

¹⁴ Abulg'oziy. Shajarayi turk. – B. 119.

¹⁵ O'sha joyda. – B. 130.

¹⁶ O'sha joyda. – B. 127.

¹⁷ Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. – B. 155.

¹⁸ Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. – B. 160.

manbadir. Shu sababdan uni Xorazm tarixiga oid qimmatli yozma manbalar qatoriga qo‘shish kerak”¹⁹.



Xulosa sifatida yana shuni ta’kidlash lozimki, Xorazm vohasida “Shayboniynoma” janridagi asarlar XVI asrdan paydo bo‘lgan. Uning birinchi namunasi O‘tamish hojining “Chingiznoma” asari sanaladi. Bu sulola namoyondalari hokimiyatni qo‘lga olgach, uni qonuniylashtirish uchun legitimatsiyaning turli vositalaridan foydalana boshlashgan.

Dunyo ilm-u fani namoyondalari, ko‘plab sharqshunoslar e’tirof etganidek, Xorazm tarixnavisligi maktabining asoschisi tom ma’noda Abulg‘oziy Bahodirxon hisoblanadi. Uning asarlarida dasht og‘zaki istoriografiyasidan keng foydalanilgan. Shu bilan birga, Abulg‘oziy o‘z asarlarida

fors istoriografiyasi va musulmon tarixnavisligi an’analaridan foydalana olgan. U Xorazm vohasida turkiy (chig‘atoy) tilida islom istoriografiyasi doirasida turkiy xalqlarning paydo bo‘lishlari, ularning islomlashuvi jarayonlari va zamonasida dolzarblik ahamiyat kasb etgan ko‘p mavzu va muammolarga ahamiyat bergan. Ana shu boisdan ham turkiy xalqlar, jumladan, Xorazm tarixida bo‘lib o‘tgan jarayonlar, ularning mohiyatini anglab yetish uchun Abulg‘ozixonning asarlari muhim o‘rin tutadi.

¹⁹ Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – B. 223.

TARIX**BOBOOXUND SALIMOVNING XORAZMDAGI TARIXIY
JARAYONLARDA TUTGAN O‘RNI.**

**Matyusuf
SALIMOV**

**Yangibozor tumani
1-son kasb-hunar
maktabi o‘qituvchisi**

UO‘K 570.511

***Annotatsiya:** ushbu maqolada jadidchi, mudarris, diniy ulamo, tarjimon, shoir, davlat arbobi – Xorazm farzandi Bobooxund Salimov hayoti haqida so‘z yuritiladi.*

***Аннотация:** в статье рассказывается о жизни борца, мударриса, религиоведа, переводчика, поэта, государственного деятеля – сына хорезмийца Бобохунда Салимова.*

***Annotation:** this article talks about the life of fighter, mudarris, religious scholar, translator, poet, statesman – son of Khorezm Bobokhund Salimov.*

***Kalit so‘zlar:** qozi, qozikalon, bosh qozi, domla, eshon, oxund, xo‘ja, maxdum, madrasa, beklilik, mudarris, adliya noziri, qaroqum hazrati, xattot, bosmachilik.*

***Ключевые слова:** судья, казыкалон, главный судья, домла, эшан, ахунд, ходжа, махдум, медресе, беклик, мударрис, инспектор юстиции, хазрат Каракумов, каллиграф, печатник.*

***Key words:** judge, qazikalon, chief judge, domla, eshan, akhund, khoja, makhdum, madrasa, beklilik, mudarris, inspector of justice, hazrat of Karakum, calligrapher, printer.*

Bobooxund Salimovning asl ismi Muhammad Karim bo‘lib, Bobooxund kunyasi hisoblanadi. Bobooxundning amaki bobolaridan birining ismi Muhammad Karim bo‘lgan. Otasi qozikalon domla Muhammad Salim oxund tug‘ilib katta bo‘lgan Gurlan bekligida muqim yashamagan. Yigitlik davridan, ya‘ni 1840-1845-yillardan boshlab ilm olish maqsadida ko‘p yillar Xiva shahrida, Buxoro shahrida ilm olishni tugatguncha, ya‘ni, hijriy 1274-yildan 1286-yilgacha (milodiy 1857-yildan 1869-yilgacha) safarda bo‘lgan. Ilm olishni tugatib, uyiga kelganida ota-onasi bu olamdanda o‘tib ketishgan. Shu jumladan, amaki-bobolari ham olamdanda o‘tib ketishgan. Shu sababli katta o‘g‘lining ismini amaki-bobolarini eslash, yodgorlik sifatida, hurmat qilish hamda, ibrat olishni nazarda tutib, bobosining ismini qo‘yishgan. Yana shuni nazarda tutish kerakki, qozikalon domla Muhammad Salim oxund shajarasiga qarasa, bobolarining ismini farzandlariga, nabiralariga qo‘yganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ayrim tadqiqotchilarimiz Bobooxundning asl ismini Muhammad, Muhammad Amin tarzida keltirishadi. Shunga aniqlik kiritish maqsadida tarixiy hujjat, adliya nozirlik guvohnomasini ko‘rib chiqsak.

Xorazm Respublikasi tomonidan hijriy 1339-yilda (milodiy 1920-yil) Bobooxund Salimovga berilgan adliya nozirlik guvohnomasi ikkita varaq bo‘lib, rus tilida yozilgan. Chap tarafida o‘zining suratining past qismida shaxsiy imzo o‘rniga arab imlosida eski o‘zbek tilida quyidagicha yozilgan: “Muhammad Karim Bobooxund bin (qozi) Muhammad Salim marhumi al-Xorazmiy”.

Uning pastki satrinda nozirlar soveti raisi deb Polvonniyoz hoji Yusupov rus kirill alifbosida quyidagicha imzo chekkan: “X.P.Yusupov”.



O‘zining kundaligida: “Muhammad Karim Bobooxund al-tahallus ba’-Ojiz bin qozi ul quzot Muhammad Salim oxund al-marhumi al-Xorazmiy Al-Kurlaniy (Gurlaniy) al-Xivaqiy” – deb qayd qilingan.

Ismidagi “oxun” yoki “oxund” so‘zlariga kelsak, forsiy tilida “oxund” deb yozilgan, eski o‘zbek tilida (turkiy, chig‘atoy) “oxun” deb yozilgan, ya’ni bizga “oxun” bo‘lib kirib kelgan. Eski o‘zbek tiliga islom dini bilan birgalikda arab so‘zlari kirib kelgan bo‘lsa, forsiy so‘zlar ham turli sabablarga ko‘ra bizga kirib kelgan. Ma’nosi bir xil. Oldingi Xiva xonligida hujjatlarning ko‘p qismi forsiy tilda bitilgan bo‘lsa, qo‘ng‘irotlar sulolasi davriga kelib, xonlikda ish yuritish

hujjatilari, badiiy asarlar, mahalliy yozishmalar eski o‘zbek (turkiy) tilida yozila boshladi.

Ayrim tadqiqotchilarimiz tomonidan Boboovund Salimovning tavallud sanasi milodiy 1874-yil deb keltiriladi. Bunga aniqlik keltirish maqsadida otasi qozikalon domla Muhammad Salim oxundning kundaligiga qarasaq, hamma farzandlarining tug‘ilgan sanalari va boshqa oilasiga tegishli muhim ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. Shulardan quyidagilarni keltiramiz:

“Tarix hijriy ming va ikki yuz va to‘qson to‘rtida, muvofiq sig‘ir yili, hariyat dalil erdikim, valodat farzand arjumand Muhammad Karim voqea bo‘ldi, Jamadul soniyning yigirma olti, yo yigirma yettilanchisi, chorshanba kechasi, sahar hankomi erdi”, – deb keltirilgan. Yana: “Tarix hijrat ming ikki yuz to‘qson to‘rtida navro‘zi olam rabbi ul-avvalning to‘rtlanchisi yo beshlanchisi payshanba kuni voqea bo‘lg‘on ekan”, – deb keltirilgan. Boboovundning tug‘ilgan yili hijriyda 1294-yilning jamadul soniy oyining 26-kuni yoki 27-kunlari milodiy 1877-yilning 8-iyul, yoki 9-iyul kunlariga to‘g‘ri keladi. Navro‘z kuni hijriy 1294-yilning rabbiul avvalning 4-kuni yoki 5-kunlari, milodiy 1877-yilning 19-mart, yoki 20-mart kunlariga to‘g‘ri keladi. Bu sanalarning orasidagi kunlarni sanab, taqqoslab ko‘rsak, hijriyda navro‘zdan 110 kundan keyin tug‘ilgan, milodiyda 109 kundan keyin tug‘ilganligi kelib chiqadi. Shuni hisobga olib, Boboovundning tug‘ilgan sanasini 1877-yil 8-iyul, chorshanba kuni desak bo‘ladi.

Boboovund Salimov dunyoga kelgan vaqtda oilasi Xiva shahrida Nurulloh bek masjid qavmidan (Dishon qal‘a, yangi qal‘a) yer sotib olib imorat qurgan va shu qavmda istiqomat qilar edi. Otasi Muhammad Salim oxund u vaqtda madrasalarda mudarrislik bilan birga xattotlik ham qilar edi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra Xiva shahrining raisi ham bo‘lgan. Shu bilan birgalikda Gurlan bekligida o‘zining ota uyi, mol-mulki ham bor edi. Otasining Buxorodan ta’lim olib yurtiga kelgan (45 yoshlar atrofida bo‘lgan) yili milodiy 1869-yil va katta farzandi Boboovund tavallud yili 1877-yil ekanini hisobga olsak, 1869-1876-yillar oraligida oila qurgan bo‘ladi. Boboovund Salimovning muhtarama onalari Soliyajon (Solihajon), Muhammad Panoh so‘fining o‘g‘illari Jumaniyoz eshon qizlari bo‘lgan. Jumaniyoz eshon ham, Xivada madrasalarda ta’lim olib, tasavvuf yo‘liga kirgan, o‘z davrining Naqshbandiya ta’limotining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan va yuzlab shogirdlar yetishtirib chiqqan ulamo bo‘lgan. Boboovundning ona tomonidan bobolari Jumaniyoz eshon hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi Jumuriyovul mahallasida (oldingi Eshonqal‘a qishlog‘ida) istiqomat qilgan. Qabri va maqbarasi shu qishloqda Eshonyop (Eshon ariq) bo‘yida joylashgan.

Boboovund bolalik paytidan ta’lim olishni boshlagan, qozikalon farzandi bo‘lganligi sababli boshlang‘ich ta’limni otasidan olgan. O‘n bir yoshida madrasaning boshlang‘ich bosqichini, ya’ni “darsi avvali ilm” (madrasalarda o‘qish davrini uch bosqichda bo‘lgan deb hisoblanadi: 1. “Adno” – quyi bosqich. Avvali ilm. 2. “Avsat” – o‘rta bosqich. 3. “A‘lo” yoki “Oliy” – yuqori bosqich)

tugatgan. Shundan keyin o‘rta bosqichni va “A‘lo” bosqichini hijriy 1314-yildan 1323-yillarda (milodiy 1897-1905-yillar) Muhammad Yusuf yasovulboshi madrasasida o‘qib tugatgan. Shu bilan birgalikda madrasalarda ham mudarrislik qilib dars bergan. Bunga otasining xotira kundaligidan quyidagilarni keltiramiz:


“Hijriy 1307-yilda (milodiy 1890-yil) madrasa oliydan mudarris haqi uchun yigirma olti botmon bug‘doy olduq, yana o‘n botmon bug‘doy olduq, yana Bobo uchun o‘n botmon bug‘doy olduq va Jumaniyoz uchun o‘n botmon bug‘doy olduq, yana o‘zimiz qirq besh botmon bug‘doy olduq...”, – deb keltirilgan. Yana o‘zining xotira kundaligida: “Hijriy 1327-yil (milodiy 1909-yil) tarixida yasovulboshi aqoning madrasasidin mudarris haqi uchun o‘n olti yarim bug‘doy oldik”, – deb keltirilgan.

Tarix fanlari falsafa doktori Umid Bekmuhammadning “Xorazmlik jadidlar. Bobooxun Salimov” (Buxoro, 2022-yil) ilmiy-ommabop risolasida “Rossiyalik sharqshunos olim Samoylovich Xorazmga 1902-yil va 1908-yillar tashrifi chog‘ida Bobooxund Xivada talabalarga saboq berayotgan mudarris edi va bu paytda ular uchrashgani to‘g‘risida ma‘lumot saqlanib qolmagan”, – deb keltiriladi.

Bobooxund Salimov 10 yoshar vaqtida avvali ilmni tugatib, ta‘lim olishni davom qildirgan, shu bilan birgalikda, 13-14 yashar paytidan boshlab, madrasalarda dars bergan, mudarris bo‘lgan. Shuning uchun “oxund” – diniy-ilmiy, ta‘lim sahosisidagi faoliyati hamda madrasalardagi talabalarni nazorat qilganligi uchun ham (hurmat yuzasidan ham) olgan. Go‘daklik paytida “Bobo” (shevada “Buva”) ismini olgan bo‘lsa, yigitlik vaqtida “Oxund” unvoni qo‘shilib, “Bobooxund” ismini (kunyasini) olgan. Yana qozikalon farzandlari Xiva shahri madrasalarda ta‘limni tugatgandan keyin so‘nggi ta‘limni otasidan olgan. Bu ta‘lim 5-7 yilgacha davom qilgan. Bu oilaviy an‘ana hisoblangan. Shularni nazarda tutsak, Bobooxund 35-40 yoshlarigacha ta‘lim olgan. Shu bilan birgalikda otasi qozikalon hayotlik davrida otasiga kotiblik, noyiblik qilgan. Ayrim tarixchi tadqiqotchilar otasi vafotidan keyin shayxulislom va qozikalon bo‘lgan deb hisoblaydilar. Otasi qozikalon domla Muhammad Salim oxund milodiy 1916-yil 17-fevral kuni vafot etgan va uning o‘rniga domla Xudaybergan oxund Nizomiddin xatib o‘g‘li qozikalon qilib tayinlangan. Urganch innovatsion universitetining “Innovatsiya va taraqqiyot” jurnalining 2024-yilgi 4-sonida “Xorazm XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qozilik hujjatlari” maqolada milodiy 1858 – 1920-yillarda faoliyat olib borgan qozikalon va qozi askarlar ro‘yxati jadval ko‘rinishida keltirilgan, lekin Bobooxundning ismi ro‘yxatda keltirilmagan. Bundan Bobooxund qachon qozi bo‘lgan? – degan savolga javob topish uchun tarixiy hujjatlarga va adabiyotlarga yuzlanamiz. Ayrim tarixiy hujjatlarda Bobooxundning qozilik muhrida: “Qozi qozi ul-quzot Xivaq Muhammad Karim oxund ibn qozi Muhammad Salim marhumi”, – deb yozilgan. Yana A.Urinbayev, T.Xorikova, T. Fayziyev, G.Djurayeva, K.Isogay “Каталог

Хивинских казийских документов XIX начала XX вв” Тошкент – Киото 2001-yil chop qilingan katalogida 1003, 1457-tarixiy hujjatlar hijriy 1342-yilda (milodiy 1924-yil) bitilgan bo‘lib, Bobooxundning qozilik muhri bilan tasdiqlangan va muhrda: “qozi aqza al-quzot Xivaq Muhammad Karim oxund ibn qozi Muhammad Salim marhumi”, – deb keltirilgan. Lekin muhrda yil qayd qilinmagan. Yuqoridagi “Qozi ul-quzot” – qozilarning qozisi va “Aqza al-quzot” – bosh qozi degan ma’nomlarni beradi. Ikkalasi deyarli bir xil ma’noni beradi. “Xivaq” – so‘zidan Xiva shahridagi, ya’ni Xiva shahri bosh qozisi ma’nosi kelib chiqadi. 1920-yil xonlik tugatilib, Xorazm Respublikasi tuzilgandan keyin Xiva shahrida Xorazm Respublikasining Xiva qoziligi va bekliklarda “beklik qoziligi” tuzilgan, ya’ni yakka qozilik. Bu qozilik faoliyati 1928-yilgacha davom qilgan, shuni nazarda tutsak va Bobooxund Salimov Xorazm Respublikasi Adliya noziri bo‘lganligini e’tiborga olsak, bu muhr Adliya nozirlik shaxsiy muhri deb qarash ham bo‘ladi. Yana bir jihati borki, qozi “qozi ul quzot” bilan qozi “aqza al-quzot” bir vaqtda ish olib borgan bo‘lishi ham mumkin. U holda xonlikning qozikaloni va Xiva shahrining bosh qozisi ikkita mansab deyishimiz mumkin va Xiva xonligi davrida Xiva shahrining bosh qoziligiga tayinlangan deyishimiz mumkin. Xorazm Respublikasi vaqtida ham qozichilik ishlari davom qilgan, chunki fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy haq-huquqlari bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish islom dini sha’riyat qoidalari bo‘yicha hal qilingan.

Bobooxund Salimovni “shayx ul-islom bo‘lgan”, – degan qarashlar ham bor. Shunga oydinlik kiritsak. Abdulloh Boltayevning esdalik daftarlarida Xiva xoni Asfandiyorxon vaqtida Xiva xonlikdagi bir qator lavozimlar ro‘yxati keltirilgan. Shu jumladan, shayx ul-islom 7-o‘rinda keltirilgan bo‘lib, shaxsning ismi ko‘rsatilmagan. Yana bir ro‘yxatda xonlikdagi beklik va qal’alarga tayinlangan hokim va noiblar ismi bilan keltirilgan. Ro‘yxatda 5-o‘rinda Ostanaga shayx ul-islom deb qayd qilingan, lekin ismi keltirilmagan. Yana esdalik daftarida: “Asfandiyorxon davrida ulamolarning xonga bog‘lanishi”, – deb sxema ko‘rinishida tubandagicha keltirilgan.



XX asr boshlarida qo‘ng‘irotlilar sulolasining oxirgi xonlari davrida xonlikda shayx ul-islom lavozimi joriy qilinmaganligi ko‘rinadi. Yana Muhammad Salim oxund 1900-yil qozikalonlikka tayinlanganda qozikalonlik lavozimiga shayx ul-islomlik vazifasini qo‘shib olib borgan degan ma‘lumotlar ham bor. Demak, keyingi davrda xonlikda shayx ul-islomlar qozikalonlar bo‘lgan.



Boboosund Salimov – jadidlik g‘oyalar asosida jamiyatdagi barcha sohalar va davlat boshqaruvini isloh qilish, bir so‘z bilan aytganda, “milliy uyg‘onish davri”ni yuzaga keltirish uchun kurash olib borgan “Yosh xivaliklar” harakatining eng faollaridan biri hisoblanadi. Bu jadidchilik faoliyatlarini va “Yosh xivaliklar”ning tarixini, tarixchilarimizdan Umid Bekmuhammad, Bahrom Irzayev, Jumaboy Rahimovlar o‘zlarining maqolalarida va P.H.Yusupovning “Yosh xivaliklar tarixi” nomli Urganch shahrida 2000-yil chop qilingan xotira kitobida, Abdulloh Boltayevning “Estalik daftarlari”da juda yaxshi

yoritib berilgan. P.H.Yusupovning “Yosh xivaliklar tarixi” kitobda Boboosundning 1920-yil Xorazm respublikasi tomonidan Rossiya davlatiga delegatsiya rahbari bo‘lib yuborilganda o‘zining safarda boshidan kechirganliklarini yozib borgan va uni “sayohatnoma” deb atagan. Ushbu “sayohatnoma” ham to‘liq keltirilgan hamda asl nusxasining bir qismi nabirasining shaxsiy arxivida saqlanmoqda. Boboosundning nabirasi Komil ota Bobojanovning aytishicha: “Boboosund bobomlar Xorazmda darslik kitoblar yozgan. Shulardan “Alifbe”, “O‘qish” (qiroati turkiy) kitobini, oldin “Alif bob” deb nom qo‘yganini, keyinchalik uni “Alifbe” deb atay boshlaganini ta’kidlaydi”. “Alifbe” – arab harflarining nomlari yig‘indisi. “A” – alif , “B” – be. “Alif bob” , “A” – alif va bob, ya’ni alifinchi bob.

Yana boshqa ma‘lumotlarga qaraganda 1920-yil Xorazm Respublikasi tuzilgach, adliya noziri sifatida, hamkasblari bilan birgalikda Xorazm Respublikasining Milliy Konstitutsiyasini tuzib chiqqanligi, hozirda bu hujjat Moskva arxiv fondida saqlanishi keltiriladi.

Boboosund Salimov 1925-yillar siyosiy faoliyatini tugatishga majbur bo‘ladi, chunki mustamlakachilarning “xalq dushmani” siyosati boshlangan edi. Afsuski, “xalq dushmani”ga chiqarish faqat ziyoli, o‘qimishli, ulamolarni emas, balki oddiy xalqni ham chiqarish oson bo‘lgan davr edi. Shuning uchun

Boboosund tog‘alari yurtiga Eshon qal‘a (Eshonyop bo‘yiga, hozirgi Amudaryo tumani Jumriovul qishlog‘i)ga ko‘chib ketadi. U yerda ham tinch hayot kechira olmaydi. 1926-yillar Taxtako‘pir tumaniga borib u yerda ham yashirin hayot kechiradi. U yerda ham bino qurib, bir maktab ochib, qishloq bolalariga ta‘lim berishni yo‘lga qo‘yib keladi.

Bu qochib yurishlar, berkinishlar uzoqqa bormadi. Boboosundning shahid kunini yoshi kattalar quyidagicha xotirlaydi: “Shu kuni quyosh botishga yaqin



“Eshon qal‘a” qishlog‘i chetida 5-6 nafar otliqlar kelib, otlarini beda dalaga yuborib o‘tlatib, o‘zlari dala chetida dam olishar edi. Ular orasida 2 nafari komissarlar kiyimida edi, 3 nafari turkmanlar kiyimida edi.

Ertalab Boboosund eshonning otib ketilganligini eshitdik va kechagi otliqlarni taxmin qildik”. Go‘yoki Turkmanlar otib ketgan deb xalqqa ko‘rsatmoqchi bo‘lganlar. Chunki o‘sha paytlarda “qizillar” turkman

xalqini o‘zbek xalqiga bismachi sifatida ko‘rsatish maqsadi bo‘lgan, Boboosundni turkmanlarning bosqinchilik (bismachilik) harakati qurboni sifatida niqoblash ko‘rsatish bo‘lgan. “Bo‘lib tashla, hukmronlik qil” qabilida ish ko‘rishgan. Ha, 1929-yil 10-may kuni Boboosundning shahid bo‘lgan kuni. Buni Boboosundning ukasi Nizomiddin oxund xotiralarida quyidagicha qayd qilgan: “Tarix hijriy 1347-yil, mohi zulhijjaning 4-kuni, burj surning 26-kuni, yakshanba kuni, subhi sodiq vaqti, ilmi ulamo Muhammad Karim maxsum Boboosund eshon ismi bilan mashhur, shahid bo‘ldi, Iso tarixi 1929-yilning 10-may kunida”.

Xorazmning so‘ngi qozikaloni, diniy ulamo, oxund eshon, mudarris, tarjimon, xattot, davlat arbobi, diplomat, huquqshunos, “Yosh xivaliklar” harakati faol a‘zosi, jadidchi Xorazm farzandi – Boboosund (Muhammad Karim) Salimov

qozikalon domla Muhammad Salim oxund o‘g‘li 52 yoshida (1877-1929-yillar) shahid bo‘ldi. Jumaboy Rahimov yozganidek “Chaqmoq kabi chaqnab o‘tdi . U g‘oyat mushkul bir paytda haq va haqiqat uchun kurash yo‘lida yashab o‘tdi”. Qabri hozirgi Amudaryo tumanidagi “Salomat bobo” qabristonida avlodlari maqbarasi ichida joylashgan.

Men ham qozikalon domla Muhammad Salim oxund, Bobo oxund avlodi ekanligimdan faxrlanaman. Kelgusida tadqiqotchilar bobolarim hayoti va faoliyati haqida ko‘plab ma’lumotlarni ro‘yobga chiqaradi degan umiddaman.

Bobo oxund va Shukurjon ayadan Isomiddin, Sadaddin, Abdulloh, Xomud, Shukurulloh, Hadiya va Yaqutjon ismli farzandlar qoldi. Hozirda nabiralari, evaralari va chevaralari Respublikamizning turli joylarida yashab kelmoqdalar.

Bobo oxund Salimov Munis va Ogahiyning tarjimonlik maktabining davomchisi sifatida xatotlik va tarjimonlik faoliyati bilan ham shug‘ullangan. O‘zining esdaliklarida Abdurahmon Jomiyning, Ibn Xoldunning, Abduqodir Bedil va boshqa tarixiy ulamolarning asarlaridan tarjima namunalari yozib qoldirgan. O‘zbek, fors va arab tillarida “Ojiz” va “Bobo” taxallusi bilan she‘rlar bitgan. Bobo oxundning “Maktab” she‘ri (to‘liq varianti):

Xushdur ne balo havoyi maktab
Jon ulsa ravo fidoyi maktab.
Maktab demakim, madori dindur
To ilm ayladur baqoyi maktab.
Rashq o‘tiga o‘rtamish eramni
Gulzori faroh fazoyi maktab
Anvon ilm ma‘danidur,
Har go‘sha pir sapoyi maktab.
Ton urg‘usi bulbul bahora
Tifloni g‘azal saroyi maktab.
Har kimda bor ersa jahil dardi,
Daf aylagusi davoyi maktab.
Go‘daklar uyubu olim ulmas
To chekmaguncha jafoyi maktab.
Matlub esa masnod saodat
O‘pgil shab ro‘zpoy maktab.
Topmoq tilasang ikki jahonni,
Zinhor bo‘li ashnoyi maktab.
Jannat uyin etgusidur obod,
Harkimga qulur binoyi maktab.
Maktab o‘qiyg‘o bo‘lur nishona,
Har qum esa judoyi maktab.
Xorazm elin aylagay munavvar,

Nur qum samoyi maktab.
Mingdin birini tugatmas Ojiz,
Yuz yil desa ham sanoyi maktab.

Yana abjad usulida yozgan “Tarix” she’ri:

Tarix Hakim ota muqatda’ ma’ob,
Tarix Sha’abbos sohibi zamon,
Tarix shayx Muxtor oftob olam tob,
Tarix Said ota behishti.
Tarix mir Alisher jannat,
Tarix xo’ja Hofiz qurb toat,
Tarix Naqshbandiy qasr a’rfon,
Tarix Amir Temurxon barfo birdan
Tarix Nodirshoh shoh unoq
Tarix oxund Bobo xurshid jahon obod.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z. Husniddinov tahriri ostida. Islom ensiklopediya. A.-H. “O‘zbekiston milliy ensiklopediya” davlat milliy nashriyoti – 2004.
2. A.Уринбаев, Т.Хорикова, Т.Файзиев, Г.Джураева, К.Исогай “Каталог Хивинских казийских документов XIX начала XX вв” Тошкент – Киото – 2001.
3. Davlatyor Rahim. Shixnazar Matrasul. Shoh va shoir qismati. Toshkent 1991-yil.
4. Qozikalon domla Muhammad Salim oxund kundaligi. Shaxsiy arxiv.
5. Nizomiddin oxund Muhammad Salim oxund o’g’li kundaligi. Shaxsiy arxiv.
6. Abdullo Boltayev. Ko’k hoshiyali daftar. Avlodlari shaxsiy arxiv.
7. P.H.Yusupov. “Yosh xivaliklar tarixi”. Urganch – 2000-yil.
8. Umid Bekmuhammad .“Xorazmlik jadidlar. Bobo oxund Salimov”. Ilmiy-ommabop risola. “Durdona nashriyoti”. Buxoro 2022-yil.

TARIX

ILK ASHTARXONIYLAR DAVRIDA FARG‘ONA VODIYSI

UO‘K 540.10



**Azizbek
MUSAYEV**
Farg‘ona davlat
universiteti tayanch
doktoranti

***Annotatsiya:** ushbu maqolada XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida Buxoro xonligidagi siyosiy jarayonlar, hokimiyat shayboniylardan ashtarxoniylar sulolasiga o‘tishining Farg‘ona vodiysiga ta’siri haqida so‘z yuritilgan. Mazkur davrda Buxoro xonligi shimoli-sharq tomondan ko‘chmanchi qozoq-qirg‘iz qabilalari tomonidan bir necha hujumlari natijasida Abdullaxon II davrida qo‘lgan kiritilgan ba’zi hududlar boy berildi. Keskin siyosiy kurash bu vaqtda Farg‘ona vodiysini ham chetlab o‘tmagan. Toshkent, Sirdaryo bo‘ylari uchun kurashda ashtarxoniylar qozoq xonlari bilan kurash olib borgan bo‘lsa, Farg‘ona vodiysi uchun Keldi Muhammadxon bilan siyosiy manfaatlar to‘qnash kelgan. Aynan mana shu Keldi Muhammadxon shaxsiyati hamda faoliyatiga bog‘liq ba’zi jihatlari tadqiq etildi.*

***Аннотация:** в статье рассуждается о политических процессах в Бухарском ханстве в конце XVI начале XVII века, влиянии перехода власти от шейбанидов к аштарханидам на Ферганскую долину. В результате ряда набегов кочевых казахско-киргизских племен с северо-востока в этот период Бухарское ханство потеряло часть своих территорий, приобретенных при Абдулла-хане II. Ожесточенная политическая борьба того времени не обошла стороной и Ферганскую долину. В борьбе за Ташкент и присырдарьинские территории аштарханиды вели борьбу против казахски ханов, а за Ферганскую долину политические интересы столкнулись с Кельдимухаммадханом.*

***Annotation:** the article discusses the political processes in the Bukhara Khanate at the end of the XVIth and beginning of the XVIIth centuries, the impact of the transfer of power from the Sheibanids to the Ashtarkhanids on the Fergana Valley. As a result of a series of raids by nomadic Kazakh-Kyrgyz tribes from the northeast during this period, the Khanate of Bukhara lost part of its territories acquired under Abdullah Khan II. The fierce political struggle of that time did not spare the Fergana Valley. In the struggle for Tashkent and the Syr*

Darya territories, the Ashtarkhanids fought against the Kazakh khans, and for the Fergana Valley, political interests collided with Keldimhammadkhan. Some aspects related to the personality and activities of Keldimhammadkhan have been studied.

Kalit so‘zlar: *Buxoro xonligi, shayboniylar sulolasi, ashtarxoniylar sulolasi, Abdullaxon II, Tavakkalxon, Boqi Muhammadxon, Keldi Muhammadxon, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona vodiysi, Sirdaryo, Andijon, Xo‘jand, qozoqlar, soxta shayboniylar, Suyunchxojaxon.*

Ключевые слова: *Бухарское ханство, династия Шибанидов, династия Аштарханидов, Абдулла-хан II, Таваккал-хан, Баки Мухаммад-хан, Келди Мухаммад-хан, Самарканд, Ташкент, Ферганская долина, Сырдарья Андижан, Ходженг, казахи, лже-Шайбанидов, Суюнчходжа-хан.*

The keywords: *Bukhara Khanate, Shaibani dynasty, Ashtarkhanid dynasty, Abdullah Khan II, Tavakkal Khan, Baqi Muhammad Khan, Keldi Muhammad Khan, Samarkand, Tashkent, Fergana Valley, Syrdarya, Andijan, Khojand, Kazakhs, , fake Shaibani, Suyunchhoja Khan.*

Buxoro xonligi Abdullaxon II davrida barcha jabhalarda yuksak taraqqiyotga erishib, Osiyoning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi. Uning qattiqqo‘llik bilan olib borgan markazlashtirish siyosati natijasida Movarounnahr, Xurosonning katta qismi, Xorazm hududlari so‘nggi bor yagona davlatga birlashdi. Biroq XVI asrning 80-yillariga kelib, xonlikning keyinchalik tanazzuliga sababchi bo‘lgan omillarning ayrimlari ko‘zga tashlana boshlandi. Suyunchxojaxon (Sevinchxoja)xon avlodlariga qarshi Toshkent, Sirdaryo bo‘ylari va Farg‘ona vodiysida olib borilgan keskin kurash va ushbu hududlarning markaziy hokimiyat tarkibiga kiritilishi oqibatida qozoq xoni Tavakkalxon* bilan ittifoqchilik aloqalari buzildi. Shuningdek, egallab olingan Xurosonning katta qismi Abdullaxon II ning eng yaqin amaldori Qulbobo Ko‘kaldosh va ashtarxoniylarga berilishi hukmdorning o‘z farzandi Abdulmo‘minxon* bilan munosabatlariga sovuqchilik tushirdi. Ayniqsa, 1598-yil shayboniylar uchun nihoyatda og‘ir yil bo‘ldi. Chunonchi, Abdullaxon II qozoq xoni Tavakkalxonga qarshi yurish vaqtida Samarqandda vafot etishi voqealar rivojini keskinlashtirib yubordi. XVI asrning oxirgi yillaridagi shayboniylar sulolasidagi murakkab vaziyat xonlikning sharqiy chegarasi hisoblangan Farg‘ona vodiysiga ham o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatdi.

* Tavakkalxon – taxminan, 1582 – 1598-yillarda hukmronlik qilgan qozoq xoni.

* Abdulmo‘minxon – Abdullaxon II ning o‘g‘li. 1582-1598-yil Balx hokimi, 1598-yil Buxoro xoni bo‘lgan.

O‘rganilayotgan davr haqida ma’lumot beruvchi “Musaxxir al-bilod”, “Bahr ul-asror fi manoqibi al-ahyor”, “Tarixi miftah al-qulub”, “Imomqulixonoma”, “Silsilat us-salotin” kabi bir necha birlamchi manbalar, hujjatlardagi mavjud ma’lumotlar qiyosiy hamda tanqidiy tahlil etilib, ilmiy xulosalar asoslantirildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ilmiy qarashlarni tadqiq etishda ilmiylik, xolislik, tarixiylik tamoyillaridan kelib chiqib, qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi.

1598-yil Abdullaxon va Abdulmo‘minxonning vafot etishi natijasida shayboniylar hokimiyati zaiflashib qoldi. Buxoro xonligining shimolida turgan qozoq xoni Tavakkalxon bunday qulay vaziyatdan foydalanib, Movarounnahrqa bostirib kirdi. Uning Buxoro xonligiga hujumi muvaffaqiyatsizlik bilan yakun topgan bo‘lsa-da, keyinchalik ham ikki xonlik o‘rtasidagi qarama-qarshilik uzoq davom etgan.

Abdulmo‘minxon vafoti arafasida Andijonni ota tomondan Jonibek sulton, ona tomondan esa Ahmad Tanbal avlodiga bog‘lanuvchi Muhammadquli sulton boshqargan [17, 201]. 1598-yilda Tavakkalxonning Movarounnahrqa hujumi vaqtida Muhammadquli sulton asir olinib, qozoq xoni tomonidan qatl etilgan. Qozoqlarning Buxoro va Samarqand tomon yurishi yuqorida aytilganidek, omadsizlikka uchradi hamda Tavakkalxon janglarda olgan jarohati tufayli Toshkentda vafot etdi. Natijada ularning mavqeyi Toshkent, Sirdaro bo‘ylari va Farg‘ona vodiysi hududlarida zaiflashdi. Toshkent shu vaqtda shayboniy Jahongir sulton va uning otalig‘i Muhammad Sa‘id jaloyir tomonidan bir yil boshqarilgan [17, 186]. Ammo manbalarda vodiya kim egalik qilgani masalasi ochiq qoldirilgan. Faqatgina Boqi Muhammadxon hukmronligining boshida Andijondagi ayrim mahalliy o‘zbeklar vafot etgan shayboniy Abdusattor sulton avlodlaridan bir qanchasini topib, vodiya hokimligiga qo‘yishganligi ta’kidlanadi. Keyinchalik esa ular Vali Muhammadxon otalig‘i Sarxunbiy jaloyirga zarba berishib, Toshkentga ham hujum qilishgan hamda Tanim sultondan hokimiyatni tortib olishganligi, ularning ichida Keldi Muhammadxon sheriklarini o‘ldirib, 1602-yil hokimiyatni egallanganligi qayd etilgan [17, 173]. Vodiya Tavakkalxon vafotidan toki 1602-yilga qadar qanday voqealar yuz berganligi haqida ma’lumotlar mavjud emas. Shu davrning muhim manbasi “Bahr ul-asror”da ham ayrim mulohazalarni bildirishga asos bo‘luvchi tafsilotlar berilgan. Unga ko‘ra, Buxoro taxtini egallagan Boqi Muhammadxon ma’muriy o‘zgarishlarga qo‘l uradi. Jumladan, O‘ratepani jiyani Pirmuhammad sulton ibn Malik sultonga, Shahrizabz va G‘uzorni amakilari Abbas sulton hamda Rahmonquli sultonga, Sog‘archni esa Vali Muhammadxonga, Samarqandni otasi Joni Muhammadxonga beradi. Poytaxt Buxoroni esa o‘zi boshqargan [5, 62^a]. Bu yerda vodiya haqida so‘z

yuritilmaganligiga qaramay, shu zikr matnida O‘ratepaga Andijon hokimi Keldi Muhammadxon hujum qilganligi yozilgan. Manbada bu voqea qachon bo‘lganligi haqida ma’lumot berilmagan. Shu davrga oid hujjatlarga nazar tashlasak, bu masala o‘z yechimini topadi. Koroskonlik sayyid Zohidxo‘jaga hijriy 1008/1599-1600 va 1009/1600-1601 yillarda berilgan ikki hujjatda sulton mirzo Muhammad bahodir ismi tilga olingan [13, 106-107]. Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye” asarida Suyunchxojaxonning to‘ng‘ich farzandi sulton Keldi Muhammadxon deyarli barcha o‘rinlarda sulton Muhammad tarzida ifoda etilgan [14, 7, 9, 200]. Safaviylar davri muarrix Ahmad ibn Shamsiddinning “Tarixi miftah al-qulub” asarida Andijon hokimini mirzo Keldi Muhammadxon tarzida ifoda etgan [1, 558^a]. E’tiborli tomoni shundaki, Keldi Muhammadxon o‘zini shayboniy sultonlardan hisoblab, bevosita Buxoro taxtiga da’vogarlik qilgan. Natijada bu da’voning legitimligini ta’minlash uchun o‘zini Suyunchxojaxon avlodlaridan biri sifatida e’lon qilgan. Uning ismi manba va hujjatlarda Muhammad sulton yoki Keldi Muhammadxon tarzida ifodalanishi Zayniddin Vosifiyda uchratish mumkin. Yuqoridagi ma’lumotlarni tahlil qilib, mantiqan xulosa qilsak, hujjatlarda keltirilgan mirzo Muhammad sulton bu Keldi Muhammadxon bo‘lib, u hijriy 1008/1599-1600 yilda Andijonda o‘z hukmronligini o‘rnatganligi kelib chiqadi. Chunki shu yillarda Buxoro xonligidagi markaziy hokimiyat o‘zaro kurashlar natijasida avvalgidek kuchli emas edi. Xuddi shu vaqtda esa qozoq xoni Tavakkalxonning vafoti natijasida ko‘chmanchilarda ham ichki kurashlar avj olgandi. Mazkur omillar vodiya mahalliy amirlarni to‘la mustaqil bo‘lishi uchun qulay sharoitni vujudga keltirgan. Keldi Muhammadxon mana shu vaziyatdan unumli foydalanib, 1599-1600-yillarda Andijon hokimiga aylangan.

Umuman, XVII asr boshlarida Buxoroning shimoli-sharqiy hududlaridagi voqealar bo‘yicha aniqlashtirish muhim bo‘lgan jihatlar talaygina. Bular: Keldi Muhammadxon shaxsi, uning faoliyati, voqealarning sodir bo‘lgan vaqti va joylari kabi masalalardir.

Andijon hokimi Keldi Muhammadxon shaxsi haqida ham manbalardagi ma’lumotlarda bir-birini inkor etuvchi qarashlar mavjud. “Musaxxir al-bilod” asarida u Abdusattor sultonning avlodi ekanligi ta’kidlangan [17, 173]. “Bahr ul-asror”da ham deyarli shunga yaqin ma’lumot berilgan bo‘lib, unda Keldi Muhammadxon Abdusattor sultonning otasi Bobo sultonning avlodi ekanligi yozilgan [5, 62^a].

Aslida, Keldi Muhammadxon shayboniylar sulolasining vakilimi degan savol tug‘iladi. Abdullaxon II 1582-yilda Bobo sultonga qarshi yurishda Suyunchxojaxon avlodlarining aksarini qirib tashlagan. Ushbu qirg‘indan omon qolgan Farg‘ona hokimi Amin sultonning o‘g‘illari Odil sulton va Hodi sultonlar

o‘sha vaqtda Oloy qirg‘izlari huzuriga qochib borib jon saqlashgan. Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida 1587 yil Toshkent atroflarida qo‘zg‘olonlar haqida so‘z yuritilgan. Mana shu qo‘zg‘olonlarda qirg‘izlar huzuridan qozoq dashtlariga qaytib kelgan aka-uka sultonlar ham ishtirok etishgan. Tabiiyki, ular Suyunchxojaxon avlodlari sifatida o‘z mulklarini qaytarib olish uchun kurashishgan. Yuqoridagi qo‘zg‘olonchilar Toshkent hokimi O‘zbekxon bilan jang qilishga jur‘atlari yetmay ortga chekinishadi. Bu vaqtda Hodi sulton yana qirg‘izlar tomon ketgan bo‘lsa, Odil sulton Dashtga chekinib, keyinchalik u yerda qatl etilgan [22, 244-245]. Demak, “Abdullanoma”ga ko‘ra Suyunchxojaxon avlodidan Hodi sulton tirik qolgan. “Musaxxir al-bilod” muallifi ham bu akakalar to‘g‘risida to‘xtalib, keyingi voqealar jarayonida Odil sultonni qatl etilganligini qayd etgan [17, 176, 179]. Hodi sulton haqida esa umuman ma‘lumot bermaydi. Holbuki, “Musaxxir al-bilod” asari shayboniylar sulolasining deyarli barcha vakillari haqida batafsil ma‘lumot beruvchi muhim manba hisoblanadi. Unda Hodi sulton haqida ma‘lumotning uchramasligiga muarrix u haqida bilmasligimi yoki uni qayd etish yodidan ko‘tarilganligimi kabi sabablar noma‘lum.

Afsuski, mavjud boshqa manbalarda Hodi sulton haqidagi deyarli ma‘lumot yo‘q. Agar Keldi Muhammadxonni Suyunchxojaxon avlodi deb qaralsa, demak, u Hodi sultonning farzandi bo‘lishi mumkinligi haqida ilmiy faraz paydo bo‘ladi. Lekin, Keldi Muhammadxonning kelib chiqishi to‘g‘risida yanada aniqroq ma‘lumotlar mavjud.

Jumladan, “Musaxxir al-bilod” asarida Keldi Muhammadxon Abdusattor sultonning o‘g‘li ekanligi haqidagi ma‘lumot asosli bo‘lishi ham mumkin. Chunki qabrtosh bitiklari shundan dalolat beradi. Samarqand yaqinidagi Xoja Kafshir qishlog‘ining Xoja Axror majmuasida 1671-1672-yillarda vafot etgan Sohibjamolxonimning qabri bo‘lib, qabrtoshga Kalidbiy Muhammadxon ibn Abdusattor sulton ibn Bobo sulton ibn Baroqxon qizi ekanligi yozilgan [23, 48]. Uning otasi Kalidbiy Muhammadxon aynan biz tilga olgan Keldi Muhammadxon bo‘lishi mumkin. Chunki qabrtoshdagi yozuvni, bizningcha, Kalidbiy Muhammadxon deb emas, balki Keldi Muhammadxon deb o‘qish to‘g‘ri bo‘ladi. 1613-yili ashtarxoniylarning vodiya qilgan harbiy yurishi natijasida Andijon hokimi Keldi Muhammadxonning o‘g‘li Abul Muhammad sulton sulh tuzishga majbur bo‘lgan va singlisi Sohibjamolxonimni Imomqulixonga turmushga bergan. Ushbu nikoh ham Keldi Muhammadxonning shayboniyzoda sifatida e‘tirof etilganligini ko‘rsatadi. Chunki, Imomqulixon soxta xonlar bilan oilaviy rishtalarni bog‘lashi mantiqan mumkin emas.

Qolaversa, 1657-yilga oid bir vasiqada Keldi Muhammadxonning yana bir qizi Andijonxonim nomi ham tilga olingan [12, 51]. Qabrtoshning Samarqandda ekanligi, vasiqa esa Buxoro bilan bogʻliq ekanligi Keldi Muhammadxonning qizlari ham yuqori qatlam orasida oʻziga yarasha hurmatga ega ekanligidan dalolat beradi. Qabrtosh va “Musaxxir al-bilod” asarida Keldi Muhammadxonning otasi sifatida keltirilgan Abdusattor sulton 1582-yil Sabron qalʼasining qamali vaqtida Abdullaxon II tomonidan oʻldirilgan. Uning farzandlari haqida mavjud manbalarda maʼlumot uchratmadik. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qiladigan boʻlsak, Keldi Muhammadxon shayboniylar sulolasiga mansub shahzoda ekanligi oydinlashadi.

Shu oʻrinda Mahmud ibn Vali asarida Keldi Muhammadxonning soxta shayboniyzoda sifatida qayd etilishining sabablariga toʻxtalib oʻtish zarur. Buxoro xonligi markazidagi yuqori tabaqa vakillari orasida mamlakatning shimoli-sharqiy hududlarida faoliyat olib borgan shayboniyzodalar yetarli mavqega ega boʻlmagan. Buni ikki holat bilan izohlash mumkin. Birinchisi, ular hokimiyat uchun kurashda qozoq va qirgʻizlarga tayanganligi uchun ham xonlik markaziga begonlashib ketgan. Ikkinchidan, Suyunchxojaxon avlodlari orasida Navruz Ahmadxondan boshqa markaziy hokimiyatni qoʻlga kiritgan hukmdor chiqmagan. Shuning uchun ham xonlik saroyi va amaldorlarning yuqori tabaqasida mazkur sultonlar haqida yetarli, ishonarli maʼlumotlar boʻlmagan boʻlishi mumkin. Qolaversa, ashtarxoniylarning manfaatlaridan kelib chiqib, oʻz asarlarini yozgan muarrix Keldi Muhammadxonni soxta shayboniyzoda sifatida koʻrsatishni lozim topgan deb oʻylash mumkin.

Keldi Muhammadxon nomi tilga olingan boshqa manbalarda qarama-qarshi mulohazalar uygʻotadigan fikrlar ham mavjud. Jumladan, “Tarixi olamaroyi Abbosiy” asarida u qozoq xoni sifatida eʼtirof etiladi. Bunga quyidagi omillar taʼsir etgan. Iskandar munshiy Keldi Muhammadxon haqida soʻz yuritarkan, uni Toshkentda ozodlik bayrogʻini koʻtargan xon ekanligini taʼkidlagan [3, 824; 4, 1151-1152]. Albatta, Toshkent uzoq vaqt qozoqlar tasarrufida boʻlganligi uchun muarrix uni qozoq xoni sifatida qayd etgan. Muarrix unga Andijon hokimi deb emas, balki Toshkent xoni deb qaragan. Shuningdek, uning qoʻshinida koʻp sonli qozoq va qirgʻizlarning boʻlishi ham muarrixni chalgʻitgan boʻlishi mumkin.

Bu jihatni Iskandar munshiyning asaridan keng foydalangan Hoji Mir Muhammad Salimning “Silsilat us-salotin”ida ham uchratish mumkin [25, 168^a-169^b].

Umuman olganda, manbalarda XVI asr oxiri XVII asrda hukmronlik qilgan deyarli barcha qozoq xonlari ismlaridan keyin, albatta, qozoq soʻzi ishlatilgan. Yuqoridagi taʼkidlaganimizdek, faqat ikki manba, yaʼni, “Tarixi olamaroyi Abbosiy” va “Silsilat us-salotin”dagina Keldi Muhammadxonni qozoq xoni

ekanligi yozilgan. Bu ikki manbaning dastlabkisi Eronda, keyingisi esa Hindistonda turib yozilganligi, ularning Keldi Muhammadxon haqidagi fikrlarini mahalliy manbalarga qiyoslash, tanqidiy va tahliliy yondashish orqali o'rganishni talab etadi.

“Musaxxir al-bilod”, “Bahr ul-asror”, “Tarixi miftah ul-qulub” asarlarida esa uni Andijonning mahalliy hokimi ekanligi haqida qaydlar uchraydi. Shuningdek, Keldi Muhammadxon nomi qayd etilgan yorliqlar ham mavjud [18, 28-29]. XVII asr boshida qozoq sultonlari nomi bilan berilgan yorliqlar deyarli uchramaydi. Umuman olganda, huquqiy hujjatlarni berish odati ko'proq o'troq hududning hukmdorlariga xos bo'lib, ko'chmanchi xalqlarning hukmdorlarida bunday hujjatga ehtiyoj deyarli sezilmaydi. Bu jihat ham Keldi Muhammadxonning mahalliy hukmdorlardan bo'lganligini isbotlaydi. Sababi, Imomqulixon davrida vodiyni nisbatan uzoq vaqt boshqargan Abulay sulton nomi bilan bironta yorliq hozirgacha mavjud emas. Abulay sulton qozoq xonlaridan biri ekanligini inobatga olsak, yuqorida bildirilgan fikr o'z tasdig'ini topadi.

“Imomqulixonoma” asarida esa uni qatag'on urug'idan ekanligiga urg'u berilgan [24, 116^b]. Bu urug' O'rta Osiyo xalqlarining barchasida uchraganligi uchun bu jihat uni qozoq yoki o'zbek ekanligiga aniqlik kiritmaydi. Mana shu manbada Toshkentni boshqargan Tursunxon qozoq xonlari ichida ilk marta tanga zarb etgan hukmdor sifatida e'tirof etilgan [24, 140^b]. Keldi Muhammadxon esa Toshkentni egallagach, Suyunchxojaxon mulkining qonuniy merosxo'ri sifatida tanga zarb ettirganligi “Musaxxir al-bilod” va “Tarixi olamaroyi Abbosiy” asarlarida qayd etilgan. Bundan ko'rinadiki, “Imomqulixonoma” asarining muallifi Hofiz Tanish Buxoriy Keldi Muhammadxonni qozoq xoni sifatida ifoda etmaydi. Shu o'rinda, Hofiz Tanish Buxoriy tomonidan Keldi Muhammadning qatag'on urug'i vakili sifatida qayd etilishiga ham izoh berib ketish lozim. Keldi Muhammadxonning siyosiy faoliyatida, uning Andijon va Toshkentdagi hokimiyatini o'rnatilishida qatag'on qabilasi muhim o'rin tutgan. Ashtarxoniylar tomonidan Keldi Muhammadxonga qarshi olib borilgan harbiy harakatlar mamlakatning sharqiy qismidagi qatag'onlarga qarshi olib borilgan kurash sifatida ham baholangan. Shundan kelib chiqib, Hofiz Tanish Buxoriy uni qatag'on urug'i vakili sifatida qayd etgan bo'lishi mumkin.

Manbalardagi Andijon hokimi haqidagi turli qarashlar ilmiy adabiyotlarda ham aks etgan. Masalan, A.Alekseyev, T.Sultonov, J.Tulibayeva, M.Abuseitova singari rus va qozoq olimlari uni qozoq xoni sifatida qayd etishsa, g'arb tarixchilari O.Berton, T.Uelsford Keldi Muhammadxon haqidagi mavjud manbalardagi ma'lumotlarni berish bilan cheklanishib, yakuniy xulosa berishmagan [17, 112; 19, 223; 20, 135; 8, 185; 2, 120; 6, 167, 193-197]. O'zbek

tarixchilari ichida ham qarashlar ikkiga bo‘linadi. B.Ahmedov, R.Mukminova Keldi Muhammadxonni mahalliy hukmdor sifatida e’tirof etishsa, A.Ziyo va A.Zamonov esa uni qozoq xoni deb hisoblashishgan [10, 97; 16, 45-46; 15, 260; 7, 30]. Bundan tashqari, 2022-yil nashr qilingan O‘zbekiston tarixiga oid fundamental asarda ham mualliflar uni qozoq xoni deb ta’kidlashgan [21, 247]. Yaqin vaqtlardagi O‘zbekiston tarixi fanining 8-sinflar uchun mo‘ljallangan darsligida ham u qozoq xoni sifatida qayd etilgan edi. Ko‘rinib turibdiki, Keldi Muhammadxonni qozoq xoni deb hisoblovchi tadqiqotchilar ko‘pchilikni tashkil etadi. Buning sababi esa oddiy, yuqorida tahlil etilgan “Tarixi olamaroyi Abbosiy” asari ilmiy jamoatchilikka uzoq vaqtdan beri ma’lum va mashhur ekanligidir. Bu manbani bir necha tillarga qilingan tarjimalari mavjud. Keldi Muhammadxon haqida eng ko‘p ma’lumot beruvchi “Bahr ul-asror” hali biron tilga to‘la tarjima qilinmagan va yagona nusxada India Ofis kutubxonasida saqlanadi. “Musaxxir al-bilod” asaridagi ma’lumotlarni ilmiy muomala tortish esa o‘tgan asrning yarmidan boshlandi. Yana bir to‘ldiruvchi manba rolini bajaruvchi “Tarixi miftah ul-qulub” ham nihoyatda kam o‘rganilgan asarlar toifasiga kiradi. Bizningcha, yuqoridagi omillar Keldi Muhammadxonning qozoq xoni sifatida noto‘g‘ri talqin etilishiga sabab bo‘lgan.

Endi bevosita XVII asr boshlarida sodir bo‘lgan siyosiy jarayonlarga to‘xtalsak. “Musaxxir al-bilod”ga ko‘ra, Boqi Muhammadxon hukmronligining ilk yillarida Andijonda Abdusattor sulton avlodlari hokimiyatni qo‘lga olishgan [17, 173]. Ular Pari Laklakon tumaniga qarashli Yazak mavzeyida Vali Muhammadxonning otalig‘i Sarxunbiy jaloyirga zarba berib, so‘ng Toshkent viloyatini ham egallashdi. Ularning vakillaridan eng kuchlisi Keldi Muhammadxon o‘z nomiga xutba o‘qitib, keyinchalik Boqi Muhammadxon bilan sodir bo‘lgan kurashda g‘olib bo‘lgan. “Bahr ul-asror”da esa bu voqea biroz boshqacharoq tarzda yoritilgan. Unga ko‘ra, Andijon hokimi Keldi Muhammadxon O‘ratepaga hujum qilgan. Boqi Muhammadxon jiyani O‘ratepa hokimi Pir Muhammad sultonga yordam berish uchun ukasi Vali Muhammadxonni yuborgan. Keldi Muhammadxon va ashtarxoniylar qo‘shini Pari Laklakon atrofida jangga kirishib, yakunda Keldi Muhammadxon mag‘lub bo‘lib, ortga qaytishga majbur bo‘lgan [5, 62^a-62^b]. Bu yerda aniqlik kiritish lozim bo‘lgan ayrim jihatlar mavjud.

Dastlab, tilga olingan Pari Laklakon haqida to‘xtalsak. “Boburnoma”ning 1500-1501-yillariga oid voqealarida Laklakon tilga olingan. Zahiriddin Muhammad Bobur Saripul jangidan so‘ng Samarqandga chekingan vaqt vodiya turgan Ahmad Tanbal Piskentga hujum qiladi. Bobur mirzo Toshkent xoni sulton Mahmudxon lashkari Ahmad Tanbal bilan Laklakon va Turok chorbog‘i mavzesida yuzma-yuz kelishganligini qayd etgan [11, 84]. 2014 yili chop etilgan

“Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi” kitobida bu joy Laklakon tarzida ifoda etilib, Andijonga yaqin mavzeli ta’kidlangan [27, 304] bo‘lib, Turok chorbog‘i esa Ohangaron daryosi vodiysida, Piskentga yaqin Somsiyrakda joylashganligi ko‘rsatilgan [11, 459]. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Pari Laklakon (Laklakon) hududi Andijonga yaqin joy emas. Turok chorbog‘i va Pari Laklakon bir-biriga yaqin hududligini, ularni Piskent, Xo‘jand hamda O‘ratepa bilan qaysidir ma’noda bog‘lovchi ekanligidan kelib chiqsak, Bekobod atroflarida joylashganligi ehtimoli yuqoridir.

Voqealar aslida qanday ketma-ketlikda sodir bo‘lgan? Yuqoridagi ikki manbadagi yakun ikki xulosani keltirib chiqarmoqda. “Musaxxir al-bilod”da Sarxunbiy jaloyirga zarba berilishi, unga shikast yetishi so‘ng esa Toshkent egallanishi qayd etilgan bo‘lsa, “Bahr ul-asror”da esa Vali Muhammadxonning yetib kelishi natijasida Keldi Muhammadxon ortga qaytganligi ta’kidlangan. Bu yerda bizningcha, muarrixlar bir-birida uchramaydigan voqealarni to‘ldirishgan. Mahmud ibn Vali bayon qilgan voqea dastlab sodir bo‘lgan va unda Keldi Muhammadxonning hujumi qaytarilgan. Uning hujumiga sabab, Buxoroda so‘nggi shayboniy Pir Muhammadxon II ning hukmronligiga chek qo‘yilishi natijasida mintaqada yangi sulola – ashtarxoniylarning kelishi Keldi Muhammadxonning manfaatlariga tamomila zid edi. Shuning uchun u o‘zini shayboniy hukmdor sifatida taxtga ega chiqish uchun kurash boshlagan. Lekin bu kurashda Andijon hokimi harbiy jihatdan ashtarxoniylarga nisbatan zaif ekanligi ayon bo‘ldi. Shundan so‘ng Keldi Muhammadxon ortga qaytib, ashtarxoniylarga qarshi kuchlar bilan ittifoq tuzishga harakat qilgan. Andijon hokimini mag‘lub qilgan Vali Muhammadxon o‘z otalig‘i Sarxunbiy jaloyirni Xo‘jandga hokim qilib tayinlab, akasi bilan birgalikda xonlikning janubiy sarhadlari tomon yurishga otlangan. Fursatdan foydalanib, imkoniyatlarini yaxshilab olgan Keldi Muhammadxon 1602-yilda ikkinchi marotaba hujumga o‘tib, Sarxunbiy jaloyirni mag‘lub qilgan va Toshkentni ham qo‘lga kiritgan. Bu hujum natijasida Keldi Muhammadxon Andijon va Axsidan tashqari Xo‘jand hamda Toshkentni birlashtirib, tom ma’noda Suyunchxojaxon mulkining egasiga aylangan.

Keldi Muhammadxon tomonidan Toshkentni egallanishi ramziy ma’no kasb etadi. Suyunchxojaxon ulusining markazi Toshkentni egallamay turib, bu avlod vakilligiga da’vo qilish katta ahamiyatga ega emas edi. Shuning uchun Keldi Muhammadxon aynan Toshkentni egallaganidan so‘ng o‘z nomiga xutba o‘qitib, tanga zarb ettirdi. Bundan tashqari, bu vaqtda Buxoro xonligi tarkibidan chiqib ketgan Toshkentni Keldi Muhammadxon qozoqlardan tortib olganligini inobatga olsak, ma’lum ma’noda Boqi Muhammadxon qozoqlar bilan Keldi Muhammadxon o‘rtasida kurash bo‘lishini taxmin qilgan bo‘lishi tabiiy. Shuning

uchun u mamlakatning sharqiy chegaralaridagi nizoga aralashmay, ahamiyati jihatidan yuqori bo‘lgan Balxda ashtarxoniylar hukmronligini o‘rnatishni manfaatli, deb bilgan. Bu paytda Buxoro xonligining janubida ashtarxoniylarga qarshi bo‘lgan bir qancha kuchlar mavjud edi. Balxda shayboniyzoda Muhammad Ibrohim sulton, Badaxshonda yana bir shaxsi munozarali bo‘lgan Baddiuzzamon va ularni yetarli darajada qo‘llab-quvvatlayotgan Eron shohi Abbas I shular jumlasidandir. Ammo mamlakatning shimoli-sharqiy hududlaridagi vaziyat Boqi Muhammadxon kutganidek rivoj topmadi. Dastlab qozoqlar bilan ziddiyatga kirishgan Keldi Muhammadxon Toshkentda mustahkamlanib olganidan so‘ng qozoq xoni Eshimxon bilan ittifoq tuzishga erishdi. Bu ittifoq Eshimxon uchun ham ikki jihatiga ko‘ra manfaatli edi. Birinchidan, Tavakkalxon vafotidan so‘ng uning taxti uchun kurashda Keldi Muhammadxondek ittifoqchidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ikkinchidan Keldi Muhammadxonga ashtarxoniylarga qarshi kurashda yordam berish orqali Movarounnahr hududlariga talonchilik yurishlarini amalga oshirishi ham mumkin edi.

Ashtarxoniylar tomonidan olib borilgan kurashlardan so‘ng Balx egallanib, Vali Muhammadxonni hududga noib etib tayinlangan. Eron shohi Abbas I dan doimiy yordam olib turgan Muhammad Salim sulton va Jahongir sultonlar Balx uchun asosiy xavfga aylandi. Ayniqsa, 1602-yil Eron shohi Abbas I qo‘shinlarini Balx yaqinidagi Puli Xattobda mag‘lub etilishi ashtarxoniylar mavqeyini mustahkamladi [9, 29]. Baddiuzzamon o‘ldirilib, Badaxshonda ham ashtarxoniylar hukmronligi o‘rnatildi.



Keldi Muhammadxon ashtarxoniylarni xonlikning janubida olib borayotgan kurashini sinchkovlik bilan kuzatib, hatto Abbas I bilan aloqa bog‘lashga harakat qilganligi ham ma‘lum. Ushbu safaviy hukmdor davrida yashagan va saroyda katta obro‘ga ega bo‘lgan Mulla Jaloliddin Munajjimning “Tarixi Abbosiy” (“Ro‘znomayi Mullo Jalol”) asarida Keldi Muhammadxon Eron

shohi Abbas I ga maktub yuborib, uni Buxoro hamda Samarqandni egallashga chorlaganligi qayd etilgan [26, 218-219]. Bu esa Keldi Muhammadxonni Balxda ashtarxoniylarga qarshi kurashayotgan Jahongir sulton va Muhammad Salim, Badaxshondagi Baddiuzzamon, safaviy Abbas I bilan hamfikir ekanligi hamda ular o'rtasida ma'lum aloqalar bo'lganligini ko'rsatadi.

Demak, ashtarxoniylarga qarshi Buxoro xonligining janubi va shimoli-sharqida o'ziga xos ittifoq yuzaga kelgan. Bu ittifoqning Abbas I tomonidan qo'llab-quvvatlanishi uning mavqeyini oshirgan bo'lsa, yuqoridagi Puli Xattob jangida safaviylarning mag'lubiyati mavjud ittifoqni amalda yakun topishiga olib keldi.

Shuningdek, ashtarxoniylarga qo'l kelgan jihat shu bo'ldiki, mamlakatning janub va shimoli-sharqiy qismidagi shayboniylar o'rtasidagi aloqalar u qadar mustahkam hamda izchil bo'lmadi. Bunga qator sabablar ta'sir qilgan.

Birinchi, Muhammad Salim sulton va Jahongir sultonlar shayboniylar sulolasining vakillari sifatida Buxoro va Balx uchun o'zlarini munosib nomzod hisoblashgan, bu esa Keldi Muhammadxon va ular o'rtasida o'zaro raqobatni vujudga keltirgan.

Ikkinchi, bu shahzodalar Abbas I yordami bilan taxtga chiqishsa, tabiiyki, oddiy xalqdan tortib yuqori qatlam vakillarigacha ularni qo'llamasligi aniq edi. Shu o'rinda bu vaziyat avval Zahiriddin Muhammad Bobur bilan ham sodir bo'lganligini yodga olish mumkin. Bunday holatda Keldi Muhammadxonning imkoniyatlari keskin oshib ketishi ehtimoli yuqori bo'lgan. Lekin bu yerda unutmazlik kerakki, Keldi Muhammadxonning asosan ko'chmanchilardan iborat qo'shinga tayanishi, Tavakkalxon yurishining oqibatlarini unutmagan xalq uchun ham manfaatli emas edi.

Uchinchi, Keldi Muhammadxonning qozoq xoni Eshimxon bilan ittifoq tuzganligi Boqi Muhammadxon uchun tashvishli edi. Bu ittifoqdan ko'rinadiki, Eshimxon ham Tavakkalxon vafotidan so'ng ichki vaziyatni to'la nazoratga ololmagan ko'rinadi. Keldi Muhammadxon bilan ittifoqda Buxoroga yurish orqali bir tomondan mavqeyini oshirsa, ikkinchi tomondan akasi uchun qasd olganligi bilan qozoqlar ichida obro'ga ega bo'lar edi.

To'rtinchidan, Keldi Muhammadxon uchun qozoqlar bilan ittifoq tuzish, Buxoroga bo'lajak yurish oldidan katta kuch to'plashga imkoniyat yaratsa-da, keyinchalik, bu kuchlar uning hokimiyatiga xavf solishi tabiiy edi. Bu yerda Keldi Muhammadxon Buxoroni egallash orqali hokimiyatini yana-da kuchaytirgandan so'ng Eshimxonni yengishni ko'zlagan bo'lishi ham mumkin. Bundan kelib chiqadiki, Keldi Muhammadxon uchun birinchi navbatda, ashtarxoniylardan tezroq taxtni qaytarib olish asosiy maqsad ekanligi ko'zga tashlanadi.

1603-yil 17-noyabr kuni Buxoroning rasmiy xoni Joni Muhammadxon vafot etdi [5, 73^a]. Boqi Muhammadxon endi nafaqat amalda, balki rasmiy jihatdan Buxoro xoni sifatida taxtga o'tiradi. U Farg'ona va Toshkentda hokimiyatini kuchaytirib, Buxoro taxtiga asosiy da'vogar hisoblangan Keldi Muhammadxonga qarshi yurish uchun qo'shin to'play boshladi. Keldi Muhammadxon ham o'z navbatida ashtarxoniylar bilan hal qiluvchi jangga qizg'in tayyorgarlik ko'rgan.

“Tarixi miftah ul-qulub” asarida ushbu jarayonning ayrim tafsilotlari bayon etilgan. Unga ko'ra, Keldi Muhammadxon Toshkent, Yorkyend*, Axsi, Andijon, Sayron (صیران), Marg'ilon hududlaridan katta qo'shin to'plab, Shohruxiya daryosiga keladi [1, 558^b; 6, 194]. Mahmud ibn Valiga ko'ra esa ikki qo'shin Ekriyor yoki Aygiriyor (ایگری یار, ایگری یار) mavzesida to'qnash kelishgan. Hoji Mir Muhammad Salim esa jang bo'lib o'tgan joy haqida aniq yozmay, bevosita Keldi Muhammadxonni Samarqand va Buxoro yurishini qisqacha bayon etgan [25, 168^a-169^b].

Keldi Muhammadxonning Eshimxon bilan ittifoqda ekanligi uning qo'shinida ko'p sonli qozoq va qirg'izlar ham bo'lishini ta'minladi. Umuman olganda, ashtarxoniylarga qarshi yetarlicha kuchli lashkar to'play olganligiga qaramay, ko'chmanchilarning bu urushda ko'zlagan maqsadlari, asosan, talon-toroj edi. Bu esa Keldi Muhammadxonning Buxoro taxtini egallashi uchun jiddiy muammo tug'dirardi. Chunki boy hududlar bo'lgan Zarafshon vohasi talonchilik uchun qulay hudud edi. Mana shu jihat yakunda Keldi Muhammadxonning halokatiga ham qaysidur ma'noda sababchi bo'ldi.

Ikki qo'shin o'rtasidagi Shohruxiya yaqinida bo'lib o'tgan jang ikki kun davom etgan. Keldi Muhammadxonning jang so'nggidagi hal qiluvchi zarbasiga Buxoro askarlari dosh bera olishmaganligi manbalarda qayd etiladi [1, 558^b]. Suyunchbiy otaliq, Muzaffar Husayn mirzo va Xon Muhammad Xoniylarning jonbozligi evaziga ashtarxoniylar lashkari to'la tor-mor etilishdan qutulib, Samarqand tomon chekinishga erishishdi [5, 73^b]. Bu Boqi Muhammadxonning Buxoro taxtini egallaganidan keyingi birinchi mag'lubiyati edi. Keldi Muhammadxon zudlik bilan Buxoro qo'shini ortidan Samarqandga yetib kelib, Cho'pon ota tepaligiga joylasha boshlaydi. Boqi Muhammad esa mudofaa uchun tayyorgarlikni kuchaytirdi.

Samarqandda katta hurmatga ega bo'lgan Naqshbandiya tariqatining obro'li vakili Xo'ja Hoshim Ahroriy Badaxshon hukmdori bo'lgan kuyovi Badiuzzamonning o'ldirilishi tufayli Boqi Muhammadxon bilan munosabatlari yomonlashgan edi [5, 73^b]. Ammo yuqorida aytilganidek, ko'p sonli qozoq

* Matnda “بارکند” shaklida yozilgan.

qo‘shini Samarqand atrofini talay boshlashi natijasida Xo‘ja Hoshim Ahroriy Buxoro xonini qo‘llashga qaror qildi.

Buning natijasida ashtarxoniylar o‘z kuchlarini qayta tiklab, olishga erishishdi. Keldi Muhammadxon Cho‘pon otaga qarorgoh qilishga ulgurmay, Pir Muhammadxon rahbarligidagi Movarounnahr kuchlarining hujumiga uchradi. Qozoq qo‘shini talon-toroj maqsadida tarqalib ketganligi sababli ham Keldi Muhammadxon yetarli qarshilik ko‘rsata olmadi. Qulbe mavzesi (موضع قولبه)da bo‘lib o‘tgan jangda Keldi Muhammadxon katta talafotga uchradi. Shu o‘rinda “Tarixi miftah ul-qulub” asarida keltirilgan voqealar bayoniga e‘tibor qaratish lozim. Unga ko‘ra, Keldi Muhammadxon Samarqand yaqinidagi Dahbed mavzesini talayotgan bir vaqtda qo‘qqisdan yaralanib, uning asorati tufayli Toshkentga qaytish vaqtida vafot etgan [1, 559^a]. Bizningcha, bu yerda Qulbe mavzesida jangda g‘olib chiqqan Keldi Muhammadxon Samarqand uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va shahar mudofaasini tashkil etishda katta o‘rin tutgan Xo‘ja Hoshimga qarashli Dahbedni egallashga qaror qilgan. Shu yerdagi jangda yaralanib, Toshkentga qaytish chog‘ida vafot etgan.

Chunki Mahmud ibn Vali Pir Muhammadxonni Cho‘ponotada qarorgoh qilmoqchi bo‘lgan dushman ustiga kutilmaganda hujum qilib, o‘ljalar bilan ortga qaytganini ta’kidlagan [5, 73^b-74^a]. Bundan ko‘rinadiki, O‘ratepa hokimi Pir Muhammadxonning hujumi Keldi Muhammadxon qo‘shinining ta’minotiga jiddiy zarar yetkazgan. Natijada vaziyatdan chiqib ketishga uringan Keldi Muhammadxon Samarqand atroflarini qo‘lga kiritishga qaror qilgan.

Andijon hokimining Samarqand tomon yurishi natijasiz tugaganligiga qaramay, Boqi Muhammadxonning dastlabki jangdagi mag‘lubiyati uni Keldi Muhammadxonga yetarli darajada baho bera olmaganligini ko‘rsatdi. Andijon hokimi 1599-1604-yillardagi siyosiy faoliyatida Farg‘ona vodiysi, Toshkent hududlarini qisqa vaqt bo‘lsa ham boshqardi. Boqi Muhammadxonga qarshi kurashda ko‘chmanchi qozoq hamda qirg‘iz qabilalari bilan hamkorlik qildi. O‘zini Suyunchxojaxon avlodining davomchisi deb bilib, nafaqat, Toshkent va Farg‘ona vodiysi, balki, Buxoro taxtini haqiqiy merosxo‘ri sifatida namoyon eta oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmad b. Shams al-Dīn. Tārīkh-i miftāh al-qulūb, MS Christ's Cambridge Dd.4.6. Reproduced by kind permission of the Master and Fellows of Christ's College, Cambridge. – 564 p.
2. Burton A. The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic and Commercial History 1550–1702. – Richmond Surrey: Curzon Press, 1997. – 664 p.
3. Eskandar Beg Monshi. History of Shax Abbas the Great (*Tārīkh-ye Ālamārā-ye 'Abbāsī*) / translate by Roger M. Savory. Volume II – Colorado: Westview Press, 1930. – 1392 p.
4. Īsgəndər bəy Münşi Türkman. Dünyanı bəzəyən Abbasın tarixi (Tarix-i aləmara-yi Abbasi). – Bakı, Şərq-Qərb, 2014. – 1400 səh.
5. Mahmud ibn Vali. Bahr ul-asror fi manoqibi ul-ahyor (VI jild 4-qism). Qo'lyozma mikrofilmi, India Office. № 575. – 409-b.
6. Welsford T. *Four types of loyalty in early modern Central Asia: the Tuqay-Timurid takeover of Greater Ma wara al-nahr, 1598-1605*. – Leiden-Boston: Brill, 2013. – 366 p.
7. Zamonov A. Vuxoroning ashtarxoniy hukmdorlari [Matn]: monografiya / A.Zamonov. – Toshkent: Bayoz, 2021. – 136-b.
8. [Абусейтова М.Х.](#) Казахстан и Центральная Азия в XV–XVII вв.: история, политика, дипломатия. – Алматы: [Дайк-Пресс](#), 1998. – 268 с.
9. Алексеев А.К. Политическая история Тукай-Тимуридов: По материалам персидского исторического сочинения Бахр ал-асрар. – СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2006. – 229 с.
10. Ахмедов.Б.А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). Ташкент: [Фан](#), 1982. – 295 с.
11. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома / Заҳириддин Муҳаммад Бобур; Таҳрир хайъати А.Қаюмов, Х.Султонов, Б.Алимов ва бошқ; Халқаро Бобур фонди. – Тошкент: Ўқитувчи НМИУ, 2008. – 288 б.
12. Документы к истории аграрных отношений в Бухарском ханстве. Вып.1. Акты феодальной собственности на землю XVII – XIX вв. – Ташкент, 1954. – 268 с.
13. Жувонмардиев А. XVI – XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Т.: Фан, 1965. – 182 б
14. Зайниддин Махмуд Восифий. Бадоеъул вақоеъ (Нодир воқеалар) / Форсийдан Н.Норқулов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 213 б.
15. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Т.: Шарқ, 2001. – 368 б.

16. Муқминова Р.Г. Тўрт аср олдинги Тошкент. – Т.: Фан, 1984. – 48 б.
17. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод (Мамлакатларнинг эгалланиши) / Форс тилидан таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари И.Бекжонов, Д.Сангирова. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 429 б.
18. Набиев Р.Н. Новые документальные материалы к изучению феодального института “суюргал” в Фергане XVI-XVII вв. – Изв. АН УзССР, 1959. № 3. – С. 28-29.
19. Султанов Т.И. Поднятые на белой кошме. Ханы казахских степей. – Астана: Астана Даму-21, 2006. – 256 с.
20. Тулибаева Ж. История Казахстана в Аштарханидских источниках // Доклады НАН РК. – Алматы, 2013. № 4. – С. 126-140.
21. Ўзбекистон тарихи. (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача) I жилд [Матн] / А.Асқаров [ва бошқ.]. – Т.: Маънавият, 2022. – 456 б.
22. Ҳофиз Таниш Ал-Бухорий. Абдуллонома (“Шарафномаи шоҳий”). Иккинчи китоб / Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Ҳакимжонов таржимаси; илмий муҳаррир, нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Б.Аҳмедов. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 288 б.
23. Шайбонийлар қабртошларидаги битиклар / Нашрга тайёрловчилар: Б.Бобожонов, А.Мўминов, Ю.Пауль. – Висбаден: Доктор Людвиг Райхерт, 1997. – 190 б.
24. امام قلى خان نامه. O‘zR FA SHI. Qo‘lyozma №89. – В. 150 б.
25. حاجي مير محمد سليم. سلسلة السلاطين. MS. Ouseley 269. – Bodleian Library, Oxford University. – 338 б.
26. ملا جلال ا بدین محمد منجم یزدی. تاریخ عباسی یا روزنامه ملا جلال/ به کوشش: سیف‌الله و حیدر نیا. – تهران: انتشارات وحید، ۱۳۶۶. – ص 498
27. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси / Таҳрир хайъати А.Қаюмов ва бошқ. Бош муҳаррир: А.Аъзамов. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б. 304.

TARIX**UZOQ SHARQDAGI KOREYSLARNING XORAZMGA KO‘CHIRIB
KELTIRILISHI VA ULARNING VILOYATDAGI FIDOKORONA
FAOLIYATI**

**Umid
BEKMUHAMMAD**

**Tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori**

UO‘K 540.20

Annotatsiya: ushbu maqolada Rossiyaning Uzoq Sharq hududidan Xorazmga koreys millatiga mansub etnik jamoaning majburiy ko‘chirib keltirilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, Xorazmda yashagan koreyslarning voha taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi faktlar asosida yoritib beriladi.

Аннотация: в статье анализируется принудительное переселение корейского этноса с Дальнего Востока России в Хорезм. Также на основе фактов будет освещен вклад корейцев, живших в Хорезме, в развитие оазиса.

Annotation: this article analyzes the forced resettlement of a Korean ethnic group from the Russian Far East to Khorezm. Also, the contribution of the Koreans who lived in Khorezm to the development of the oasis will be highlighted on the basis of facts.

Kalit so‘zlar: Uzoq Sharq, majburiy ko‘chirish, Xorazm, Orol dengizi, Gurlan, Vazir, koreys, o‘zbek, do‘stlik, gurlanliklar.

Ключевые слова: Дальний Восток, вынужденное переселение, Хорезм, Аральское море, Гурлан, Вазир, кореец, узбек, дружба, гурланы.

Key words: Far East, forced relocation, Khorezm, Aral Sea, Gurlan, Vazir, Korean, Uzbek, friendship, Gurlans.

O‘zbekistonning 1991-yil 1-sentabrdagi mustaqilligi tufayli tarixni xolis va haqqoniy o‘rganishga katta imkoniyat yaratildi. Bu jarayonda faqat o‘zbek xalqininggina emas, O‘zbekistonda yashovchi har bir millatning respublika hududida diniy bag‘rikenglik asosida e‘tiqodlariga, o‘z urf-odatlariga, an‘analariga amal qilishlariga, milliy bayramlarini nishonlashlariga shart-sharoitlar yaratildi. Shuningdek, o‘z millati tarixini yozishlariga imkoniyatlar berilib, mavjud arxivlardan foydalanishlariga ruxsat qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Baynalmilal madaniyat markazi va ushbu tashkilot qoshida har bir millatning madaniy markazlari, viloyatlarda ham shunday markazlarning faoliyat ko‘rsatishlari, turli millatlarning o‘z an‘analarini, bayramlarini nishonlashi ularga davlat miqyosida e‘tibor qaratilayotgani

ko'rsatadi. Ana shunday jarayonda O'zbekiston Respublikasi, xususan, koreys xalqi ham boshqa millatlar bilan do'st va ahil yashab kelmoqda va jamiyatdagi barcha sohalarda faol ishtirok qilmoqda.

Biroq koreys xalqining O'zbekiston, xususan, Xorazm viloyatiga Sobiq ittifoq davrida qanday sabablarga ko'ra majburiy ko'chirib keltirilishi, bu jarayondagi mashaqqatli, g'oyatda qiyinchilikda kechgan turmush sharoiti, xorazmliklarning ularni samimiy kutib olganliklari, ularga zarur shart-sharoit yaratib berganliklar va 87 yildan beri davom etib kelayotgan ahil va do'stona hayoti ilmiy tadqiqot mavzusini sifatida fundamental tadqiq qilinmagan. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida dunyo davlatlari bilan hamkorlik va do'stona munosabatlari, xususan Janubiy Koreya bilan kechayotgan muvaffaqiyatli aloqalari Xorazmda yashab kelayotgan koreys xalqining 87 yillik hayotini ilmiy asosda o'rganishga imkon yaratadi. Ana shu bois ham ularning Uzoq Sharqdan 1937-yilda Xorazmga majburiy ko'chirilishi haqidagi maqolaning yaratilishiga sabab bo'ldi.

Sovet davrida yaratilgan ilmiy adabiyotlarda o'sha davrdagi mafkura sababli koreys xalqining Uzoq Sharqdan majburiy ko'chirib keltirilishi umuman yaratilmadi. Hatto mustaqillik davrida Urganch davlat universitetining bir guruh tarixchi olimlari tomonidan (Mas'ul muharrir va nashrga tayyorlovchi professor M.Matniyozov) yaratilgan "Xorazm tarixi" nomli ikki jildlik monografiyada ("Xorazm" nashriyoti, Urganch 1997-1998-yillar) ham koreyslarning qanday sabablarga va qanday tarzda ko'chirib keltirilishi yoritib o'tilmagan. Shuningdek, Xorazm tarixiga oid shu paytgacha yaratilgan turli ilmiy, ilmiy ommabop kitoblarda ham bu mavzu yozilmay kelinmoqda.

Faqatgina K.Nurjonov va U.Bekmuhammadlarning "Gurlan tarixi" ("Xorazm" nashriyoti, Urganch – 2006-yil) kitobida koreyslarning Gurlanga ko'chib kelish jarayoni keksa koreyslarning xotiralari asosida yoritib o'tiladi. Shuningdek, Xorazm viloyatiga 1992-1996-yillarda hokimlik qilgan Marks Jumaniyozovning "Esimda qolgan onlar" ("Musiqqa" nashriyoti, Toshkent – 2008-yil) memuarida o'zi bilan bir davrda faoliyat ko'rsatgan ayrim koreys xalqi vakillari hayoti yoritilgan. Vaholanki, sovet davrida Nam Xyun Dyun, Nikolay Kim, Xan Ben Nam, Pak Nikolay, Miron Danilovich Li singari ko'plab tuman va viloyat darajasidagi rahbar kadrlar, mustaqillik davrida esa Vera Borisovna Pak singari O'zbekiston Qahramoni unvonini olgan va boshqa ko'plab sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan koreys millati namoyondalari yetishib chiqqan.

Shu bois koreys xalqining Xorazm viloyatidagi 87 yillik hayoti va faoliyatiga oid turkum maqolaning birinchisi bo'lgan – koreyslarning Uzoq

Sharqdan viloyatga majburiy ko‘chirilishi haqidagi maqolani tarixiy manbalar va keksa koreyslarning xotiralari asosida yoritishga harakat qildik.

Ushbu maqolada mavzuni yoritish davomida ilmiy tadqiqotning umume’tirof etgan bir nechta uslublari, jumladan ma’lumotlarni qiyosiy tahlil, voqea va jarayonlarni xronologik asosda, xolislik tamoyillaridan foydalanildi.

Ma’lumki, XVIII asr oxirida Rossiya imperiyasi o‘z hududini bosqinchilik urushlari tufayli kengaytirib, Uzoq Sharqni egalladi, dengiz bo‘ylarida Vladivostok, Xabarovsk kabi harbiy istehkomlar qurdi va vaqt o‘tib ushbu istehkomlar shahar darajasiga yetdi. Ming yillardan beri shu o‘lkalarda yashab kelayotgan “Koryo Saram”, ya’ni koreys etnik jamoasi o‘z vatanlarini tashlab ketishmadi va o‘zlarining azaliy kasb-u korlari bilan taraqqiyotda davom etdilar.

1917-yil fevral va noyabr oylaridagi siyosiy jarayonlar sabab Rossiyada hokimiyat almashuvi yuz berdi. Fevral oyida imperator Nikolay II hokimiyatdan ag‘darilib, Davlat dumasi deputati Kerenskiy boshchiligida muvaqqat hukumat tashkil etilgan va bu hokimiyat boshqaruvi ham 7-noyabrgacha davom etadi. O‘sha sanada hokimiyatni V.I.Lenin boshchiligidagi bolshevik (kommunistlar) egallashdi va oldingi imperiya davridagi barcha hududlarni qaytadan o‘z itoatiga olishdi hamda natijada 1922-yil 30-dekabrda SSSR tashkil qilindi.

Bu davrda Uzoq Sharqdagi koreyslar bahamjihatlikda o‘zlarining qishloq xo‘jaligi va sanoatdagi faoliyatlarini davom etdirishdi. Biroq 1924-yildagi V.I.Lenin vafotidan so‘ng hokimiyatga kelgan I.V.Stalinning olib borgan mafkuraviy, ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan siyosati sabab, SSSR hududidagi kam sonli millatlarga nisbatan shafqatsizlarcha munosabati, ularning insoniy haq-huquqlarini cheklab qo‘yadigan darajaga yetdi. Bu davrga kelib SSSRning Uzoq Sharqdagi chegaradosh davlatlari bo‘lgan Yaponiya, Xitoy, Koreya mamlakatlari bilan chegara nizolari hal etilmagan, bahsli hududlar ko‘p edi.

Ana shunday vaziyatda, qolaversa Yaponiyadagi fashistik tuzum hukronligi sabab, chegara masalasida Uzoq Sharq hududlarida urush ehtimoli bor degan taxminlar asosida SSSR rahbari, VKP(b) Markaziy Kengashi bosh kotibi I.V.Stalin tashqi ishlar ministri V.Molotov, Ichki ishlar ministri N.Yejovlarning tayyorlagan ma’lumotnomasiga tayanib, 1937-yilda koreys millatiga mansub etnik jamoani O‘rta Osiyo va Qozog‘istonga ko‘chirishga buyruq beradi.

Ana shu asosda 1937-yil 11-oktabrda O‘zbekiston SSR xalq komissarlari soveti ko‘chirib keltirilgan koreyslarni hududlarga joylashtirish va ularga shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risidagi qarorni chiqaradi.

Sovet hukumatining koreyslarni Uzoq Sharqdan majburiy ko‘chirishdan maqsadi ikkita bo‘lib, chegara hududlarda ehtimoliy urushning oldini olish orqali nisbiy tinchlikka erishish hamda O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda mehnatkash

koreyslar orqali agrar va sanoat sohalarida ishchi kuchini yaratish orqali taraqqiyotni tezlatish edi.

Natijada Uzoq Sharqda tinch va osoyishta yashab kelayotgan Sinduxin daryosi bo‘ylaridagi koreyslar 54 vagondan iborat poyezdda O‘zbekiston SSRning Xorazm viloyatiga olib kelinadi. Ko‘p yillar davomida Gurlan va Mang‘it tumanlarida rahbarlik lavozimlarida ishlagan Xan Ben Nam (1923-2000) majburiy ko‘chirish bilan bog‘liq jarayonni shunday xotirlagan edi:

“Kutilmaganda SSSR rahbariyatining buyrug‘i asosida azaliy vatanimizdan ko‘chirilish koreys xalqida norozilik uyg‘otsa-da, harbiy qo‘shin yordamida ko‘chirishga majbur qilishdi. Qarshilik qilish o‘lim bilan barobar edi. Noilojlikdan yo‘lda yegulik va zarur kiyim-kechaklar yuklangan holda Uzoq Sharqdan yuk vagonlarida Qozog‘istonning Qizil O‘rda viloyatiga olib kelishdi. So‘ngra Orolsk shaharchasidan dengiz kemalarida janubi-g‘arbiy tomonga qarab 8 kecha-kunduz suzdik va oxiri Orol dengizi bo‘yidagi kichkina port shahri – Mo‘ynoqqa tushdik. Endi shu yerda qolib, baliqchilik qilsak kerak deb o‘ylagandik. Biroq bizni katta-kichik qayiq va barjalarga yuklab Amudaryo orqali Xorazm viloyatining Gurlan tumaniga olib kelishdi. O‘sha yillari daryo bo‘yidagi Vazir qishlog‘ining atroflari qamishzor to‘qaylardan iborat orol edi. Bizni xuddi Uzoq Sharqdagidek kolxozlarga birlashtirdilar. Dastlab to‘qaydagi yog‘ochlardan boshpana uylar qurdik. Keyin xorazmliklarning an‘anaviy uslubida yozda salqin, qishda issiq bo‘ladigan paxsa uylar qurishni o‘rgandik. Ushbu uylarni qishda isitish uchun o‘z uslubimizdagi koreys pechlarini o‘rnatdik. Vaqt o‘tib Xorazmda koreys pechlari ommalashib, boshqa o‘zbek xonadonlarida ham pechkalar o‘rnatila boshlandi. Koreyslar azaliy odatlariga ko‘ra turli giyohlardan, meva-chevalardan konserva tayyorlashdi, ovchilik qilishdi, baliq va hayvonlar go‘shini quyoshda quritib qish g‘amini yeyishdi. Yoz bo‘yi betinim mehnat qildik. Tajribadan shu narsa ayon bo‘ldiki, bu yerning yashash sharoiti yaxshi ekan.

Biz ruhan qiynalmaslik uchun koreys konsert guruhi tuzdik. Dastlab Gurlan tumani, keyin Xorazm viloyati bo‘ylab jamoa xo‘jalik (kolxoz)larda o‘zbek birodarlarimizga konsertlar qo‘yib berdik.

Koreyslarning sholi, piyoz, karam, baqlajon ekish madaniyati yerli xalqqa manzur bo‘ldi va ommalashib ketdi” .

Mehnat faxriysi Vadim Tyugayning 90 yoshdan o‘tgan onasi Polina aya Tyugay ham Gurlanga ko‘chib kelishgandagi vaziyatni shunday tasvirlagandi:

“1937-yilning kunlaridan birida Uzoq Sharqda tinchligimiz buzildi. Ya‘ni bizga tezlik bilan molu mulklarimizni yig‘nashtirib, uylarimizni bo‘shatish haqida buyruq berildi. Shikoyat-u e‘tirozlarimiz inobatga olinmadi. Shu tariqa qo‘lga ilingudek narsalarni olib, shoshilinch ravishda yuk vagonlariga joylashtirishdi.

Qiyinchilik va mashaqqatlar bilan poyezdda Orolsk stansiyasiga yetib keldik. Bu stansiyada bizni vagonlardan tushirib barjalarga o'tqazishdi. Shu tarzda Orol dengizi orqali Amudaryoga o'tib, oqimga qarshi suzib ketdik.

Sentabr oyining oxirgi kunlari kech soat to'qqizlar chamasi mo'ljallangan manzilga yetib keldik. Eshimjiron qishlog'idagi Alibobo maydonidagi bandargohda bizni karnay surnay sadolari bilan kutib olishdi. Har bir oila a'zolari alohida aravalarga mindirilib, ularning anjomlari ortilgach, oldinma-keyin yo'lga tushdik. Qayerga boramiz, qanday uyga joylashamiz, bilmaymiz. So'raylik desak, aravakash bizning, biz esa uning tilini tushunmaymiz.

Aravamiz kech soat o'n birlar atrofida bir hovliga kelib to'xtadi. Biz uchun ajratilgan uyga kirdik. Bir xonaning o'rtasidan devor bilan bo'lib, bizga orqa tomondan maxsus eshik ochishibdi. Yuklarni shu yerga tushirib, o'rnatdik. O'shanda koreys oilalari Vazir qishlog'idagi mahalliy aholining uylariga joylashtirilgandi. Bora-bora o'zbek koreys xalqlari do'st-birodar, quda-anda bo'lib ketishdi".

Shu tarzda koreyslar dastlab Gurlanda, so'ngra Xorazm viloyatining ham boshqa tumanu qishloqlarida agrar va ishlab chiqarish sohalarida faoliyat ko'rsata boshladilar. Koreyslarning Vazir qishlog'ida Sinduxin nomli mahallasi vujudga keldi. Gurlan tumani markazida va Yangiobod, Guliston qishloqlarida ham koreyslarning mahallalari va tabiiyki, mahalliy qabristonlarga yondosh koreys qabristonlari tashkil topdi.

Gurlan tumaniga ko'chirib keltirilgan koreyslar 1938-yildan tumandagi qumliklarda yangidan o'zlashtirilayotgan Guliston, Yangiobod qishloqlariga ham ko'chirildi va tashkil etilgan davlat xo'jaliklari (sovxoz)larga jalb etildi.

Masalan, "1938-1954-yillar davomida "Guliston" davlat xo'jaligi (sovxoz)da Ton Chan Sen direktor sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ton Chan Sen 1937-yildan Xorazmga kelishidan oldin uzoq Sharqdagi jamoa xo'jaligi (kolxoz)ga raislik qilgan tajribali rahbar edi.

Tabiiyki, Ton Chan Senning qishloq xo'jaligini taraqqiy qildirib, sholi ekinidan yuqori hosil olishi tufayli, undan keyingi sovxoz direktori qilib ham aynan koreys millatiga mansub kishilar rahbar qilib qo'yildi. 1954-yildan 1965-yilgacha esa Pak I Chun, 1965 – 1987-yillarda Kim Sergey Timofeyevich sifatida o'z qishloqlari obodonchiligi va taraqqiyoti uchun katta xizmatlar qilishgan. Gulistonliklar ushbu shaxslarning qishloq taraqqiyotiga qo'shgan katta hissalarini hamon faxrlanib eslab yurishadi".

Aminboy Vapoyevning "Xotiramda jonlangan o'tmish" kitobida yozilishicha, Gurlanga ko'chirib kelgan koreyslar Saxtiyon qishlog'idagi M.Gorkiy nomli kolxozda ham yashashgan. Ko'chib kelgan koreyslarning Ton

Chan degan kishi, II jahon urushi davrida ushbu kolxozga raislik qilgan. Raisni saxtixonliklar Ton bobo deya eʼzozlab, hurmat qilishgan”.

Tabiiyki, gurlanlik oʻzbeklar yangidan koʻchib kelgan koreyslar bilan doʻst tutingan va ularga qoʻlidan kelganicha yordam berishgan. Shunday kishilardan biri Vazir qishlogʻilik Madamin Ollaberganov (1900-1948) edi. Madamin Ollaberganov uchastka zootexnigi boʻlib ishlagan davrida koreyslarga qarashli ot, mollarni davolab, ular bilan inoqlashib ketgan.

Yillar oʻtib Uzoq Sharqda tugʻilgan va katta hayotiy tajriba toʻplagan koreyslar Xorazmga koʻchib keltirilgach, oldingidek fidokorona mehnatlar qilishdi. Ular 1950-60-yillarga kelib oʻzlarining agrar sohadagi sidqidildan qilgan mehnatlari evaziga davlat miqyosida katta hurmat ehtiromga sazovor boʻlishdi.

Masalan, Gurlan tumanining Kommunist kolxozi va Guliston sovxozida sholichilik brigadasi boshliqlari boʻlgan German Yugay, Pak Nikolay, Nam Xyun Dyunlar SSSR davridagi eng katta oliy mukofot – Sotsialistik Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor boʻldilar.

Shuningdek, Xan Ben Nam, Sergey Kim, Innokentiy Kim, Aleksey Kim kabi rahbarlar Xorazm faxriga aylandilar.

“Xan Ben Namning 14 yoshgacha boʻlgan umri Uzoq Sharqda kechgan edi. U avvalo Gurlan tumanidagi Guliston kolxozida tabelchi boʻlib ishlaydi. Mehnatda toblangan Xan Ben Nam oliy taʼlumot olishni maqsad qilib, viloyat rahbariyatining tavsiyasiga koʻra, 1943-1948-yillarda Toshkent qishloq xoʻjaligida, soʻngra 1949-1951-yillarda Toshkent oliy partiya maktabida tahsil oladi. Soʻngra u Gurlan rayon partiya qoʻmitasida tashkiliy ishlar boʻlim mudiri, 1956-1958-yillarda Mangʻit rayoni partiya qoʻmitasi 2-kotibi, 1958-1965-yillarda Gurlan ishlab chiqarish boshqarmasida boʻlim mudiri. 1965-1974-yillarda Gurlan partiya qoʻmitasi 2-kotibi, 1974-1993-yilda tumanlararo suv yoʻllari boshqarmasi boshligʻi vazifalarida ishlab oʻzining kuch va bilimni jamiyat taraqqiyoti uchun sarflab, obroʻ eʼtibor qozonadi”.

Xuddi Xan Ben Nam singari Uzoq Sharqdan koʻchirib keltirilib, “Xorazmda faxr-u iftixorga sazovor boʻlgan shaxslardan biri Sergey Kim edi. “U 1916-yilda Rossiyaning Ussuriysk viloyati Lyubcha qishlogʻida tugʻilgandi. 1937-yilda Gurlan koʻchirib keltirilgach, kolxozda hisobchi-yordamchi, 1940-1941-yillarda Toshkent xalq xoʻjaligi texnikumida oʻqiydi. 1941-1943-yillarda “Guliston” kolxozida hisobchi, 1943-1958-yillarda Baynalmilal kolxozida rais, 1958-1977-yillarda Pobeda, Kommuna, Guliston kolxozlarida rais vazifasida faoliyat koʻrsatadi. Aynan Sergey Kimning raislik davrlarida u rahbarlik qilgan kolxozlarda qishloq aholi punktlari zamonaviy koʻrinishga ega boʻldi va agrar sohada taraqqiyotga erishdi”.

Xorazm faxri darajasiga erishgan koreyslardan yana biri Aleksey Ivanovich Kim bo‘lib, u ham 1923-yil 24-noyabrda Uzoq Sharqda tug‘ilgandi. 1945-yilda Tojikiston qishloq xo‘jalik texnikumini bitirib, mehnat faoliyatini Gurlan mashina traktor stansiyasida bosh agronom bo‘lib ishlashdan boshladi.

1958-yildan Gurlan tumani qishloq xo‘jalik boshqarmasi boshlig‘i, 1960-yildan tuman partiya qo‘mitasining ikkinchi kotibi, 1963-1967-yillarda Guliston kolxozida rais, 1967-1989-yillarda esa Kommunistik kolxozining raisi bo‘lib ishladi. Aleksey Ivanovich Kim raislik qilgan yillari Vazir qishlog‘i (Kommunistik kolxozi) obod go‘shaga aylanib, uning tashkilotchiligi, ishchanligi tufayli paxtachilik, sholichilik, boshqa tur ekinlar parvarishiga yangi texnologiyalar joriy etildi, yuksak dehqonchilik madaniyatiga erishildi. A.I.Kim qishloqda turmush madaniyatini oshirish, mehnatkashlar iqtisodini ko‘tarish bo‘yicha katta ishlar olib borib, ko‘plab shogirdlar yetishtirdi. Vazir qishlog‘i taraqqiyoti uchun fidokorona mehnatlar qilgan A.I.Kim 1997-yilda vafot etadi .

Gurlan tumanining Guliston qishlog‘i ko‘chalari bugungi davrimizda Do‘stlik, Ton Chen Sen, Baynalmilal kabi nomlar bilan ataladi va buning yagona sababi koreyslar bilan bog‘liq. Hattoki Guliston qishlog‘idagi birodarlik qabristoniga Ton bobo deb nom qo‘yishgan. Buning boisi bor, albatta. O‘tgan asrning 1930-yillari o‘rtalarida ham bu maskan qamishzor-to‘qay, o‘zlashtirilmagan hududlar bo‘lib, xalq tilida uni “Suvolma”, “Qoraqamish”, “Ko‘lli” deb atashardi. 1935-yilgacha bu yerda aholi mavsumiy mehnat qilib, bahordan yozgacha qishloq xo‘jaligida band bo‘lishar va kuzning salqin kunlaridan bahor kelgancha qish faslida qo‘shni qishloqlarda istiqomat qilishgan.

1937-yili bu yerga koreyslar ko‘chirib keltirilgach, zamonaviy uylar, ko‘chalar paydo bo‘lgan va Guliston deb nom qo‘yilgan.

“Ton Chan Son bu hududda 35 yil rahbar bo‘lib ishlaydi va Guliston davlat xo‘jaligi (sovxozi)ning respublikadagi agrar sohani xom ashyodan ishlab chiqarish korxonasi darajasiga yetkazdi. Aynan Gulistonlik koreyslar agar va ishlab chiqarish sohasidagi faoliyatlari uchun. Soy Moforiya Nikonovich, Li Gin Sun, Sergey Kim, Xvan Povel, Xvan Inxo, Xon Gyu Gang, Shin Mariya, Shin Chan, Yugay Vasiliyalar, SSSR davrida “Mehnat qizil bayroq” ordeniga sazovor bo‘lishgan”.

Ularning hammasi Uzoq Sharqda tug‘ilgan va Xorazmga majburiy ko‘chirib keltirilgan koreys xalqining mehnatkash farzandlari edi. O‘sha davrda shu kabi dastlab Gurlanga ko‘chib kelgan va jamiyatdagi kasb taqozosi bois, boshqa hududlarga borib yashab, Xorazm viloyati, O‘zbekistonning boshqa hududlarida faoliyat ko‘rsatgan ko‘plab faxr-u ehtimolli koreyslarning nomlarini keltirish mumkin.

Bular Xonqa tumanining Amudaryo bo‘ylaridagi Al-Xorazmiy nomli davlat xo‘jaligi (sovxozini)ni tashkil etgan va “Mehnat qahramoni” unvoniga sazovor bo‘lgan Kim Nikolay Vasilevich (1910 – 1992), Xiva tumani rahbari bo‘lib ishlagan Li Miron Danilovich, viloyat koreys madaniyat markazi rahbari Pak Eduard Pavlovich va boshqalardir.

Koreyslar Xorazm ahliga nafaqat sholidan mo‘l hosil sirlari balki ilm-fan, texnika, tibbiyotda davolash tajribalarini ham bajonidil baham ko‘rdilar. Ana shunday koreys millatiga mansub kishilaridan biri Innokentiy Lukich Kim hisoblanadi.

“U 1918-yilda Uzoq Sharqda tug‘ilgan bo‘lib, 19 yoshida Qozog‘istonga ko‘chirib keltirilgandi. Keyinchalik u sog‘liqni saqlash sohasidagi tadqiqotlari bilan tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasiga, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan shifokor unvonlariga ega bo‘ldi.

Innokentiy Lukich Kim faoliyatini Qozog‘istonning Baviaul tumanidagi feldsherlik punkti mudiri bo‘lib ishlashdan boshlagan edi. So‘ngra Toshkent viloyatining O‘rta Chirchiq tumanida feldsher sifatida faoliyat ko‘rsatgan. 1949-yilda Toshkent tibbiyot institutini tugatib, Gurlan tumaniga xizmatini boshlaydi. Tibbiyot sohasida sidqidildan qilgan mehnatlari bois tuman sil kasalliklari dispanseri bosh shifokori, ftiziator – shifokor, markaziy kasalxona bosh shifokori bo‘lib ishladi. Ish faoliyati davomida minglab insonlarni jarrohlik yo‘li bilan o‘limdan saqlab qoldi. Ayniqsa 1969-yilda Gurlanda tarqalgan xolera kasalligini davolashda uning xizmatlari beqiyos katta bo‘ldi” .

Vazirda yashab mehnat qilgan koreyslar faoliyati bilan bog‘liq bunday faxru ehtiromga loyiq shaxslarni yana qayd etish mumkin va ular orasidan Nyu Kvan Son 1948-yilda, German Yugay 1949-yili, Pak Nikolay 1950-yil 11-iyunda sholidan yuqori hosil olishga erishib, shu davrning eng yuksak unvoni – Mehnat qahramoni darajasiga yetishgan edi.

Shuningdek, Kim Sheney, Pak Dionis, Lu Chunsik, Kim Yelisey, Pak Bonsey, Pak Sedin, Ogay Sinmuklar ham davlatning ko‘plab orden, medallari bilan taqdirlanishgan.

Uzoq Sharqdan 1937-yilda majburiy ko‘chirib keltirilgan koreyslar Xorazm viloyatidagi sharoitga moslashib, o‘zbek va boshqa xalqlar bilan do‘stona, ahil yashab kelishmoqda. Ularning 87 yillik hayoti, tarix shuni ko‘rsatadiki, koreys xalqining mehnatkashligi, har bir sohada peshqadam darajaga yetishi Xorazm, O‘zbekistonning taraqqiyotiga sabab bo‘ldi va bo‘lmoqda. Koreyslarning O‘zbekistondagi faoliyati fundamental asosda ilmiy tadqiqot olib borish uchun mavzu bo‘la oladi va afsuski, bu tadqiqot ishi hanuzgacha qilinmay kelmoqda. Jamiyatdagi har bir soha bo‘yicha koreyslarning fidokorona

mehnatlari turkum maqolalar, risola, kitoblar tarzida yaratilishi kerak va bu zaruratdir. Negaki koreyslarning 87 yillik hayoti va faoliyati bunga arziydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Валерий Хан., Сим Хон Ёнг, «Корейсы в Центральной Азии: прошлое и настоящее», Изд-во МБА, Москва – 2014, стр-68.
2. Gurlan tumanida yashagan Xan Ben Namdan 1999-yilda yozib olingan dala yozuvlari.
3. Gurlan tumanida yashagan Polina Tyugaydan 2000-yilda yozib olingan dala yozuvlari.
4. K.Nurjonov, U.Bekmuhammad, “Gurlan tarixi”, “Xorazm” nashriyoti, Urganch-2006-yil, 87-88-betlar.
5. Aminboy Vapoyev “Xotiramda jonlangan o‘tmish” “Istiqlol” nashriyoti, Toshkent-2013-yil, 47-bet.
6. K.Nurjonov, U.Bekmuhammad, “Gurlan tarixi”, “Xorazm” nashriyoti, Urganch – 2006-yil, 88-89-betlar.
7. Gurlan tumani arxivi, Fond № 45, 67, 145-varaq.
8. Gurlan hayoti” gazetasi 2000-yil 8-son.
9. Gurlan hayoti” gazetasi, 1997-yil 14-son.
10. Otaboy Madaminov “Xorazm tibbiyoti tarixiga chizgilar”, “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2012-yil.

TARIX**MO‘G‘ULISTON SAFARNOMASI****UO‘K 94 (575.171): 28-9**

Annotatsiya: mazkur maqolada Urganch davlat universiteti tashabbusi bilan Mo‘g‘uliston Respublikasiga 2023-yilning 12-19-oktabr kunlari amalga oshirilgan ilmiy safar natijalari e‘lon qilinadi.

Аннотация: в статье будут оглашены результаты научной поездки в Республику Монголия, которая состоялась 12-19 октября 2023 года по инициативе Ургенчского государственного университета.

Annotation: in this article, the results of the scientific trip conducted by Urganch state university to the Republic of Mongolia on October 12-19, 2023 at the initiative of the state will be announced.

**Mardon
XASANOV**

**Urganch davlat
universiteti o‘qituvchisi**

Kalit so‘zlar: Mo‘g‘uliston, sartul, sayohat, ko‘chmanchi, bitiktosh, To‘nyuquq, Kultegin, Bilga xoqon, O‘tukan, Marko Polo, Plano Karpini.

Ключевые слова: Монголия, сартул, путешествие, кочевник, битикташ, Тонюкук, Культегин, Бильга-каган, Отукан, Марко Поло, Плано Карпини.

Key words: Mongolia, sartul, travel, nomad, bitiktash, TONYUQUQ, Kultegin, Bilga Khagan, Otukan, Marco Polo, Plano Carpini.

Mo‘g‘uliston Respublikasiga Urganch davlat universiteti va Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyati bo‘limi tashabbusi bilan 2023-yilning 12-19-oktabr kunlari amalga oshirgan ilmiy safarimizda o‘zimiz uchun ko‘plab yangiliklarni kashf qildik: O‘rxun-Enasoy bitiklaridan tortib mo‘g‘ul xalqining milliy an’analarigacha.

O‘n yetti yil Xubilayxon saroyida xizmat qilgan venetsiyalik sayyoh Marko Polo mo‘g‘ullarga shunday ta’rif beradi: “Ular boshqa xalqlarga qaraganda bir joydan boshqasiga ko‘p ko‘chib yuradilar. Buning sababi shuki, tatar kerak bo‘lsa, bir oy davomida hech qanday yeguliksiz yuradi; biya suti hamda o‘zi ovlaydigan qush eti bilan oziqlanadi; ot esa oldida uchragan maysadan yeb ketaveradi, o‘zi bilan arpa ham, somon ham olib yurishi shart emas. O‘z hukmdorlariga juda itoatkor, agar zarurat tug‘ilsa, tun bo‘yi otda qurollanib turadilar. Ular mehnat va qiyinchilikka boshqalardan ko‘ra chidamliroq, sarf-xarajatlari kam, yer yuzini va saltanatlarni zabt etishga eng loyiq odamlardir” [1].

12-oktabr, payshanba kuni Olmaotadan uchgan samolyot to‘rt soat “oqsoch” Tyanshan uzra parvoz qilgach, kechasi Mo‘g‘uliston poytaxtiga kelib qo‘ndi. Uch milliondan sal oshiqroq bo‘lgan Mo‘g‘uliston aholisining deyarli yarmini o‘ziga sig‘dirgan bo‘lsa-da, Ulan-Bator shahri sokinligi bilan odamni o‘ziga rom qilib qo‘yadi. Shaharda mamlakatning eng yirik va nufuzli oliygohi Mo‘g‘uliston milliy universiteti ham joylashgan bo‘lib, safarimizning birinchi va so‘nggi kuni shu yerda o‘tdi.

13-oktabr, juma kuni muhtasham mehmonxonaning o‘n to‘rtinchi qavatidan turib ko‘chmanchilar shahridagi birinchi kunni qarshi oldik. Gir atrofi tog‘ bilan qurshalgan Qizil-Botir shahrining tongi sekinlik bilan tog‘lar ortidan ko‘tarilayotgan quyoshning shaharga nur sochishi fonida nihoyatda go‘zal ko‘rinadi. Oktabr oyi bo‘lishiga qaramasdan, O‘zbekistondagi qish havosini eslatguvchi tashqaridagi sovuq bizga “sizlar Mo‘g‘ulistondasizlar” deyayotgandek edi, go‘yo.

Bu kun biz universitet kutubxonasi bilan tanishadigan bo‘ldik. Bizni doktor Anxbayar birga olib yurdi. Kutubxona yetti qavatli katta bir bino bo‘lib, u Stenford universiteti kutubxonasi andozalari asosida tashkil etilgan. Bag‘riga chamasi 500 mingta kitob fondi, noyob qo‘lyozmalar fondi va turli ilmiy markaz-u muzeylarni ham sig‘dirgan.

14-oktabr, shanba kuni azon bilan shahardan 66 km janubi-sharq tomonda joylashgan To‘nyuquq bitiktoshi sari yo‘lga tushdik. Biz u yerga yerli qadrdomimiz Serik og‘aning ko‘likida bordik. Serik Mo‘g‘ulistonning mahalliy qozoqlariga mansub bo‘lib, ularning bu yerdagi nufusi yuz mingdan oshiqroq. Tili asl qozoqcha. Bunday deyishimga sabab tiliga na rus, na arab-fors so‘zlari aralashgan. Yerlik qozoqlarning dini esa – islom. Bu yerda mo‘g‘ullar musulmon desa qozoqni, qozoq desa musulmonni tushunishadi.

Qadimdan turkiylarning makoni bo‘lgan O‘tukan vodiysida joylashgan To‘nyuquq yodgorligi ikkinchi Turk xoqonligiga (800-yilning birinchi yarmida) asos solgan Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkarda To‘nyuquq tilidan 712-716-yillarda toshga o‘yib yozilgan. Ikkinchi Turk xoqonligi barpo etilishiga o‘zining munosib ulushini qo‘shgan ulug‘ donishmand To‘nyuquq turkiy yozma adabiyotning eng birinchi namoyandasi bo‘lib, uning bitiklari vatansevarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan. Unda masalan mana bunday satrlar bor: “(turk xalqi) xonini qo‘yib, yana Tabg‘achga qo‘shildi. Tangri shunday degan shekilli: Xon berdim. Xoningni qo‘yib taslim bo‘lding. Taslim bo‘lgani uchun tangri “o‘l” degan shekilli. Turk xalqi o‘ldi, tugadi, yo‘q bo‘ldi” [4].

To‘nyuquq Tabg‘achda (Xitoy) tug‘ilib tarbiya topgan. Bolaligi to‘g‘risida muallif o‘z asarida shunday yozadi: “Bilga To‘nyuquq – ben. O‘zum Tabg‘ach elinga qilintim. Turk bo‘dun Tabg‘achqa ko‘rur erti” (Men Bilga To‘nyuquqman.

O‘zim Tabg‘ach yurtida tug‘ildim. Turk xalqi Tabg‘achga qaram edi). Tabg‘achning ish ta’limotlariga ko‘ra, turk o‘g‘lonlari bu yerda tarbiyalanib, o‘z yurtiga rahbarlik ishlariga jo‘natilar edi. Yosh To‘nyuquqqa ham shunday yo‘l tutildi. Lekin u otalar yurtiga kelib, Tabg‘achga xizmat qilish o‘rniga, milliy ozodlik harakatlariga qo‘shilib ketdi [7]. O‘rnak olsa, arziydi.

To‘nyuquq bitigi yonma-yon tiklangan ikkita toshga ko‘kturk yozuvida yozilgan. Yodnoma 62 satrli bo‘lib, uning 35 satri birinchi toshga, keyingi 27 satri esa ikkinchi toshga tepadan quyiga qarab bitilgan. Bitiktoshni Yelizaveta Klemens 1897-yilda Shimoliy Mo‘g‘uliston ekspeditsiyasiga turmush o‘rtog‘i Dmitriy Klemens bilan birga borganda topgan. Dastlab bitiktoshning nemischa tarjimai yuqoridagi voqeadan bir necha yillar o‘tib V.V. Radlov tomonidan nashr etilgan. Keyinchalik bu bitik ingliz, turk, rus kabi boshqa tillarga ham tarjima qilinadi [4].

Bu vodiylarning kengligi insonlar fe’liga ham ko‘chgan. Mo‘g‘ullar fe’li keng xalq. Bir hafta bu yerda yurib, asabiylashgan va hatto yuqori ovozda gapirgan bironta kimsani uchratmadik. Farzandi xarxasha qilib, to‘polon qilsa ham, urishish u yoqda tursin, rangi-atvori ham o‘zgarmas ekan mo‘g‘ullarning. Universitetda bo‘lgan paytimiz u yerda taxsil oladigan Altinbek otli qozoq yigit mo‘g‘ullarga ta’rif berar ekan, “mo‘g‘ullar juda keng bo‘ladi, bu ularning genida bor; o‘zbeklar va qozoqlar esa asabiyroq” desa bo‘ladimi. Buni qayerdan bilasan desam, “tik-tok”dagi videolardan deydi.

Mo‘g‘ullar o‘zligini saqlab qolgan va kelajakda ham saqlab qolishi uchun barcha sa’y-harakatlarni qilayotgan xalq. Garchi Sovet Ittifoqi davridan beri bu yerda kirill alifbosiga asoslangan mo‘g‘ul yozuvi amalda bo‘lsa ham, oxirgi paytlarda tarixiy mo‘g‘ul yozuviga qaytish harakatlari kuchli. Bu oddiy ko‘cha-ko‘yda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi: siyosiy tashkilotlar binolari (masalan, parlament) nomlari kirilcha bilan parallel ravishda tepadan quyiga qarab yo‘naladigan mo‘g‘ul yozuvida yoziladi. Qisqasi, qay yonga qarasangiz ham, ko‘zingiz birda bo‘lmasa, birda eski mo‘g‘ul yozuvida bitilgan yozuvlarga tushadi. Bundan tashqari, davlat ishida ishlaydiganlar uchun klassik mo‘g‘ul yozuvini bilish talabi bor, hatto bu yozuvni maktablarda ham kichik sinflardan boshlab o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Bizga universitetning San’at va fanlar fakulteti dekani Zayabaatar Dalai taqdim qilgan olimlik vizitkasining orqa tarafi ham to‘liq ko‘hna mo‘g‘ul yozuvida edi.

Xullas, To‘nyuquq safarini yakunlab bo‘lgach, kunchiqarga qarab 15 chaqirim yo‘l yurdik. Chingizxonning o‘sha mashhur otda turgan haykalini ko‘rish uchun. Haykalni ko‘rish niyatida dunyoning to‘rt tarafidan sayyohlar oqib kelar ekan. Bu yerda barcha qit’a vakillarini uchratsa bo‘ladi. Ot haykalining eng

yuqorisiga, ya'ni boshiga chiqqanda (liftida chiqiladi), u yerda polyaklarni uchratdim. Ular bilan mazza qilib rus tilida suhbatlashdim. Chunki biladigan xorijiy tilim shu bo'lib, Mo'g'ulistonda esa ruscha biladiganlar juda kamchilikni tashkil qiladi. Asosan, oz miqdordagi yoshi ulug'lar biladi, yoshlar esa inglizchaga o'tib ketishgan. Rus tilidan boshqasini bilmasang ham qiyin ekan, lekin buni o'zimizda his qilmaysan, rus tili doirasidan tashqaridagi mamlakatlarga chiqsang bilinadi.

Ulan-Batorga qaytaverishda yo'l bo'yidagi yaylovlarda o'tlab yurgan otlar, qo'y va mollarni ko'p uchratdik. Ularning tepasida – samoda esa qanotlarini keng yozgan burgut uchib yuradi. Hayvonlar tepasida yurgan bironta cho'pon yo'q. Mollar emin-erkin, istalgan yerida u yoqdan – bu yoqqa kechib, o'tlab yuradi. Bularing egasi yo'qmi, deb o'ylaysiz. Bu o'lka shunisi bilan ham mashhur-da: qoramol soni aholi sonidan bir necha o'n barobar ko'p. Italiyalik sayyoh Marko Polo ular haqida shunday yozadi: “xalqi chorvachilik bilan shug'ullanadi. Qoraqurumdan shimol tarafdagi xalqlarda bug'u ko'p; bug'ularda yuradilar” [1]. Plano Karpini ham ularning asosiy yumushi chorvachilik ekanligini yoza turib, “mo'g'ullarda go'shtdan boshqa hech narsa yo'q”, deydi [3]. Bu yerlarga 1870-yillarda kelgan rus sayyohi, geograf Nikolay Prjevalskiy esa mo'g'ullar haqida quyidagi ma'lumotlarni qoldirgan: “ularning yagona mashg'uloti chorvachilikdir. Ishlab chiqarish juda zaif bo'lib, u faqat uy-ro'zg'or ishlarida zarur bo'lgan ba'zi buyumlarni yasash bilan cheklanadi, masalan: teri, kigiz, egar, kamon va h.k. Boshqa maxsulotlar va kiyim-kechaklarni xitoyliklardan, juda oz miqdorda rus savdogarlaridan olishadi” [6]

Chindan ham, sal mubolag'a bilan aytganda, mo'g'ullar mol-qo'y etidan boshqa hech narsa yemaydilar. Hatto ularda non yo'q, ya'ni non yeyishmaydi. Mo'g'ullarda non yo'qligi haqida bu yerga kim kelgan bo'lsa, hammasi birdek shuni yozgan. Marko Polo ham, Karpini ham. Non (buxanka) Mo'g'ulistonga keyinchalik ruslar tomonidan olib kelingan.

15-oktyabr, yakshanba. Serik og'aning ko'likida g'ira-shira qorong'uda “Kultegin-u Bilga xoqon, qayerdasan” deb yo'lga otlandik. O'rxun daryosi bo'yida bir-biriga yaqin yerda joylashgan bu bitiklar tengdosh bo'lib, chamasi 730-yillarda toshga o'yib bitilgan. Kultegin bilan Bilga xoqon og'a-ini bo'lib, ular Eltarish xoqonning farzandlari bo'lgan.

Kultegin bitigi ushbu ajoyib jumlar bilan boshlanadi: “Tangridek tangridan bo'lmish turk bilga xoqon bu dunyoga keldim. So'zimni tugal eshitgil keyinimdagi ini, jiyanim, o'g'il (lar)im, ittifoq, urug'im, xalqim...”. Asl holatida quyidagicha o'qiladi: “Tengri teg, tengrida bolmış turuk bilge kag'an bu odke olurtum, sabым tuketi eshidгыl: ulayu ini yigunum, og'lanым, biriki og'ushum bodunum” [4]. O'zbek tiliga qanchalik o'xshashligini qarang.

Kultegin va Bilga xoqon bitiktoshlari boshqa barcha turk-runiy yodnomalari kabi o‘z ildizini ulug‘ va muqaddas sanaydigan insonni chuqur o‘yga toldiradi. Zamonaviy dunyodagi og‘riq-u hasratlar ming yillar avval ham bo‘lgan, u turk xoqonlari, uning donishmand vazirlari va sarkardalarini qiynagan, o‘ylantirgan. “Oltin, kumush, ichkilik, ipakni shuncha hisobsiz berayotgan Tabg‘ach xalqi so‘zi shirin, ipaki nafis ekan. Shirin so‘zi, ipaki bilan aldab yiroq xalqni shu xilda yaqinlashtirar ekan”, deya hasrat qilib Kultegin, xalqini bunga aldanmaslikka chaqiradi va turkiylarning birovlarining shirin so‘zlariga darrov ishonib ketish odatidan yozg‘iradi [4].



Mo‘g‘ulistondagi navbatdagi hayratimiz Qoraqurum yo‘lida sodir bo‘ldi. Mashinaga yonilg‘i quyish uchun yaylovdagi benzokolonkada to‘xtadik. Qani ko‘raylikchi, shu yerda ham xalqaro karta ishlarmikan, deb sinab ko‘rmoqchi bo‘ldim. Keraklicha yonilg‘i quyib bo‘lgach, benzin pulini to‘lash uchun xodimga viza kartani uzatdim. To‘lasa bo‘larkan. Qoyil. Kimsasiz dashtning o‘rtasida. Chindan ham Mongoliya ko‘p narsalarda ilgarilab ketibdi.

Bitiktoshlar oldida o‘z suhbatlarini yozdirib olishgach, guruhimiz safardan ko‘zlagan (Bekzod og‘aning g‘oyasi bo‘lgan) asosiy maqsadlaridan birini amalga oshirishga kirishdi. O‘rxun daryosi bo‘ylaridan turib xalqimizni “O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 34 yilligi” bilan tabriklash uchun Vatanimiz bayrog‘ini ko‘targan holda “O‘zbekim” qasidasi bilan xalqimizga tabrik yo‘lladik. “So‘ylasin Afrosiyob-u, so‘ylasin O‘rxun xati, ko‘hna tarix shodasida bitta marjon, O‘zbekim!” Shundan so‘ng oshoqqa tushib O‘rxun suvidan

hovuchlab suv ichdik. Suvini tiniq, toza va totli ekan. Avvallari nomini faqat kitoblarda o‘qiganimiz bu afsonaviy irmoqning o‘zini ko‘rish, shildirab oqayotgan muzdek suvidan to‘yib suv ichish kishiga huzur ham halovat beradi. O‘rxun vodiysi bizga bir umrga esda qoladigan xotiralarni berdi.



O‘rxun o‘zanidan so‘ng tepaga ko‘tarilib, to‘rt tomoni tog‘lar bilan qurshalgan Xorxorum (Qoraqurum) qal‘asiga kirdik. O‘rxun o‘zanining sog‘ qirg‘og‘ida joylashgan shaharga 1220-yilda asos solingan bo‘lib, u mo‘g‘ullar davlatining boshkenti bo‘lgan. Tagidan o‘sha paytlari to‘lib-toshib oqqan irmoq o‘tgan tog‘lar bilan qurshalgan va tabiiy mudofaaga ega bo‘lgan Qoraqurum shahrini Chingizxon bekorga poytaxt sifatida tanlamagan ekan. XIII asr o‘rtalarida xon Munke qabulida bo‘lgan fransuz sayyohi Gilyom de Rubruk Qoraqurumni paxsa devor bilan aylantirib o‘rab olingan, to‘rt tarafida darvozalari bor bo‘lgan shahar sifatida ta’riflaydi [3].

Mo‘g‘ul xarakteriga to‘xtalsam. XIX asr rus sayyohi Prjevalskiy mo‘g‘ul xalqining tabiati to‘g‘risida ajoyib ma’lumotlarni yozadi: “chorvalariga g‘amxo‘rlik qilish mo‘g‘ullarning yagona tashvishidir, ammo bu ish qattiq mehnat talab qilmaydi. Tuyalar va otlar dashtda qarovsiz sarson-sargardon yurib, faqat yozda kuniga bir marta quduqqa kelib suv ichadi” [6]. Mo‘g‘ullarda (yeyishga) go‘shtdan boshqa deyarli hech narsa yo‘q, deb o‘rta asrlar Yevropa sayyohlaridan iqtibos keltirganimizdek, chindan-da, ularda chorvaga tegishli narsalardan boshqa ko‘p narsa yo‘q. Vatanga qaytishda Mo‘g‘ulistonning o‘ziniki bo‘lsa kerak deb, chiroyli shisha idishda turgan bol sotib olib, uyga keltirsam,

orqa tarafida kichik harflar bilan “Germaniyaniki” deb yozib qo‘yibdi. Shunday, ko‘chmanchilar mamlakatiga deyarli hamma narsa tashqaridan olib kelinadi.



Prjevalskiy so‘zini davom ettirarkan, “mo‘g‘ul ko‘chmanchisining ajralib turadigan xislati – dangasalik”, deya, buning sababini – “cho‘ponlik hayoti sharoitlari sababli”, deb izohlaydi. Plano Karpini esa “erkaklari asosan o‘q otish bilan shug‘ullanadi, shuningdek, chorva uchun biroz g‘amxo‘rlik qiladi; ov ham qiladilar va kamondan o‘q otish bilan shug‘ullanadilar”, – deb yozadi [3].

Bundan tashqari, hozirgilarda avvalgi mo‘g‘ullardagidek shijoat yo‘q. “Bu ham ko‘chmanchining o‘ziga xos xususiyatidir. Hatto xalxalarning o‘zlari ham Chingiz va Ugedey davridagi ajdodlariga o‘xshamaydi. Deyarli ikki asr davomida Xitoyning zulmi ostida bo‘lgan ko‘chmanchilarning jangovar kayfiyati maqsadli ravishda bo‘shashtirilib, buning natijasida haqiqiy mo‘g‘ullar o‘zlarining avvalgi shijoati va botirligini butunlay yo‘qotdilar”, – deb yozadi Markaziy Osiyoga bir necha marotaba sayohat qilgan rus geografi Prjevalskiy [6].

Chingizxon asos solgan Mo‘g‘ul imperiyasi bir necha davlatlarga bo‘linib ketgach, mo‘g‘ul xalqi boshida tarix charxpalagi quyidagicha aylangan. Chingizxonning nevarasi Xubilay hukmronlik ostiga Xitoyni ham qamrab olgan Yuan sulolasiga asos solgach, mo‘g‘ullar Chin mamlakatini 1368-yilgacha o‘z qo‘l ostida ushlab turadilar. Shundan so‘ng ko‘chmanchilarning hokimiyati faqat o‘z yurti chegaralari bilan cheklanib, davlatlari “Mo‘g‘ul ulusi” deb ataladigan bo‘ldi. XIV asrdan to XVII asrgacha bo‘lgan davrdagi mo‘g‘ullar tarixi ulusning bir necha mayda davlatlarga bo‘linib ketishi va ichki boshboshdoqlik kayfiyati

bilan ajralib turadi. Bu vaqtga kelib, Mo‘g‘ulistonning o‘zbek xonliklariga yaqin bo‘lgasi – g‘arbiy hududida markazlashgan Jung‘or (Oyrat) xonligiga asos solinadi va bu oyratlar O‘zbekiston hududiga ham o‘z harbiy yurishlarini uyushtirib, xalqlarni talon-toroj qilib turgan. XVII asrning oxirlaridan to 1911-yilgacha Xitoyning Sin imperiyasi tarkibida bo‘lgan mo‘g‘ullarning tarixi tamoman o‘zgarib ketadi. Chinakam tobelik davri boshlanadi. Pekin mo‘g‘ul tuproqlari birligini buzib yubordi: Gobi sahrosi Ichki Mo‘g‘uliston va Tashqi Mo‘g‘uliston orasidagi chegara etib belgilandi. Manjurlarning bosimi kuchaydi. Ammo ko‘chmanchilar orasida vaqti-vaqti bilan Xitoyga qarshi qaratilgan milliy



ozodlik harakatlari ham bo‘lib turgan.

Mo‘g‘ullarning yana bir xislati borki, buning uchun ularni hurmat qilmasdan bo‘lmaydi. Mo‘g‘ullar nihoyatda sodda odamlar. Yolg‘onni bilmaydi. O‘z-o‘zidan ularda ayyorlik ham yo‘q. Boshqa ko‘chmanchilar kabi to‘g‘riso‘z, to‘g‘ri insonlar. Mo‘g‘ul restoraniga kirib, bu yerda yemaklar halolmi yoki aksimi, deb so‘rasangiz, xizmatchilarning ochiqchasiga “ovqatlarimiz halol emas” deb yumshoqqina javob qaytarishiga hayron qolasiz. To‘g‘riso‘z bo‘lsa, u odamni kim bo‘lishidan qat’iy nazar, hurmat qilmay bo‘ladimi?!

“Oddiy mo‘g‘ullar ko‘pincha mehribon, soddadil odamlar”, deb yozadi rus geografi [6]. “Ularda bir-biriga hasad qilish odati yo‘q; imkoni boricha birovga yordam beradi va qo‘llab-quvvatlaydi. Ular o‘rtasida kelishmovchiliklar kamdan kam hollarda yoki hech qachon yuzaga kelmaydi, haddan tashqari mastlik darajasiga yetsalar ham, hech qachon janjalga kirishmaydi”, – deya qayd qiladi italiyalik sayyoh Karpini [3].

Chindan ham, ular ko‘makka muhtoj odamga darrov yordam berish uchun shoshiladilar. Ayniqsa, mehmonligingizni bilishsa, to‘la-to‘kis, oxirigacha, beminnat yordam beradi. Guruhimiz a‘zolarining deyarli har biri bilan shunga o‘xshash hodisalar ro‘y berdi. Hammamiz qo‘noqxonadagi oqshomgi gurunlarimizda mo‘g‘ullarning sodda, kamtarligi va qo‘lidan kelgancha oxirigacha yordam berishi to‘g‘risida suhbatlashib, boshimizdan kechirgan voqealarni aytib o‘tirardik. Soddadillik o‘zi ko‘chmanchilarga xos odat.

Sayohatchiga yaqqol ko‘zga tashlanadigan mo‘g‘ullarning odatlaridan yana biri ulardagi vaqt tushunchasidir. Agar oddiy hayotdagi mo‘g‘ullarning o‘zini oladigan bo‘lsak, ularda vaqt birligi – kun. Soat, daqiqa tushunchasi yo‘q. Masalan, ko‘chmanchi bilan uchrashish vaqtini ma‘lum bir kundagi soatga belgilasangiz, u o‘sha kuni belgilangan vaqtdan ikki soatcha o‘tib keladi. Bu kechikish deb qabul qilinmaydi, chunki u belgilangan kunda keldi. Tushunmagan odam buni noto‘g‘ri qabul qilishi mumkin. Ammo asosiy turmush tarzi chorvachilik bo‘lgan ko‘chmanchilar uchun bu normal holatdir. Lekin shaharlarda rasmiy uchrashuvlar o‘z vaqtida boshlanadi. Masalan, ilmiy anjumanimiz soat 13:00 ga belgilangan bo‘lsa, u o‘z vaqtida boshlandi.



Kamina anjumanda chiqish qilgan mavzu Mahmud az-Zamaxshariyning “Muqaddimat al-adab” lug‘ati to‘g‘risida bo‘ldi. Tengsiz tilshunos Zamaxshariyning o‘zi tomonidan tuzilgan ushbu lug‘at avvalboshda faqat arab va fors tillarini o‘ziga qamrab olgan. Ko‘p o‘tmay bu lug‘atga turkiy (eski o‘zbek) til ham qo‘shiladi. 1492-yilga kelib esa lug‘at Buxoroda mo‘g‘ul tiliga ham

tarjima qilingach, oxir-oqibat “Muqaddimat al-adab” to‘rt tillik lug‘atga aylanadi. Arab-fors-o‘zbek-mo‘g‘ul tillari.

Rus tilida nashr qilingan “Muqaddimat al-adab”ning mo‘g‘ulcha tarjimasini ikki tilli (chig‘atoy va mo‘g‘ul) lug‘at qilib chop etilgan. Lug‘atning mo‘g‘ulcha tarjimasidagi til o‘rta mo‘g‘ul tili bo‘lib, u Movarounnahrda XIV-XV asrlarda muomalada bo‘lgan. E’tiborli tarafi shundaki, lug‘atdagi so‘zlarning bir-biriga yaqinligi o‘rta asrlarda o‘zbek va mo‘g‘ul tillari o‘rtasida biroz bo‘lsa-da o‘xshashlik bo‘lganini ko‘rsatadi.

Misol uchun: obo (mo‘g‘ulcha) – ov (chig‘atoy turkchasi); aldaba – aldadi; altan – oltin; anoq – vazir (inoq); badur – bahadur; beye – bo‘y (tana); bug‘doy – bug‘doy; chayon – chayon; el – kishi; erta – erta; gul – gul; qaro – qora; tuyuq – qo‘shuq; unonliq – rostliq (haqiqat); unoyon – inak (sigir); vasvasa – vasvasa; xontu – xonliq; yoro – yora (yara); yashin – yashin; yosun – sungak (suyak); iyd – bayram; no‘xta – no‘xta; no‘vkar – yor (do‘st) va b.q. [8].

18-oktabr, chorshanba. Mana uzoq intiqib kutilgan kun ham keldi. Mo‘g‘uliston milliy universitetida “Mo‘g‘ul va Xorazm davlati o‘rtasidagi aloqalar tarixi” mavzusida ilmiy anjuman tashkil etildi. Konferensiya tili qilib ingliz, turk va ozorbayjon tillari tanlandi. Anxbayar Danuu anjumanda tilmochlik qilib turishini inobatga olib, Anvar Bo‘ronov va men ozorbayjoncha, boshqalar ingliz va turk tillarida ma’ruza qildilar.

Tadbirning boshidan oxirigacha Anxbayarning o‘zi turdi. Har bir so‘zchiga ajratilgan har 30 daqiqalik ma’ruzadan keyin, sahnaga chiqib tinglovchilar uchun taqdimotlarni boshidan oxirigacha o‘zi tarjima qilib turdi. Bizning so‘zlarimizni mo‘g‘ul tiliga, mo‘g‘ullarnikini turkiy tilga.

Xullas, tadbir boshlandi. Uni Mo‘g‘uliston milliy universiteti rektori professor D.Badarch ochib berdi. Bu kishi bir paytlar Toshkentda YUNESKOning O‘zbekistondagi elchisi sifatida ishlagan. Yurtimiz madaniyati, odat-u an‘analari haqida iliq gaplarni aytdi. O‘zi ham kamtar inson ekan, boshida har birimiz bilan yonimizga kelib, qo‘l berib ko‘rishib chiqdi.

Konferensiyada mo‘g‘ul tarixchilari tomonidan quyidagi mavzular ko‘tarib chiqildi: “Mo‘g‘ul manbalaridagi Xorazm tarixiga oid ma’lumotlar”, “Yuan shi” manbasidagi Mo‘g‘ul va Xorazm aloqalariga oid ma’lumotlar”, “Chingizxonning Xorazmga yurishi haqida” va “Mo‘g‘ullarning islom diniga kirishida xorazmliklarning o‘rni”.

Biz tarafdin esa quyidagi chiqishlar bo‘ldi. Mamlakat Jumaniyazova – “Xorazmda shamanlik elementlari”, Anvar Bo‘ronov – “Mo‘g‘ul tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashmalar”, Bekzod Abdirimov – “Chingizxonning Turkiston yurishida asir olinganlar haqidagi ba’zi mulohazalar”, Mardon Hasanov – “Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat al-adab” lug‘ati mo‘g‘ulcha qismining o‘ziga xos

xususiyatlari”, G‘ulomjon Atajanov – “O‘zbekiston tarixi va madaniyatiga oid ba’zi masalalar”, Shoxruhmirzo Ismoilov – “Oltin O‘rda davlati davrida Xorazm shaharlari”.

Mo‘g‘ul tarixchilari ichida doktor A.Enhbat ma‘ruzasi ajoyib va kutilmagan bo‘ldi. U ko‘tarib chiqqan mavzuning (“Mo‘g‘ullarning islom diniga kirishda xorazmliklarning o‘rni”) ajibligiga xissa qo‘shgan qo‘shimcha omil taqdimotning o‘zbek tilida yozilganligi bo‘ldi. Chingizxon avlodi bo‘lmish mo‘g‘ul tarixchisi o‘zbek tilida chiqish qilib tursa – odamga boshqacha ta’sir qilarkan. O‘lis yurtidan kelgan mehmonlarga, O‘zbekistonga hurmat edi bu. Bu inson bilan birinchi bor ko‘rishganda salomlashish uchun qo‘l uzatib, bilmasdan o‘zbekcha “assalomu alaykum” deb yuborganimda, janob Enhbat shu zahoti “valaykum assalom” deb javob qaytarganida, o‘shanda bu insonga hurmatim oshgandi.

O‘zbek va mo‘g‘ul tarixchilarining ilk uchrashuvi yuksak kayfiyatda o‘tdi. Yakunida Mo‘g‘uliston milliy universiteti va Urganch davlat universiteti o‘rtalarida shu kabi ilmiy anjumanlarni o‘tkazib turish bo‘yicha ikki tomonlama memorandum imzolandi. Shunday qilib, konferensiya ham tugadi va so‘nggi so‘zni doktor Anxbayar Danuu aytdi:



“Ko‘pchilik mo‘g‘ul va o‘zbek xalqi aloqalari deganda, buni faqat Xorazm davlati tomonidan tushunishadi. Lekin ikki xalq o‘rtasidagi tarixni jo‘g‘rofik nuqtayi nazardan olib qaraganda xunlar, yuyechjilar, kushonlar va Buyuk ipak yo‘li tarixi kabi ko‘p tutashgan nuqtalarimiz bor. So‘nggi 30 yilda O‘zbekiston va

Mo'g'uliston o'rtasidagi munosabatlar juda zaif nuqtaga kelib qoldi. Biroz siyosiy, biroz iqtisodiy aloqalarimiz bor, ammo eng muhimi bo'lgan madaniy aloqalarimiz hanuzgacha juda oz, boshlang'ich saviyada. Shuning uchun bo'shliqni to'ldirish uchun mana shunday ilmiy uchrashuv o'tkazdik. Bu o'zbek-mo'g'ul ilm odamlari bir yerga kelgan ilk uchrashuvdir.

O'zbek tilining boshlang'ichi bo'lgan o'rxun yozuvlari Mo'g'ulistonda turibdi. O'zbek tili bayramida O'rxun vodiysidan turib o'zbek xalqiga yuborilgan tabriklarni biz mamnuniyat bilan qarshilaymiz. Shuningdek, o'zbek xalqlarining qarindoshlari bo'lgan sartul urug'i bir necha yuz yillardan beri bu yerda yashab kelmoqda. Bundan tashqari, ikki-uch asrlar oldin Mo'g'ulistonga kelgan o'zbeklarni biz chantu deymiz. Ular bizning Oltoy bo'lgamizda yashaydi. Chantular Oltoy hududiga, mo'g'ullarga dehqonchilikni o'rgatgan millat (shu yerini juda katta hurmat bilan quvonib aytadi). Oltoyga chantular tarvuz, qovun, uzum kabi mevalarni olib kelgan.

Ayni zamonda mo'g'ul tarixining asarlari O'zbekistonda bor. Chig'atoy ulusi bo'lsin, Jo'ji ulusi bo'lsin, bu ikki ulusning qimmatli asarlari, durdonalari shu on O'zbekistonda. Ular ichida eng buyugi Qarshi shahridir. Chig'atoy ulusi davrida chig'atoylarning poytaxti o'laroq qurilgan. Qarshi mo'g'ul tilida saroy demakdir. Mo'g'ulcha nomini hozirgacha saqlab qolgan. Chig'atoylardan qolgan ko'p asarlar bor. Masalan, Buxorodagi chig'atoy xoni Bayonqulixon maqbarasi. Mo'g'ul tarixining eng muhim asarlaridan bo'lgan Rashididdinning "Jome at-tavorix" qo'lyozmasi bugun Toshkentda muhofaza qilinmoqda. Shundan kelib chiqib aytganda, biz ko'p soha (o'nam)larda hamkorlik qilishimiz lozim.

Tarix va til sohasida amalga oshirish lozim bo'lgan ko'p ish birliklarimiz bor. Hali ikki mamlakat o'rtasida elchixonalar ochiladigan kun ham keladi. Bu borada biz tarixchilar, ilm odamlari bir bo'lib hamkorlik qilishimiz uchun salohiyatimiz yetarli. Shunday ekan, o'zbek xalqiga, o'zbek olimlariga-da shunday chaqiriq bilan chiqamiz: keling, hamkorlik qilamiz, keling, ish birligi yopamiz. Mavlono Rumi aytganidek, "keling do'stlar, keling, birga bo'laylik, keling, tanishaylik, bir-birimizni angalaylik".

Ibtidoning intihosi bo'lgani kabi, bizning Mo'g'ulistondagi safarimiz ham yakuniga yetdi. O'zining poyoni yo'q kengliklari, ko'z quvnatar tabiati, sodda va samimiy odamlari bilan yuragimizga o'rinish qolgan Mo'g'uliston bilan xayrlashar ekanmiz, bu tuproqlarga yana bir marta qaytib kelishimizga ishonamiz. Hali biz Mo'g'ulistonga yana boramiz. Qarindoshlarimiz chantularni ko'rish uchun ham. Tariximiz naqadar buyuk. U butun Osiyoga sochilib yotibdi.

Sayohatga oshiq bo'lmoq kerak. Yo'lchilik kishini botir va jasur bo'lishga o'rgatadi; u qalbdagi qo'rquvlarni parchalab tashlaydi. Bu, eng avvalo, tarixchi uchun kerak. Safar qila turib, inson o'zini o'tmishdagi olis yo'lga chiqqan

sayyohlar kabi his qiladi, xayolan ularning yonida o‘zini ham tassavvur qiladi. Sayohatda kishi uzoq vaqtlardan beri izlab yurgan o‘zini, o‘zligini topadi. “Insonlar sayohatni emas, balki sayohat insonlarni yaratadi”, – deb aytganda naqadar haqli edi amerikalik yozuvchi Jon Steynbek. Yana bir amerikalik teatr aktyori Endryu Makkarti esa, “na qadar uzoqqa ketsam, o‘zimga shu qadar yaqinlashaman”, degandi. Darhaqiqat, sayyohlarning millati bo‘lmaydi, hammasi bir xil fikrlaydi, dunyoni bir xil ko‘radi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Книга Марко Поло. Под ред. С.Н. Кумкеса. Москва, 1956. С. 90.
2. Очирова Г.Н. Свадебный обряд сартулов Монголии и Бурятии // Традиционная культура народов Центральной Азии. Новосибирск, 1986. С. 159-164
3. <https://www.hist.msu.ru/ER/Etext/carpini.html>
4. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент, 1982. Б. 65-89
5. <https://www.vostlit.info/Texts/rus16/Fadlan/text2.phtml>
6. Пржевалский Н. «Монголия и страна Тангутов». СПб., 1875. С. 40-49
7. Sodiqov Q. Bilga To‘nyuquq bitigi // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2012-yil, 2-son
8. Поппе Н.Н. Монгольский словарь Мукаддимат ал-адаб. М.-Л., 1938.

FILOLOGIYA**XORIJIY TILLAR VA IJTIMOIIY FANLARNI O‘QITISHDA
TALABLARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH**

**Ugiljon
AXMEDOVA**

**Urganch innovatsion
universiteti
o‘qituvchisi**

UO‘K 570.511

***Annotatsiya:** maqolada talabalarni o‘zgarib turadigan jamiyatga tayyorlash jarayonida ulardagi til egallash ko‘nikmalari, bilim va tafakkur, shuningdek kreativlikni rivojlantirish imkoniyatlari taqdim etilgan. Yangi va original asarlar yaratish imkoniyatlarini ijodiy muloqot qilish imkoniyatlari bilan birlashtirish talabalarning nafaqat chet tillarini o‘rganishga, balki tarix va ijtimoiy fanlarga bo‘lgan qiziqishini ham uyg‘otadi.*

***Аннотация:** в статье представлены возможности развития значимых навыков, знаний и мышления, которые готовят студентов к постоянно меняющемуся обществу. Считается, что сочетание возможностей создания новых или оригинальных работ с возможностями творческого общения повысит вовлеченность и интерес учащихся не только к изучению иностранных языков, но и к урокам истории и обществознания.*

***Annotation:** the article presents the opportunities to develop meaningful skills, knowledge, and mindsets that prepare students for an ever-changing society. It is believed that combining opportunities to produce new or original works with opportunities to creatively communicate will propel student engagement and interest, not only in learning foreign languages but across history and social studies classes.*

***Kalit so‘zlar:** ijodkorlik, ta’lim texnologiyasi, dizayn, shakllantirish, individual, ramka, namoyish qilish.*

***Ключевые слова:** творчество, образовательная технология, проектирование, постановка, личность, рамки, демонстрация.*

***Key words:** creativity, educational technology, design, formulation, individual, framework, demonstrate.*


Ijodkorlikni odamlarga, vaziyatlarga va muammolarga yangi yondashuvlarni keltirib chiqaradigan fikrlash va harakat qilish deb ta’riflash mumkin. Naiman (2014) ijodkorlikni “yangi va xayoliy g‘oyalarni haqiqatga aylantirish harakati” deb ta’riflaydi...

U ikkita jarayonni o‘z ichiga oladi: fikrlash va ishlab chiqarish. Yangi g‘oyalar va fikrlash usullarini shakllantirish va fikrlarni ijodiy ifodalash qobiliyati

ijtimoiy sohalarda yuqori baholanadi va talabalar uchun asosiy milliy ta'lim texnologiyasi standartidir.

“Yaratish” atamasi Blum taksonomiyasining yangi qismi bo‘lib, birinchi marta 1956-yilda taklif qilingan fikrlash ko‘nikmalarining asosli formulasidir [1;89]. Tafakkurning turli shakllarini farqlashga intilib, Blum bir guruh ko‘nikmalarni (bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash) pastki tartibdan yuqori darajali fikrlashga ko‘tarilgan piramida shaklida taqdim etgan.

1-diagramma



Taksonomiya 2001-yilda qayta ko‘rib chiqilgan bo‘lib, piramida shakli saqlanib qolgan, lekin statik otlar harakatga yo‘naltirilgan fe‘llar bilan almashtirilgan (eslab qolish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va tuzilmaning yuqori qismida yaratish). O‘qituvchilar Blum taksonomiyasi doirasida turli fikrlash qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun interaktiv raqamli texnologiyalardan foydalanish; masalan, ijtimoiy xatcho‘plar podkastni eslab qolishga yordam berishini ta’kidlashadi [5; 89].

Taksonomiyaning yuqori qismida yaratuvchanlik va ijodkorlik joylashgan bo‘lib, o‘quvchi ijodiy ifoda orqali “o‘rgangan, tahlil qilgan va baholagan narsalarini qo‘llash orqali to‘liq bilimni namoyish etishi hamda moddiy yoki kontseptual narsalarni yaratishi”ni anglatadi. O‘qituvchilar va talabalar uchun masofaviy ta’lim faoliyatini rivojlantirish bizni Blum taksonomiyasi doirasida avval “yaratish” deb hisoblagan faoliyatimizni qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi [2;96].

Masalan, talabalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida raqamli plakat yaratishi yoki podkast yozishi Blum taksonomiyasining eng yuqori pog‘onasidagi ijodiy faoliyatdir, deb taxmin qildik. Biroq bu chuqurroq fikrlash uchun yaratish bilan bir xil emas. Talabalar tomonidan tayyorlangan afisha yoki podkast asosan boshqa manbalardan olingan ma’lumotlarning namoyishidir. Talabalar yangi bilimlarni ishlab chiqish, g‘oyalarni sintez qilish, bashorat qilish, ma’lumotlarni baholash, o‘quv materiali va joriy hayot o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish uchun chuqurroq o‘rganish uchun dizayn imkoniyatlariga muhtojdirlar.

Ijtimoiy fanlarda chuqurroq fikrlashni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘llanma sifatida ijodkorlikdan foydalangan holda, talabalar birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida raqamli plakat yaratishi yoki podkast yozishlari va u orqali bugungi hayot qanday bo‘lishini raqamli tasvirlarini yaratishlari kerak. Quyida talabalarga topshiriq sifatida berilgan bir nechta loyiha ishlarining misollarini taklif qilamiz. Bizning dastlabki qoramalarimizda Blum taksonomiyasi turidagi faoliyatga qo‘shilgan ijodiy muloqot-ijodkorlik mavjud bo‘lib, qayta ko‘rib chiqishlar talabalarning yuqori darajadagi fikrlash va dizayn topshiriqlarini bajarish orqali chuqurroq o‘rganish uchun ijodkorlikka urg‘u beradi.

Blum taksonomiyasi bo‘yicha tavsiya etiladigan loyiha ishlari:

- **dastlabki loyiha:** hukumatning nazorat va muvozanat vakolatlari bo‘yicha eskizni ishlab chiqish.

- **qayta ko‘rib chiqish:** ijtimoiy mavzuni tanlang (masalan, iqlim o‘zgarishi, global isish, mamlakat iqtisodiyoti) va hukumatning har bir bo‘limi ushbu mavzu bo‘yicha qaror qabul qilishda qanday rol o‘ynashi kerakligini ko‘rsatuvchi eskiz yarating)

- **dastlabki loyiha:** mamlakat rivojlanishining taqvimiy jadvalini tuzing.

- **qayta ko‘rib chiqish:** O‘zbekistonda 1991-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan yillar haqida hikoya yoki film ssenariysini yozing.

- **dastlabki loyiha:** hukumatda ishlagan ayollar tarixini yozing.

- **qayta ko‘rib chiqish:** deputatlikka nomzod bo‘lgan ayollardan biri bosh vazir bo‘lib saylanganda hayot qanday bo‘lardi, degan risola yozing.

Demak, talabalar ularni doimo o'zgarib borayotgan jamiyatga tayyorlaydigan mazmunli ko'nikmalar, bilimlar va tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlarini orzu qilishlari loyiha ishlarini bajarish orqali ma'lum bo'ldi. Ishonamizki, yaratish imkoniyatlarini (masalan, "yangi yoki original asarlar yaratish") ijodiy muloqot qilish imkoniyatlari bilan birlashtirish nafaqat xorijiy tillar yoki ijtimoiy fanlar darslarida, balki butun o'quv dasturida o'quvchilarning faolligi va qiziqishini uyg'otadi. O'quv faoliyatini ijodkorlik bilan boshlash talabalarga o'quv rejasi mavzularini loyihalash, ixtiro qilish, tuzish, qayta ishlash, bashorat qilish va tekshirish uchun ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi va bu masofaviy ta'lim davrida va undan tashqarida Blum taksonomiyasini yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Beghetto, R. A., & Kaufman, J. C (2007). Toward a broader conception of creativity: A case for mini-c creativity. *Psychology of Aesthetics, Creativity and the Arts*, 1, 73-79
2. Budd Rowe, M. (1986). Slowing down may be a way of speeding up! *Journal of Teacher Education*, 37, p. 43.
3. Buzan, T. (1986). *Use Your Memory: Understand Your Mind to Improve Your Memory and Mental Power*. UK: Pearson.
4. Claxton, G. (2006). Thinking at the edge: developing soft creativity. *Cambridge Journal of Education*, 36(3), pp. 351 –362.
5. The assessment of Creative Learning. In: J. Sefton-Green,ed., *Creative Learning*. [pdf] UK: Arts Council England. Available at: <https://www.sussex.ac.uk/webteam/gateway/file.php?name=creative-learning-sept-2008&site=45> [Accessed November 2016].
6. Ferrari, A., Cachia, C. & Punie, Y. (2009). Innovation and creativity in education and training in the EU member states: Fostering creative learning and supporting innovative teaching. European Commission Joint Research Centre.

FILOLOGIYA**AVAZ O‘TAR IJODIDAGI JADIDCHILIK G‘OYALARI****UO‘K 40.220**

Annotatsiya: ushbu maqolada ma’rifatparvar shoir Avaz O‘tarning hayoti va ijodiy faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, shoir ijodidagi jadidlar g‘oyalari aks ettirilgan jihatlar yoritib berilgan.

Аннотация: в статье анализируется жизнь и творческая деятельность просвещенного поэта Аваза Утара. Также выделены аспекты творчества поэта, отражающие современные идеи.

Annotation: This article analyzes the life and creative activity of enlightened poet Avaz O‘tar. Also, aspects of the poet's work reflecting modern ideas are highlighted.

Kalit so‘zlar: Xorazm, Boku, Qrim, jadidlar, maktab, islohotlar, hurriyat, til, vatan.

Ключевые слова: Хорезм, Баку, Крым, прошлое, школа, реформы, свобода, язык, Родина.

Key words: Khorezm, Baku, Crimea, the past, school, reforms, freedom, language, homeland.

Sayyora
SAMANDAROVA
Filologiya fanlari
nomzodi, dotsent.



Umid
BEKMUHAMMAD
Tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori

Asarlarida jadidchilik g‘oyalari aks etgan va doimiy ravishda Xorazm jadidlarini qo‘llab-quvvatlagan shoir Avaz O‘tar bo‘lib, 1889-yilda Xivada tug‘ilgandi. Avazning otasi Polvonniyoz Gadoniyoz o‘g‘lining ajdodlari, xususan, otasi xon saroyida o‘tar lavozimida faoliyat ko‘rsatgan va o‘z davrining mashhur ijodkorlaridan Ogahiy, Komil Xorazmiy, Bayoniylar bilan do‘st tutingan. Shu bois Avazda ham bolaligidan ilmga, adabiyotga havas ruhi erta uyg‘onadi.

“Til, hurriyat haqidagi asarlari bilan adabiyotda o‘ziga xos o‘rin egallagan Avaz sulola nomidagi O‘tar so‘zini o‘ziga taxallus qilib tanlagan edi. Tarixdan ma’lumki, O‘tar Xiva xonlarining xos sartaroshi bo‘lib, hukmdor va shahzodalarning soch-soqolini olgan, o‘g‘il bolalarni sunnat qilgan hamda shu faoliyati uchun xazinadan maosh olgan.

Avaz dastlab Xivadagi eski maktabda, keyin esa Madaminxon madrasasida tahsil oladi. Otasi va uning ijodkor do‘stlari ta‘sirida Avazning adabiyotga havasi juda erta uyg‘onib, madrasada o‘qib yurgan davridayoq Sharq adabiyoti mumtoz vakillaridan Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiylarning ijodiga ixlos qo‘yib, ular bilan yakindan tanishdi va she‘rlar yoza boshladi. XX asr boshlariga kelib Avaz O‘tar xalq o‘rtasida tanilib, she‘rlari sozanda va xonandalar tomonidan kuyga solinib qo‘shiq bo‘lib aytila boshlanadi” [1].



Shoirning ustozlari Bayoniy, Tabibiy, zamondoshi Jumaniyoz Xivaqiy, do‘sti Hasanmurod Qori Laffasiy va boshqalar uning iste‘dodiga yuksak baho berishgan. Natijada Avaz O‘tar haqidagi bu xildagi ta‘riflar Xiva xoni Muhammad Rahim soniy – Feruzxonga yetib boradi va Avazni saroyga chaqirtirib, Tabibiyga shogird qilib topshiradi. Tabibiy juda ko‘p ilm ahliga g‘amxo‘rlik qilganidek Avazga ham axloq, ilm va she‘riyat bobida ko‘p narsa o‘rgatadi. Shuning uchun shoir turli davrlarda yozilgan she‘rlarida Tabibiyni

o‘ziga ustoz bilib zo‘r hurmat bilan tilga oladi.

Ne g‘am emdi, Avaz, nazm ilmida bo‘lsang Tabibiydek,

Ki derlar, ko‘rgan el nazmingni ustodishta sallomno.

“Afsuski, Avaz kamolotga yetgan bir paytda sil kasaliga chalinadi va davolanish uchun Kavkazga (1905-1906) boradi. Avaz O‘tar Kavkazga borayotib Bokuda bir oz muddat bo‘ladi. Bokuda shoir ozarbayjon jadid maktablari bilan tanishadi, Xususan Tohirzoda Sobir (1860-1911) singari shoirlar bilan uchrashib do‘stlashadi va ular bilan keyin ham ijodiy aloqada bo‘ladi. Sulton Majid G‘anizoda (1886-1937) tomonidan tashkil etilgan maktablar faoliyati bilan tanishadi. Safarali Valibeyov (1861-1902)ning “Vatan tili”, “Usuli jadid”, “Lisoniy forsiy” nomli asarlari va “Xazinai axbor” nomli ikki jildlik qomusiy lug‘atini, shuningdek, Rossiya, Kavkaz va Qrimda nashr etiladigan gazeta-jurnallarni ham Xorazmga olib keladi” [2].

Kavkaz safari Avaz O‘tar ijodida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. U safar davomida Kavkaz xalqlari hayoti, madaniyati, adabiyoti va boshqalar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldi hamda ozarbayjon xalqining ilm-fan, madaniyat yangiliklari bilan qiziqdi. U Xorazmdalik paytida ham doimiy ravishda

rus, ozarbayjon, tatar tillarida chiqadigan gazetalarni muntazam ravishda kuzatib borgan. Toshkent, Farg‘ona va Samarqandda chop etilgan matbuot bilan bevosita aloqada bo‘lib, yozgan g‘azallaridan ba‘zilarini ularda nashr ham ettiradi. Farzandini bosh vazir Islomxo‘ja tomonidan tashkil etilgan Xivadagi jadid maktabiga o‘qishga beradi.

Avaz O‘tar ijodi juda ham rang-barang bo‘lib, qamrovi nihoyatda keng edi. U mumtoz adabiyotimizdagi g‘azal, muxammas, mustazod, musamman, murabba‘, mulamma‘, tarje‘band, soqiynoma, ruboiy, qit‘a, fard kabi turlarida ijod qildi. Avaz O‘tar 1919-yilda 35 yoshda vafot etgan bo‘lsa-da, udan boy ijodiy meros qoldi. U hayotlik vaqtidayoq she‘rlarini to‘plab devon tartib qildi va ularni “Saodat ul-iqbol” (“Baxtli iqbol”) deb nomlagandi. Shoir tuzgan devonlarini 1908-yilda xattot mulla Boltaniyoz Qurbonniyoz o‘g‘liga berib ko‘chirtirgan. Shoirning bu devonlari O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Uning g‘azallari Xivada litografiya usulida ham o‘zi hayot vaqtidayoq chop etilgan edi. Avaz O‘tar ijodidan namunalar Xorazmda ko‘chirilgan turli xil bayoz va tazkiralardan munosib o‘rin oldi. Shoirning asarlari “Oyna”, “Vaqt”, “Mullo Nasriddin” kabi o‘z davridagi vaqtli matbuot sahifalarida chop etilgan. Avaz O‘tarning Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Komil, Feruz va boshqa shoirlarning g‘azallariga bog‘langan taxmislari ham mavjud.

Shoir ozarbayjon adabiyotining buyuk siymosi Muhammad Fuzuliyning hur muhabbat va shaxs erkinligi masalasiga bag‘ishlangan “Yozmishlar” radifli g‘azaliga go‘zal muxammas bog‘laydi. Muxammasda shoir insonlarning baxtli bo‘lishlari ijtimoiy tuzum bilan ham mustahkam bog‘liq degan xulosaga keladi.

1905-yilda Xivadagi uyida jadid maktabi ochgan Mamat mahramning do‘sti bo‘lganligidan, jadidchilik g‘oyalarini keng targ‘ib etish Avaz O‘tar ijodiga xos xususiyatlardan biridir. Bu uning “Til”, “Maktab”, “Xalq”, “Fidoyi xalqim”, “Topar ekan qachon?” degan she‘rlarida yaqqol ko‘rinadi.

Avaz O‘tarning hajviy asarlarida esa Rossiya mustamlakachi amaldorlari va mahalliy amaldorlar, boylik orttirish yo‘lida aldanchilik, riyokorlik qiluvchi boylar, sudxo‘rlar va shularga o‘xshash razil shaxslarning qilmishlari fosh etilib, hajv qilingan.

Avaz O‘tar bir qator asarlarida ijtimoiy tengsizlikni va uning keskinlashib borayotganligini haqqoniy tasvirlab, falakni “g‘addor”, zamonani esa “kaj” deb ataydi. Shoir ijtimoiy ruhdagi she‘rlarida o‘zining ozodlik, baxtli hayot haqidagi qarashlarini bayon qilgan. “Hurriyat”, “Sipohiylarga”, “Xalq”, “Topar ekan qachon?” “Fidoyi xalqim”, “Ulamolarga” kabi qator asarlarida Avaz O‘tarning yorqin kelajak xususidagi fikrlari o‘z aksini topgan.

Avaz O‘tar ijtimoiy she‘riyati zamirida zulm va zo‘ravonlik hisobiga to‘plangan boyliklarga nafrat, ikki tomonlama zulm ostida qolgan mehnatkash xalq hayotiga achinish tuyg‘usi yotadi. Shoir o‘sha jamiyatda yashab turgan kishilar o‘rtasidagi tafovutlarni, qarama-qarshiliklarni ro‘y-rost ochib tashlaydi.

Tarixdan ma‘lumki, Rossiya imperiyasining birinchi jahon urushiga qo‘shilishi, mustamlaka xonlikdagi vaziyatni og‘ir ahvolga keltirdi. Natijada mehnatkash xalq ahvoli battar og‘irlashdi, soliqlarning ko‘pligidan xalqning tinkasi quridi. Avaz O‘tar shu bois qiyin ahvolga tushib qolgan xalq hayotini qo‘rib qattiq achinadi:

Yo‘q jahon mulkida bizdek ojizu bechora xalq,

Zulm tig‘i birla bo‘lg‘an bag‘ri yuz ming pora xalq...

Ey Avaz, bo‘lmas shuningdek barho ovvora xalq.

Avaz O‘tar og‘ir kasal bo‘lgani bois shu davrdagi jadidlarning siyosiy kurashlariga qo‘shilmagan. Biroq u ma‘nan ularni qo‘llab-quvvatlab, “Maktab”, “Til”, “Xalq”, “Hurriyat” nomli she‘rlar yozgan. Ayniqsa, 1917-yil aprel Boboovun Salimov, Husayinbek Matmurodovlarning “Idorayi marshrutiya”-parlament tuzishini hurriyat yo‘lidagi qadamlardan deb bildi va “Hurriyat” nomli she‘r yaratdi.

Siyosat mahv bo‘ldi, yashasun olamda hurriyat,

Bori el ittifoq ila jahonni aylasun jannat...

Xiva shahrida ma‘rifatparvar, jadidchilik g‘oyalarini kuylagan Avaz O‘tarning uy-muzeyi tashkil etilgan va haykali, byusti o‘rnatilgan. U haqda Erkin Samandarning “Erk sadosi” dostoni, Ahmad Bobojonning “G‘azal fojiasi” dramasi, Sa‘dulla Siyoyevning “Avaz” nomli romani yaratilgan. N.Qobulov, V.Mo‘minova, Ibrohim Haqqul tomonidan “Avaz va uning adabiy muhiti” nomli monografiya, Nurmuhammad Qobulovning ikki jildlik “Xorazm adabiy muhiti” to‘plamida ham Avaz O‘tarning hayoti va ijodi yoritib o‘tilgan. A.O‘tar hayoti va ijodi bo‘yicha filologiya, pedagogika yo‘nalishlarida bir nechta dissertatsiyalar himoya qilingan. Biroq tarix fanida hali ma‘rifatparvar shoirning hayoti, faoliyati to‘liq tadqiq qilinmagan.

Avaz O‘tar Xivadagi Chodirli Eshon qabristoniga dafn etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umid Bekmuhammad “Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi”, Urganch – 2024-yil.

2. Sayyora Samandar, Umid Bekmuhammad “Xorazm jadidchiligi: islohotlar, ta‘lim va adabiyot”, Urganch – 2024-yil.

ARXITEKTURA**QADIMIY XORAZM “MIZDAKXON” PAXSADEVOR ME’MORIY
YODGORLIGINING ARXITEKTURAVIY XUSUSIYATI****UDK 624.012**

**Gavxar
DURDIEVA**
Arxitektura fanlari
doktori, professor.



**Islombek
RUSTAMOV**
Xorazm Ma'mun
akademiyasi tayanch
doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tumanida “Mizdakxon” paxsadevor me‘moriy obidasida joylashgan, obidalarning qurilish uslublari va materiallari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Аннотация: в статье представлена информация о стилях строительства и материалах памятников, расположенных в архитектурном глинобитном памятнике «Миздакхан» в Ходжаелинском районе Республики Каракалпакстан.

Annotation: this article provides information about the styles of construction and materials of monuments located in the architectural adobe monument “Mizdakhan” in the Khodjaeli district of the Republic of Karakalpakstan.

Kalit so‘zlar: qurilish materiallari, me‘moriy obida, qurilish uslublari, me‘morchilik, zilzilabardoshlik, texnik holat, usta-me‘morlar.

Ключевые слова: строительные материалы, архитектурный памятник, стили строительства, архитектура, сейсмостойкость, техническое состояние, мастера-архитекторы.

Key words: building materials, architectural monument, building styles, architecture, earthquake resistance, technical condition, master architects.

Yer yuzidagi mamlakatlar o‘rtasida yuksak me‘moriy inshootlari bilan faxrlana oladigan yurtlar juda sanoqli. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va Shahrisabz kabi butun olamga mashhur bo‘lgan va dunyoning yetti iqlimidan oqib kelayotgan sayyohlarni o‘ziga maftun qilayotgan boqiy shaharlar qatorida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi qariyb 2500 yillik tarixga ega bo‘lgan – “Mizdakxon” majmuasini sanab o‘tsak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.


Xalqimiz yaratgan va asrlar davomida shakllangan bu me‘moriy obidalarni o‘rganish, ularni asrab-avaylash, bugungi va kelajak avlodni undan bahramand etish barchamizning burchimizdir. Jahon me‘morchiligini mo‘jizasi bo‘lgan Qadimiy Xorazm Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Janubiy Orolbo‘yi) hududida

joylashgan purviqor me'moriy obidalarning tarixi, bugungi kundagi texnik holatlari va umrboqiyiligini ta'minlash muammolari haqidagi ma'lumotlarni keng jamoatchilik e'tiboriga yetkazishimiz lozimdir.

“Mizdakxon” majmuasi Qadimiy Xorazm hududi (hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Xo‘jayli tumani)da Xorazmshohlar imperiyasining poytaxti Ko‘hna Urganchdan atigi 25 km uzoqlikdagi masofada joylashgan. Bu shahar Buyuk ipak yo‘lida joylashgan bo‘lib, 985-yilda bu yerda bo‘lgan arab sayyohi al-Maqdisiyning yozishicha, Mizdakxon viloyatida o‘sha davrda 1200 feodal qo‘rg‘onlar mavjud bo‘lgan. Demak, bu shaharda ilm-ma‘rifat bilan birgalikda me‘morchilik va qurilish ishlari yuqori darajada rivojlangan. Bu fikrimizning isboti o‘laroq, ushbu hududdagi XII asrga oid, yerdan 10 metr pastda joylashgan “Nazlumxon suluv maqbarasi” deb atalmish mo‘jizaviy me‘moriy obidaning qurilish uslubi va unda ishlatilgan qurilish materiallari xuddi tirik tarixday har bir ko‘rgan kishida katta taassurot qoldirishi tabiiy holdir (1, 2-rasmlar).



a) yer ustidagi qismining eshigi



b) yer ostidagi kirish eshigi

1-rasm. Mizdakxon majmuasidagi XII – asrga oid, 10 m yer ostida joylashgan “Nazlumxon suluv” maqbarasining kirish qismidagi arkasimon eshiklar

Nazlumxon suluv me‘moriy yodgorligida ishlatilgan qurilish materiallarining tarkibi va ularning xossalarini tahlil qilgan N.S.Grajdankina bu yodgorlik XII asrga oid tarixiy obida ekanligini o‘zining ilmiy tadqiqotlari yordamida isbotlagan [2]. Arxitekturaviy qurilish jihatidan murakkab planda tiklangan ushbu obidaning umumiy yer maydoni 30x30 metr bo‘lib, u 10 metr yer ostida joylashgan. Yodgorlikning yerdan ko‘rinib turgan ustki qismining balandligi 5, 10 metr. Markaziy katta xonaning balandligi 10, 60 metr (2-rasm, a) bo‘lib, u sakkiz qirrali gumbaz bilan yopilgan. O‘qsimon gumbaz bilan yopilgan bu xonaga, ya’ni yer ostki qismiga 20 ta zinapoya orqali tushiladi (1-rasm, b).

Me'moriy yodgorlikning sag'analar joylashgan katta xonasining o'lchami 7,5x7,5 metr, ikki yon tomondagi xonalarning o'lchami 4,5x4,5 metr, balandligi esa 7,70 metrni tashkil qiladi. Bu xonalarda 3 ta qabr joylashgan bo'lib, ularda marmar lavhga arab tilida bitiklar yozilgan. Me'moriy yodgorlikni tiklashda 23,5x23,5x5 sm o'lchamdagi sifatli pishgan g'ishtlar ishlatilgan. Xonalardagi qadimiy Xorazm me'morchiligida ishlatilgan yashil rangdagi "gulbantik" koshin taxtachalari devorlarga juda mahorat bilan terib chiqilgan. Ayniqsa, gumbaz ostki qismiga ishlangan o'yma naqshli stalaktida-muqarnaslar (2-rasm, a) "Qiz" sag'anasidagi oltin suvi bilan ishlangan naqshlar o'sha davrdagi Xorazmlik usta-me'morlarining bilim va mahorati, qurilishdagi ish uslublari naqadar yuksak darajada taraqqiy etganligidan dalolat beradi.



a)



b)

**2-rasm. Mizdakxon majmuasidagi yer ostida joylashgan
"Nazlumxon suluv" memoriy yodgordigining ichki ko'rinishi
(a) va devor konstruksiyasidagi elementlar (b)**

O'qsimon sakkiz qirrali gumbaz konstruksiyasining har bir bo'lagida yoritish darchalari joylashtirilgan va gumbaz osti qismi yaxlit koshin taxtachalar bilan qoplangan. Me'moriy yodgorlikdagi ichki xonalarning pastki devorining 1,20 sm balandlikdagi qismiga gorizontaal yotqizilgan yog'och bruslar devor konstruksiyasini yanada mustahkamligini oshirib, ularni mahkamlovchi metall qoziqlar va naqshindor elementlar na faqat devorning zilzilabardoshligini ta'minlaydi, balki asrlar davomida xonaga o'zgacha chiroy bag'ishlab turibdi (2-rasm, b).

"Mizdakxon" majmuasida XI-XII asrga oid bo'lgan qadimiy Xorazmning me'morchiligida yana bir ajoyib durdona yodgorligi – Xalifa Rajab me'moriy obidasidir (3- rasm, a). Bu obida o'sha davrda madrasa yoki xonaqoh bo'lgan bo'lishi mumkin, hozirda uning faqatgina 16 metr balandlikdagi 3 ta devori saqlanib qolgan. Yodgorlikning plani kvadrat shaklida bo'lib, u kub shaklidagi gumbaz bilan yopilgan. Uning peshtoq va gumbaz qismi vaqt o'tishi davomidagi salbiy ta'sirlar natijasida yiqilgan.

Obidaning konstruksiyalari, poydevori, devori va tomyopma qismlarining barchasi 27,0x27,0x5,5 va 28,0x28,0x5,5 sm o'lchamdagi pishgan g'ishtdan tiklangan. Me'moriy yodgorlikning eng ko'rkam konstruktiv elementlaridan hisoblangan va O'rta Osiyo me'morchilik-qurilish ishlarida juda kam uchraydigan, gumbaztagning burchaklariga ishlangan pog'onasimon arkasimon paruslari – o'lchami 40,0x40,0x7,0 smlk pishgan g'ishtdan ishlangan.

Xalifa Rajab me'moriy yodgorligining sokol qismida qamish yotqiziqlar to'shalgan, ularni ba'zi qismlari chirigan, ammo ba'zi joylaridagi qamishlar 1000 yildan buyon ham yaxshi saqlangan. Bu qamish yotqiziqlar Qadimiy Xorazm me'morchik-qurilish ishlarida keng qo'llanilgan, chunki ular nafaqat devor konstruksiyasida gidroizolyatsiya vazifasini bajargan, balki g'isht qatlamlarini sho'rlikdan ham saqlagan. Qamish yotqiziq kapillyar namlikni o'ziga tortib, suvning bug'lanishini yengillashtiradi va shuning natijasida inshootga o'tuvchi namning va mavjud bo'lgan tuzlarni kristallik ta'sirini kamaytirishga erishiladi. Qamishning bu xususiyatini o'sha davrdagi ustalar juda yaxshi bilishgan va uni juda mohirlik bilan qo'llay bilishgan.

“Mizdakxon” majmuasida XIII asrga oid bo'lgan Qadimiy Xorazmning me'morchiligida qurilishi jihatidan betakror yodgorligi – Shamun Nabiy maqbarasidir (3-rasm, b). Bu maqbaraning o'lchami 30x5.85 metr bo'lib, u o'lchami 24x24x6 smlk pishgan g'ishtdan ishlangan balxi shaklidagi sferik gumbazlar bilan yopilgan. Eng diqqatli joyi shundaki, bu maqbaraning ichida bittagina sag'ana joylashgan bo'lib, uning o'lchami 25,31 x1,30 m, balandligi 1,07 metrni tashkil qiladi. Bu sag'ananing ustiga yettita gumbaz qurilgan.



a)

“Xalifa Rajab” me'moriy yodgorligidagi bag'al-paruslar (a)



b)

Shamun Nabiy maqbarasining ichki ko'rinishi (b)

3-rasm.

Bugungi kunda ushbu nodir tarixiy obida juda ta'mirtalab holga kelib qolgan, chunki asrlar o'tishi davomida va fasllar almashishi natijasida har qanday

mustahkam qilib tiklangan – qal’alar, me’moriy obidalar eskiradi, yemiriladi buziladi. Hozirgi paytda Janubiy Orolbo‘yi hududida atrof-muhit chiqindi gazlarining ko‘payishi va ekologiyaning keskin o‘zgarishi oqibatida havoda tuz, chang miqdorining ko‘payishi, sho‘rlikning oshishi, paydo bo‘layotgan har xil zararli hasharotlarning ko‘payishi Qadimiy Xorazm obidalarining yemirilish jarayonini tezlashtirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G‘.Ho‘janiyazov. Qoraqalpog‘istonning yetti ajoyib yodgorliklari. “Bilim” nashriyoti, Nukus – 2004.
2. В.Пилявский. Ургенч и Миздакхон. Москва. 1948.
3. Durdiyeva G.S. Qadimiy Xorazm paxsadevor me’moriy obidalari, Xiva – 2008.

URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI

Qabul 2024

URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETIDA
2024/2025-O'QUV YILI UCHUN QABUL
DAVOM ETMOQDA.

ONLINE QABUL
www.uriu.uz

Murojaat uchun:
+998 (91) 436-20-22
+998 (90) 436-20-22

[uriu.uz](https://www.instagram.com/uriu.uz) [uriu](https://www.youtube.com/uriu) [urganch_iu](https://www.facebook.com/urganch_iu) [uriu](https://www.facebook.com/uriu)

URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETIDA SIZ KUNDUZGI VA SIRTQI TA'LIM SHAKLLARI BO'YICHA QUYIDAGI:

- Boshlang'ich ta'lim;
- Tarix;
- Filologiya va tillarni o'qitish: O'zbek tili
- Filologiya va tillarni o'qitish: Ingliz tili yo'nalishlaridan birini tanlagan holda tahsil olishingiz mumkin.

QABUL JARAYONI UCHUN KERAK BO'LADIGAN HUJJATLAR:

- Rektor nomiga ariza;
- Diplom yoki attestat asl nusxasi (ilovasi bilan birgalikda);
- 3*4 lik 6 dona rasm;
- Pasport nusxasi.

Qabul shartlari, kontrakt summalari va sizni qiziqtirgan boshqa ma'lumotlar bilan rasmiy sayt yoki **call** markazga qo'ng'iroq qilish orqali tanishishingiz mumkin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

6 (16)
2024-yil, iyun.

Bosh muharrir: M.Eshmurodov
Mas’ul kotib: U.Bekimmetov
Musahhih: J.Sobirov
Texnik muharrir: M.Kuranbayev
Navbatchi: J.Sobirov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni №062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirish vaqti: 10:00. Topshirildi: 10:00.

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 4, 5 b.t. Buyurtma №21/24.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22